

Ahmadjon QURONBEKOV

FORS TILI

زبان فارسی



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A. QURONBEKOV, A. VOHIDOV, T. ZIYAYEVA

FORS TILI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*



**“Musiq” nashriyoti
Toshkent
2006**

81.2 Pers

K 80

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva

K 80 Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik /

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva;– T.: “Musiqqa”, 2006
– 568 b.

I. 1,2 muallifdosh.

BBK 81.2Pers ya722

Filologiya fanlari doktori, professor A.Quronbekov tahriri ostida

Forscha matn muharriri – *Seyyed Javad
Jalali-Kiyasari*

Taqrizchilar – *M.Imomnazarov,
filologiya fanlari doktori,
professor*

*X.Uralov, filologiya
fanlari nomzodi, dotsent.*

№ 388 – 2006

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Qat'iy buyurtma.

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining “Musiqqa”
nashriyoti. 2006 y.

وزارات آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان

احمد قرانیبیکوف، عوض بیک واحدوف، توخته خان ضیایو

زبان فارسی

از طرف وزارت آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان

بماتابه کتاب درسی زبان فارسی توصیه شده است

ویراستر کل: احمد قرانیبیکوف

ویراستر متن فارسی: سید جواد جلالی کیاسری

انتشارات “موسیقیه”

تاشکند

۲۰۰۶

Ushbu darslik filologiya (fors tili va adabiyoti) ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchilarga mo'ljallangan. Darslik ta'limning birinchi yili materiallari, ya'ni fors tili grammatikasi asoslarini, og'zaki so'zlashuv malakasini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi matnlar va dialoglarni o'z ichiga oladi.

Kitobdan oliy o'quv yurtlarining fors tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalari hamda fors tilini mustaqil o'rganayotganlar ham foydalanishlari mumkin. Darslikdan foydalanishda qulaylik yaratish uchun kitob oxiriga mashg'ulotlar leksik birliklarini qamrab olgan lug'at ilova qilingan.

SO'Z BOSHI

Fors tili O'zbekistonda qadim zamonlardan o'rganilib kelmoqda. O'tmish madaniy merosimizning kattagina bir qismi fors tilida yozilgan.

Hozirgi paytda fors tili O'zbekistonda ilmiy va amaliy maqsadlarda o'rganiladi.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu «Fors tili» darsligi fors tilini nazariy va amaliy maqsadlarda o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Bu darslikdan Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida fors tilini o'rganuvchi guruhlarning 1-kurs va fors tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganayotgan universitetlarning filologiya va tarix fakultetlari va litseylari talabalari foydalanishlari mumkin.

Darslik II qism, 25 darsdan iborat bo'lib, har bir dars 5-6 soat mashg'ulotga bo'lingan. Lekin talabalarning bilim saviyasiga qarab, 8-10 soat ham mashg'ulot o'tkazish mumkin.

Kitobning birinchi qismi beshta darsdan iborat bo'lib, asosan e'tibor fonetika va grafikaga qaratilgan.

Fors tilining fonetik sistemasi bir qarashda o'zbek tili fonetik tizimi bilan bir xilday ko'rinadi. Lekin aslida unday emas. Ayniqsa, cho'ziq unli fonemalar o'zbek tili fonemalaridan keskin farq qiladi. Fors tili fonetik sistemasini o'zbek o'quvchisi va talabalariga o'rgatayotganda mana shu keskin farqqa alohida e'tibor berish kerak. O'qituvchi to'g'ri hamma talabalar bu fonemalar talaffuzini to'g'ri o'rganib olgunga qadar mashq qildirishi kerak.

Unli fonemalarda o'zbek talabalari o'rganishi qiyin kechadigan yana bir fonetik jihat bu «ye» va «i», «o» bilan «u», «ye» bilan «a»ning ishlatilishi va talaffuzidir. Buning sababi o'zbek tilidagi fors va arab tilidan o'zlashgan so'zlarning o'ziga xos talaffuzidir. Masalan, o'zbek tilidagi "Eron", "muallim" "tuhfa", "kitob" so'zlari fors tilida "Irān", "moallem", "tohfē", "ketāb" deb talaffuz qilinadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu farqlar muntazam emas, balki ba'zi o'rinlarda bu fonemalar fors tili va o'zbek tilida o'zaro hamohangdir. Masalan, "nur", "pir", "sher", "qalam" so'zlari fors va o'zbek tillarida bir xil talaffuz qilinadi.

Undosh fonemalardan "q", "γ" fonemalarining farqini bilib olish o'zbek to'libi uchun qiyin kechadi.

Fors tilida «q» fonemasi yo'q, arab va turkiy tillardan kirib qolgan o'zlashmalardagi «q» fonemasi fors tilida "q" shaklida yoki yopiq bo'g'inlarda «x» shaklida talaffuz qilinadi. Masalan, "qoshiq" - "yāsoq" shaklida, "iqtisod" "extesād" shaklida talaffuz qilinadi.

Fors tilini o'rganishda yana bir xususiyat, bu fors tili uchun qabul qilingan arab yozuvidir. Arab tili fonologik tizimiga mos alifbodagi 28 belgi forscha to'la qabul qilingan, lekin ularning talaffuzi arab tilidan farqli. Masalan, fors tilida "s" undoshini ifodalash uchun س, ص, ه "h" fonemasi uchun "ح, ه, ز" fonemasi uchun «ظ, ض, ز» "z" fonemasi uchun «ط, ت» "y" fonemasi uchun «غ, ق» belgilari ishlatiladi. Bular faqat yozuvda farq qilib, talaffuzda bir xil talaffuz qilinadi. O'qituvchi bu fonemalarni o'rgatishda ham har gal qaysi o'rinda qaysi harf ishlatilishiga talabalarning e'tiborini qaratishi kerak.

Odatda, fors tilining fonetik tizimini o'tayotganda o'qituvchilar harflarni yozishga va o'qishga ko'proq vaqt ajratishadi va ularning talaffuziga ko'pda e'tibor berishmaydi.

Natijada bu talabalar institutni bitirguncha ham to'g'ri talaffuz qilishni o'rganmaydi. O'qituvchi fonetik tizimni o'rgatishga jiddiy e'tibor berishi, ajratilgan soatlardan to'la foydalanishi va, albatta, lingafon vositalaridan foydalanib, tolibga yo'l qo'yayotgan xatolarini ko'rsatishi kerak. Shuni unutmash kerakki, har bir noto'g'ri talaffuz qilingan so'z til egasi uchun savodsizlik nishonasi. Tolib tilning grammatikasi va so'z boyligini yaxshi o'rgansa-yu, noto'g'ri talaffuz qilsa, til egasi "Talaba, umuman, tilni bilmaydi" degan hukm chiqaradi.

Darslikning ikkinchi qismi ko'proq fors tilidagi so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning grammatik kategoriyalarini tushuntirish va o'rganishga bag'ishlangan. Bu qismda har bir so'z turkumining umumiy shakllari, yasalishi, boshqa so'zlar bilan bog'lanishi va gapdagi vazifalariga ta'rif beriladi. Bu xususiyatlarni talaba mustahkam egallab olishi uchun har biriga bir yoki bir nechta mashq beriladi.

Har bir grammatik mavzu o'tilgandan keyin shunga mos matn hamda bir tomonlama va ikki tomonlama suhbatlar berilgan.

Bu matn va suhbatlar, bir tomondan, tolibning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, ikkinchi tomondan, uning amaliy bilimini oshirishga mo'ljallangan.

Har bir matnda, odatda, 70-80% so'zlar qaytariladi, faqat 20-30% yangi so'z va iboralar kiritiladi.

Yangi kiritilgan so'zlar va ko'p qo'llaniladigan iboralarni mustahkamlash uchun har bir matnga leksik izohlar berilgan.

Uchinchi qismda asosiy e'tibor so'z birikmasi, sodda gap va qo'shma gap sintaksisi asoslarini o'rgatishga qaratilgan. Bu qismda ham har bir mavzu bir qator mashqlar bilan mustahkamlanadi.

Darslikda talabalarning yod olish quvvatini oshirish uchun ko'plab she'r, hikoyat, maqol va hikmatli so'zlar berilgan.

Darslikni to'la o'zlashtirgan talaba fors tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi asoslarini to'la o'rganib oladi, undan tashqari 1000-1200 so'z va og'zaki nutq iboralarini aktiv o'zlashtiradi.

Darslikni tuzishda I.K.Ovchinnkovaning «Uchebnik persidskogo yazika», Y.A.Samarening «Āmuzeš-e zabān-e fārsi» va Eronda chiqqan qator «Fors tili» darsliklaridan foydalanildi.

Mualliflar darslikning kamchilik va xatolarini ko'rsatib, o'z mulohazalarini bildiradigan kishilarga oldindan minnatdorchilik bildiradilar.

BIRINCHI QISM

BIRINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Fors tilidagi fonemalar tizimi

Inson nutqining tarkibiy bo'laklarini tashkil etuvchi tovushlarga fonemalar deyiladi. Fonemani ifodalovchi tovushlar tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq muayyan shaklga ega. Fonemalar insoniyat rivoji davomida turli xalqlarda turli shakllarni kasb etgan.

Shu sababli turli millatlar tilidagi nutq tovushlari – fonemalar bir xil emas. Masalan: o'zbek tilidagi "q" tovushi fors tilida yo'q, shuning uchun ikkala tilda mavjud bolgan ayni so'zlar boshqa-boshqa talaffuz qilinadi:

	o'zbek tilida	fors tilida
Masalan:	qoshiq	yāšoy
	qaymoq	qeymāy

Undan tashqari ikkala tildagi ayni fonemalar ham bir xilda talaffuz qilinmaydi va o'ziga xos talaffuz qoidalariga ega.

Mana shu zikr etilgan mulohazalarga ko'ra har bir tilning fonemalar (tovushlar) tizimi alohida o'rganiladi. Bu fonemalarning o'xshash va farqli jihatlarini til o'rganuvchi oson anglashi uchun, odatda, u ona tilidagi tovushlar tizimi bilan qiyosiy o'rganiladi.

1-mashq. O'zbek va fors tillarida ishlatiladigan quyidagi bir xil so'zlarning talaffuzini qiyoslang.

o'zbek tilida	fors tilida	o'zbek tilida	fors tilida
kitob	ketāb	kalit	kelid
qalam	yalam	sher	šir
xona	xāne	noma	nāme
maydon	meydān	hikmat	hekmat
daraxt	deraxt	maqola	mayāle
do'st	dust	risola	resāle

birodar

barādar

qonun

yānun

Fonema va harf tushunchasi

Fonema(tovush)lar yozuvda ma'lum shaklda ifodalanadi. Tovushlarning yozuvdagi shakli shartli bo'lib, har bir millat o'zining tiliga va undagi tovushlar tizimiga mos yozuvga ega bo'lishi mumkin. Lekin dunyodagi barcha tillar ham o'z yozuv tizimiga ega emas. Buning asosiy sabablaridan biri jahondagi tillar taraqqiyotining turli xil tarixiy sharoitda rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shuning oqibatida dunyoda keng tarqalgan yozuv turlari uncha ko'p emas, asosan lotin yozuvi (taxminan jahonning 70% aholisi qo'llaydi), arab yozuvi, xitoy yozuvi, hind yozuvi, kirill yozuvidan foydalaniladi. Ba'zi millatlarning, masalan: gruzinlar, armanlar, yahudiylarning va shunga o'xshash millatlarning o'z yozuvi bo'lib, bu faqat o'sha millat doirasida qo'llaniladi va boshqa xalqlarga tarqalmagan.

Fors tilida arab yozuvidan foydalaniladi. Bu yozuv Eronda 7-8-asrlarda arablar fathidan keyin rasm bo'la boshladi va hozirgi davrda ham arab alifbosidan foydalaniladi.

Arab alifbosi fors tili fonologik tizimini to'la aks ettirmaydi va ba'zi unli tovushlar ("e", "o", "a"), umuman, alifbo tizimiga kirmagan, ba'zi undoshlar ikki xil, uch xil va 4 xil harflar bilan ifodalanadi. Bu esa til o'rganuvchi uchun muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu sababdan bo'lsa kerak, 60-70-yillarda Eronda lotin alifbosiga o'tish harakati gazeta va jurnallarda keng muhokama etilgandi. Lekin hozircha Eronda arab alifbosi yagona yozuv vositasi sifatida qo'llaniladi.

O'zbek tilida hozirgi kunda lotin alifbosiga o'tish jarayoni ketyapti, shuning uchun fors yozuvidagi va o'zbek yozuvidagi harflar lotin alifbosiga qiyosan o'rgatiladi.

Harflar orasida talaffuz farqlarini ifodalash va uni yozuvda ko'rsatish uchun shartli belgilar tizimi – transkripsiyadan foydalaniladi.

“Transkripsiya” soʻzi lotincha boʻlib “trans” – oʻtkazish, “criptum” – yozuv maʼnosini anglatadi. Yaʼni bir yozuvdan ikkinchi yozuvga oʻtkazish maʼnosini beradi.

Fors tilida hozirgacha mavjud manbalarda ikki xil transkripsiya sistemasidan foydalaniladi:

1) Lotin harflari asosidagi transkripsiya sistemasi:

Hh	ه	Šš	ش	Āā (choʻziq)	آ
Tt	ة	Ss	ص	Bb	ب
Yy	ي	Zz	ض	Pp	پ
Āā	ي	Tt	ط	Tt	ت
ʻ	ء	Zz	ظ	Ss	ث
Aa	ا	ʻ	ع	Jj	ج
Ee	ي	γ	غ	Čč	چ
Oo	و	Ff	ف	Hh	ح
Uu	و	γ	ق	Xx	خ
li	ي	Kk	ك	Dd	د
An	ا	Gg	گ	Zz	ذ
On	و	Ll	ل	Rr	ر
Tashdid (ikki marta)	ا	Mm	م	Zz	ز
		Nn	ن	Žž	ژ
		Ww	و	Ss	س

2) Kirill alifbosi asosidagi transkripsiya sistemasi

Āā	А	Pp	پ	Гг	گ
Aa	а	Зз	ز	Лл	ل
Ээ	ا	Жж	ژ	Мм	م
Oo	ا	Сс	س	Нн	ن
Бб	ب	Шш	ش	В,о,у,оу	و
Пп	پ	Сс	ص	Н,э,(ей)	ه
Тт	ت	Зз	ض	Й,и,эй(ей)	ي
Сс	ن	Тт	ط		
Дж	ج	Зз	ظ		
Чч	چ	А,Э,О,-ʻ	ع		
Н h	ح	ʻ	غ		
Хх	خ	Фф	ف		
Дд	د	ʻ	ق		
Зз	ذ	Кк	ك		

Fors tili oʻrganuvchilari uchun bu ikkala transkripsiya majmuasi zarur boʻlib, shu kungacha chop etilgan kitoblardan foydalanishda qoʻl keladi.

2-mashq. Quyidagi soʻzlarning oʻzbek tilida lotin alifbosida ifodalanishi bilan lotin alifbosi asosida tuzilgan transkripsiya ifodalanishini qiyoslang:

oʻzbek tilida	fors tilida	oʻzbek tilida	fors tilida
Nargiz	narges	qudrat	yodrat
muhojir	mohājer	fozil	fāzel
majlis	majles	adliya	adliyye

<i>lojuvard</i>	<i>lāj(e)vard</i>	<i>sherdor</i>	<i>šerdār</i>
<i>guliston</i>	<i>golestān</i>	<i>sazovor</i>	<i>sazāvār</i>
<i>ko'r</i>	<i>kur</i>	<i>ro'zg'or</i>	<i>ruzegār</i>
<i>go'dak</i>	<i>kudak</i>	<i>daxmaza</i>	<i>daxmaze</i>
<i>kosa</i>	<i>kāse</i>	<i>xurjun</i>	<i>xorjin</i>

Ikkinchi mashg'ulot

Fors tilidagi unli tovushlar (umumiy ta'rifi)

Unli tovushlar deb talaffuz jarayonida biron to'siqqa uchramaydigan tovushlarga aytiladi.

Fors tilida 6 unli fonema va 2 ta diftong bor: Bular quyidagilar: "i", "e", "ā", "u", "o", "a" yakka unlilar va "ey" va "ou" diftonglari.

Unli tovushlar odatda ularning xossasiga ko'ra tasnif etiladi: Unli tovushning xossalari uch belgiga ega:

- hosil bo'lish qatoriga ko'ra;
- til ko'tarilishi darajasiga ko'ra;
- lablarning qatnashuviga ko'ra.

Fors tilidagi unlilar hosil bo'lish qatoriga ko'ra "old qator" va "orqa qator" unlilariga bo'linadi. "i", "e", "a" unlilari old qator va "u", "o", "ā" orqa qator unlilari hisoblanadi.

Har bir qatorda tilning uch xil ko'tarilish darajasi ko'zda tutiladi; yuqori, o'rta va quyi. Oldingi qator unlilardan "i" yuqori daraja, "e" o'rta daraja, "a" quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unli tovushlar hisoblanadi. O'zbek tilidagi orqa qator unlilardan "u" yuqori daraja, "o" o'rta daraja va "ā" quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unlilar hisoblanadi. "i", "e", "a" oldingi qator unlilari lablanmagan, "u", "o", "ā" orqa qator unlilari lablangan unlilardir:

Fors tilidagi unlilar jadvali

Qator	lablanmagan		lablangan
Til ko'tarilish darajasi	old	o'rta	orqa
Yuqori darajasi	I	—	U
O'rta darajasi	E	—	O

Quyi darajasi	A	—	Ā
---------------	---	---	---

Fors tili unlilarining o'ziga xos belgilaridan biri ulardagi cho'ziq qisqalik xususiyatidir.

Zamoniy ko'rsatgichga ko'ra:

"i", "u", "ā" cho'ziq unlilar, "e", "a", "o" qisqa unlilar hisoblanadi. Cho'ziq unlilar urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda kelishidan qat'i nazar, o'z cho'ziqlik xususiyatini saqlab qoladi.

Qisqa unlilar esa urg'uli bo'g'inlarda urg'u tushmaydigan bo'g'inlarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ba'zan bu unlilarning bu xususiyatlarini nazarga olgan holda sobit unlilar: "i", "u", "ā" va nosobit unlilar "e", "a", "o" ga ham ajratiladi.

3-mashq. Quyidagi so'zlarda unlilarning talaffuz xususiyatlariga e'tibor bering.

Qisqa unlili so'zlar:

sar
ser(r)
to
xodrou
madrase
yek
do
panj
gol
pesar
doxtar
pedar

Cho'ziq unlili so'zlar:

bini
dānā
pīr
māmān
nuri
sāl
pīr
sālār
tutun
sāmāni
kutāh
mānus
niru

4-mashq. Qisqa va cho'ziq unlilardan iborat so'zlarning talaffuziga e'tibor bering.

Mādar, mardāne, miḥmānxāne, ābrumand, goftogu, xānegi, kabutar, kelid, navisande, zanāne, šefāxāne, xoršid, setāre, māhetābān, ketābxāne, ketābe darsi, bimārestān.

Fors va o'zbek tilidagi unlilar talaffuzidagi asosiy farqlar

O'zbek tilida ham fors tilidagi kabi oltita unli fonema mavjud: a, o, i, "e", (e) u, o'. Ular son jihatdan bir xil – 6 ta, lekin sifati bilan farq qiladi.

Birinchi farq bu fors tilidagi unlilarning hosil bo'lish qatoridagi farqidir; o'zbek tilidagi "i" unlisi fors tilidan farqli ravishda til orqa qatoriga ham xosdir "u" va "o'" unlilarining, fors tilidan farqli ravishda, til oldi varianti ham mavjud:

Mas: til oldi qatori

ish
tish
biz
keling

kul
gul
uzum
sunbul

o'rdak
ko'l
ko'klam
g'o'za

til orqa qatori

qizyq
qyr
qyz
qymyz

qul
pul
qulun
qum

o'roq
qo'l
yo'l
bo'l

Fors tilidagi unlilarning o'zbek tilidagi unlilardan ikkinchi bir keskin farqi "i", "u" fonemalarining cho'ziqlik xususiyatidir. O'zbek tilidagi "i" va "u" unlilari cho'ziqlik xususiyatiga ega emas. Fors tilidagi "ā" unlisi bilan o'zbek tilidagi "o" unlisi deyarli bir xil cho'ziq talaffuz qilinadi.

5-mashq. Quyidagi so'zlarda unlilarning talaffuzidagi farq va o'xshashlikka e'tibor bering.

"i" unlisi

Fors tilida

til oldi
ijād
digar

O'zbek tilida

til oldi
iliq
mil

O'zbek tilida

til orqa
idish
mix

imān
niru
pišin
nāmiy
hādiy

til
siz
yirik
birikish
ming

tig'
sir
qizil
qimiz
qirg'iz

"u" unlisi

Fors tilida

nur
niru
buy
bute
bud
pul
puš

yumshoq"u"

gul
kul
uch
uchun
kuch
puch
bulbul

qattiq"u"

qush
qul
tur
qur
bur
ur
qum

"ā" unlisi

Fors tilida

ābād
āsmān

ādāb
ālam

O'zbek tilida

obod
osmon

odob
olam

Uchinchi mashg'ulot

Diftonglar

Fors tilida unlilardan tashqari ikkita diftong: "ey" va "ou" uchraydi. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: *eyvān*, *keyvān*, *sougand*, *xodrou*.

Diftonglar so'zda faqat undosh tovushlardan avval so'z boshida, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi.

Unli tovushlardan oldin hech qachon diftonglar uchramaydi va bunday holatlarda diftong birikmasining ikkinchi bo'lagi undosh tovushga aylanadi: masalan; *peyrou-peyравān-peyravi*. *Farroxpey-farroxpeyān*.

6-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tilidagi ayni so'zlarning talaffuzi bilan qiyoslang.

Fors tilida	O'zbek tilida	Fors tilida	O'zbek tilida
<i>eyvān</i>	ayvon	<i>housale</i>	hafsala
<i>beyray</i>	bayroq	<i>houz</i>	hovuz
<i>peydā</i>	paydo	<i>houle</i>	hovli
<i>peyrou</i>	payrov	<i>dourān</i>	davron
<i>peyyāmbat</i>	payg'ambar	<i>doure</i>	davra
<i>peymān</i>	paymon	<i>doulat</i>	davlat
<i>heyvān</i>	hayvon	<i>roušan</i>	ravshan
<i>heydar</i>	haydar	<i>roušaniy</i>	ro'shnolik
<i>reyhān</i>	rayhon	<i>zouraq</i>	zavraq
<i>zeytun</i>	zaytun		

7-mashq. Berilgan so'zlardan diftongli so'zlarni ajrating.

āsāyeš, uryāt, avval, āvizān, āine, innou, bālāye, bāvar, bāyad, barāye, beyān, beyt, bidār, beyn, binīyāz, pāyin, piyāz, tošak, tavajjoh, touzih, tavallod, tahiye, jelou, javāb, jour, jouhar, čāy, četour, hekāyat, houle, heyāt, xāvar, xiyābān, xeyli, dey, davāzdah, devist, divāne.

To'rtinchi mashg'ulot

Undoshlar

Undosh tovushlar (fonemalar) deb, ichkaridan chiqayotgan havo nutq a'zolarining biron yerida to'siqqa uchrab sado hosil qilishiga aytiladi.

Unlilardan farqli ravishda undoshlarni tasnif qilish ancha murakkabroq bo'lib, paydo bo'lish o'rni, aytilish usuli, tovush paychalari ishtiroki, ovoz ishtiroki, tarkibi va yana boshqa xususiyatlariga ko'ra aniqlanadi.

Fors tilida 23 ta undosh bo'lib, ular quyidagilardan iborat: b, p, t, s, j, č, h, x, d, z, r, ž, š, γ, f, k, g, l, m, n, w, y.

Fors tilidagi undoshlar yuqoridagi belgilariga qarab farqlanishi jadvalda shunday aks topadi.

Fors tili undoshlari jadvali

Portlovchi	Sof		Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Til o'rta	Til orqa	Halqum	Kekirdak	Bo'g'iz
		Bedimog'	P,b		T,d	K,g				
		Dimog'li	M		N					
	Qorishiq				Č, j					
Sirg'aluvchi	O'rta	Bir manbali		F,v	S,z	Y		X,γ	H	
		Ikki manbali			Š,ž					
	Yon				L					
Titroali					R					

Fors tilidagi undoshlar bilan o'zbek tilidagi undoshlarning o'xshash va farqli tomonlari

O'zbek adabiy tili undoshlar tizimida 25 ta fonema bor. Miqdor jihatidan fors tiliga nisbatan 2 ta fonema ko'p.


Fors tilidagi asosiy undoshlar tizimi, ularning talaffuzidagi o'ziga xos xususiyatlarga qaramasdan, deyarli bir xil.

Fors tili undoshlar tizimidagi fonemalarning o'zbek tilidagi undoshlardan farqli tomoni shundaki, fors tilida "q" undoshi uchramaydi va o'zbek yoki boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardagi "q" tovushi ham "γ" shaklida talaffuz qilinadi. Masalan: turkiy tildagi "cho(p)qu", "chāyu" shaklida, arabcha "qudrat", "yodrat" shaklida va h.k.

Fors tilida "ma'ni", "ta'lim", "erfan" so'zlaridagi " ' " tovushi bo'g'iz tovushi sifatida ajratiladi. Bu tovush arabchadan o'zlashgan so'zlarda uchrasa ham fors tilida arab tilidagi artikulyatsiya xususiyatlarini saqlab qolmagan va faqat tovushlarni cho'ziqroq talaffuz qilish va bir-biridan ayirish uchun xizmat qiladi hamda bu jihatdan o'zbek tilidagi talaffuziga o'xshash.

9-6404/3

Nizomiy nomli
TDPU
kutubxonasi



8-mashq. Quyidagi fors va o'zbek tillaridagi bir xil undoshlarning talaffuziga e'tibor bering.

O'zbek tilida	Fors tilida
qobil	<i>yābel</i>
qozi	<i>yāzi</i>
qoq	<i>yāy</i>
qolib	<i>yāleb</i>
qonun	<i>yānun</i>
qadah	<i>yadah</i>
qudrat	<i>yodrat</i>
qurbon	<i>yorbān</i>
qorako'l	<i>yarakol</i>
qozoq	<i>yazzāy</i>

9-mashq. Fors va o'zbek tillaridagi arab tilidan kirib kelgan bo'g'iz tovushi " " ning talaffuziga e'tibor bering".

Fors tilida	O'zbek tilida	Fors tilida	O'zb.tilida
<i>E'āne</i>	iona	<i>ta'bir</i>	ta'bir
<i>e'tebār</i>	e'tibor	<i>yat'i</i>	qat'iy
<i>e'tcdāl</i>	e'tidol	<i>taajjob</i>	taajjub
<i>c'terāz</i>	e'tiroz	<i>šam'</i>	sham
<i>c'teyād</i>	e'tiqod	<i>tame'</i>	tama
<i>ba'zi</i>	ba'zi	<i>man'</i>	man
<i>ta'ādol</i>	taodil	<i>naf'</i>	naf
<i>ta'ārof</i>	taorif	<i>yal'e</i>	qal'a
<i>vā'ez</i>	voyiz		

Fors tilida undoshlarning so'zda ishlatilishining ba'zi xususiyatlari

1. Fors tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, so'z boshida qo'sh undoshlar yonma-yon kelmaydi. Agar chet tillardan o'zlashgan so'zlarda shunday holatlar uchrasa ular orasiga yoki ulardan oldin "e" yoki "o" unlisi orttiriladi. Masalan: "stakan", "estakan", "traktor" – "teraktor" va shunga o'xshash. Bu hodisa oldinlari o'zbek tilida ham kuzatilgan, lekin sho'rolar davrida rus va internasional so'zlar aynan talaffuz shaklini saqlab qolishi rasm

bo'ldi. Masalan: stol-ustal, shtraf-ishtaraf, stansiya-istansa shaklida talaffuz qilingan edi.

"l" va "r" undosh tovushlaridan iborat so'zlar bundan mustasno. Masalan: "proje", "plan" va shunga o'xshash.

2. Arab tilidan kirib kelgan ba'zi so'zlar oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri tushib qoladi. Masalan: arab tilidagi *hadd*, *durr*, *sirr* so'zlari fors tilida, *had*, *dor*, *ser* shaklida talaffuz qilinadi.

Fors tilidagi bu so'zlar oxiriga boshqa qo'shimcha qo'shilishi bilan qo'sh undoshlar talaffuzi tiklanadi. Masalan: "*had-de hadde*", "*dor-dorre yatim*" va h.k.

Beshinchi mashg'ulot

"f", "u", "ā" cho'ziq unililari

"f", "u", "ā" unililari o'z talaffuz xususiyatlariga ko'ra har doim bir xil cho'ziqlikka ega bo'lib, o'zining urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi, qaysi harflardan keyin kelishidan qat'iy nazar doimo sobit talaffuz qilinadi. "f" unlisi – old qator, yuqori ko'tarilgan, lablanmagan, cho'ziq (sobit) unlidir.

a) Fors tilidagi "f" unlisi keskin farq qiladi. O'zbek tilidagi "f" unlisi qisqa unli bo'lib, old qator "i" va orqa qator "y" (ы) variantlariga ega. Fors tilida esa "f" unlisi so'z boshida, o'rtasida, yoki oxirida kelishidan qat'iy nazar doimo cho'ziq talaffuz qilinadi.

b) Fors tilidagi undoshlar "f" unlisidan oldin biroz yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan: *sin*, *din*, *bini*.

Fors tilidagi "u" unlisi orqa qator, yuqori ko'tarilgan, lablangan cho'ziq (sobit) unlidir.

Fors tilidan farqli ravishda o'zbek tilidagi "u" unlisi qisqa talaffuz qilinadi.

O'zbek tilidagi "u" unlisining fors tilidan farqli ravishda ham orqa qator va ham old qator variantlari mavjud. Masalan: orqa qator: gul, kul, buyuk.

c) Fors tilidagi "u" unlisi urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishidan qat'i nazar, cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *rude*, *niru*, *kur*.

Fors tilidagi "ā" unlisi, orqa qator, quyi ko'tarilgan, lablangan, cho'ziq (sobit) unlidir.

a) O'zbek tilidagi "o" unlisining fors tilidagi "ā" unlisidan farqi shuki, o'zbek tilidagi "o" lablashgan ochiq unlidir.

b) O'zbek tilidagi "o" unlisi urg'uli bo'g'inda cho'ziqroq talaffuz qilinadi va urg'usiz bo'g'inda qisqaroq. Fors tilida "ā" unlisi qaysi bo'g'inda kelishidan qat'iy nazar birday cho'ziq talaffuz qilinadi.

10-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qituvchi bilan talaffuz qiling.

a) *in, si, ċin, nim, sir, sini, bini, simin, šir, širin, yir, tir, pir;*

b) *mu, ru, bu, su, dur, nur, gur, bumi, birun, tuman, tut, pušāk, duri;*

s) *ān, mā, nān, nām, mār, mārs, bādām, bārān, bāzār, bimār, bidār, bānu,*

zānu, bāzu, fārsi, zibā, irān.

11-mashq. Quyidagi so'zlarni yod oling.

<i>mu</i>	- soch	<i>bāzār</i>	- bozor
<i>bini</i>	- burun	<i>mā</i>	- biz
<i>nān</i>	- non	<i>fārsi</i>	- fors tili
<i>mār</i>	- ilon	<i>bāzu</i>	- bilak
<i>mādar</i>	- ona	<i>zānu</i>	- tizza
<i>u</i>	- u	<i>Irān</i>	- Eron
<i>ru</i>	- yuz	<i>zibā</i>	- chiroyli
<i>nām</i>	- ot, ism	<i>bār</i>	- yuk

Oltinchi mashg'ulot

Qisqa unlilar: "e", "a", "o"

Qisqa unlilar, cho'ziq unlilardan farqli ravishda, so'zda tutgan o'rniga va fonetik holatiga qarab o'zgarib turadi. Qisqa unlilar ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgaruvchan tovushlardir. Qisqa unlilar urg'u tushish-tushmasligiga qarab, gohida cho'ziq, gohida o'ta qisqa talaffuz qilinadi. Undan tashqari qisqa unlilar talaffuziga uning qanday undoshlar bilan yonma-yon turishi ham ta'sir ko'rsatadi. Qisqa unlilar sifat jihatidan ham turli pozitsiyada turlicha: gohida oldingi qatorda, gohida orqa qatorda talaffuz qilinadi.

Qisqa unlilardan "e" unlisi oldingi qator, o'rta ko'tarilgan, lablanmagan, nosobit tovushdir.

"E" qisqa unlisi fors va o'zbek tillari uchun mushtarak so'zlarda "i"ga aylanib, ba'zida majhul "e" shaklida talaffuz qilinadi: Masalan:

fors tilida

eybāl

eslām

ketāb

nāder

nāme

o'zbek tilida

iqbol

islom

kitob

nodir

noma

O'zbek tilida "e" unlisi ko'pincha so'z boshida va so'z o'rtasida uchraydi, so'z oxirida faqat o'zlashgan so'zlarda uchrash mumkin.

Fors tilida bu unli so'z boshida, asosan, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi, o'zbek tilidagi "e" ga ko'ra orqa qatorda, yopiqroq va kuch bilan talaffuz qilinadigan tovushdir.

"E" unlisi ikkita jarangsiz undosh orasida va urg'usiz bo'g'inlarda ko'proq qisqaradi. Masalan: ketāb - kitob, *sekke* - tanga. "E" tovushi "y" undoshidan va "i" unlisidan oldin kelganda o'ta qisqa va yopiq tovushga aylanadi. Masalan: *beist-biist, beya-biya* shaklida talaffuz qilinadi.

"E" tovushi so'z oxirida o'zbek tilidagi "e" ga yaqinroq ochiq va old qatorda, yumshoqroq talaffuz qilinadi: masalan; *sine* - sina, *gune* - yanoq, *rude* - ichak va shunga o'xshash. "A" qisqa unlisi oldingi qator quyi ko'tarilgan, lablanmagan, nosobit tovushdur. Uning talaffuz xususiyatlari o'zbek tilidagi "a" tovushi bilan deyarli bir xil. Farqi shundaki "a" unlisi so'z oxirida deyarli uchramaydi va hatto o'zlashgan so'zlardagi so'z oxiridagi "a" tovushi "e" ga aylanib ketadi. Masalan: qovurma - *yurme*, Nadima - *nadime* va h. k. "A" unlisi so'z boshida kelganda ochiqroq, kengroq talaffuz qilinadi. Masalan: *amal-amal, agar-agar* va h.k.

So'z o'rtasida, ayniqsa, "y" undoshi va "i" unlisidan oldin o'ta qisqa va tor talaffuz qilinadi. Masalan: *nayā-neya* (kelma) va *naist-neist* (turma) shaklida talaffuz qilinadi.

Arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda "a" tovushi til orqa tovushiga aylanib yopiqroq talaffuz qilinadi: Masalan: *ta'rix-tarix, ta'min* so'zlari kabi.

"O" unlisi - orqa qator, o'rta ko'tarilgan, lablangan, qisqa tovush bo'lib, o'zbek tilidagi orqa qator "o" tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. O'zbek tilida fors tilidan farqli ravishda old qator "o" tovushi ham uchraydi.

“O” unlisi barcha qisqa unlilar kabi yopiq bo’g’in va urg’usiz bo’g’inlarda o’ta qisqa talaffuz qilinadi.

fors tilida	o’zbek tilida	fors tilida	o’zbek tilida
<i>omr</i>	umr	<i>mohem</i>	muhim
<i>ostād</i>	ustoz	<i>tabarroq</i>	tabarruk
<i>ostoxān</i>	ustuxon	<i>xānom</i>	xonim
<i>bot</i>	but	<i>xorram</i>	xurram
<i>bohrān</i>	buhron	<i>yodrat</i>	qudrat
<i>Boxārā</i>	Buxoro	<i>gorji</i>	gurji

12-mashq. Quyidagi so’zlarni yod oling.

<i>gorbe</i>	- mushuk	<i>pedar</i>	- ota
<i>abru</i>	- qosh	<i>pesar</i>	- o’g’il
<i>pā</i>	- oyoq	<i>doxtar</i>	- qiz
<i>bālāpuš</i>	- palto	<i>sandali</i>	- stul, kursi
<i>dar</i>	- eshik	<i>zan</i>	- ayol
<i>zamin</i>	- yer	<i>šomā</i>	- siz
<i>barādar</i>	- aka, uka	<i>bām</i>	- tom

IKKINCHI DARS

Birinchi mashg’ulot

Fors tili yozuv tizimi

Fors yozuv tizimi arab alifbosi asosida qurilgan. Fors yozuvida 32 ta harf mavjud. Fors tilida mavjud, arab tilida ucharamaydigan undoshlarni ifodalash uchun arab tilidagi 28 ta harfga qo’shimcha to’rtta harf kiritilgan.

Arab yozuvining bosma va qo’lda yozish shakllari biroz farq qiladi. Bosma shakli ko’proq “nasx” uslubida va yozma shakli “nasta’liq” uslubida yoziladi.

Bu harflarning Yevropa tillari yozuvidan farqi shundaki, arab yozuvi o’ngdan chapga qarab yoziladi.

Fors alifbosining bosma shakli

Harf nomi	fonema	oxirida	o’rtasida	so’z boshida	alohida shakl
alef	a, o, e, ā	ا	-	-	ا
be	b	ب	ب	ب	ب
pe	p	پ	پ	پ	پ
te	t	ت	ت	ت	ت
se	s	س	س	س	س
jim	j	ج	ج	ج	ج
chim	č	چ	چ	چ	چ
he(hoye hutti)	h	ح	ح	ح	ح
xe	x	خ	خ	خ	خ
dol	d	د	-	-	د
zol	z	ذ	-	-	ذ
re	r	ر	-	-	ر

ze	z	ز	-	-	ز
Je	Ž	ژ	-	-	ژ
sin	S	س	س	س	س
shin	Š	ش	ش	ش	ش
sod	S	ص	ص	ص	ص
zod	Z	ض	ض	ض	ض
to	T	ط	ط	ط	ط
zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
‘ayn	‘	ع	ع	ع	ع
yayn	γ	غ	غ	غ	غ
fe	F	ف	ف	ف	ف
qof	γ	ق	ق	ق	ق
kof	k	ك	ك	ك	ك
gof	g	گ	گ	گ	گ
lom	l	ل	ل	ل	ل
mim	m	م	م	م	م
nun	n	ن	ن	ن	ن
vov	v	و	-	-	و
he (hoye hav-vaz)	h	ه	ه	ه	ه
yo	y	ی	ی	ی	ی

Ikkinchi mashg'ulot

Fors alifbosidagi harflarning lotin alifbosidan farqi shundaki, harflarning alohida yoziladigan shakli, so'z boshidagi, o'rtasidagi va

oxiridagi shakllarining yozilishi bir-biridan farq qiladi. Undan tashqari fors alifbosida o'zidan keyingi harflarga qo'shiladigan (حروف متصله) va o'zidan keyingi harflarga qo'shilmaydigan harflar (حروف منفصله) mavjud.

Qo'shiladigan harflar soni 25 ta va qo'shilmaydigan harflar soni 7ta.

O'zidan keyingilari bilan birikadigan harflar: (حروف متصله)

ب، پ، ت، ث، ج، ق، ف، غ، ع، ظ، ط، ص، ض، ش، س، خ، ح، چ، ك، گ، ل، م، ن، ه، ي.

1-mashq. Qo'shiladigan harflarning alohida yozilishini mashq qiling.

2-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z boshidagi shakllarini yozib mashq qiling.

3-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z o'rtasidagi shaklini yozishni mashq qiling.

4-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z oxirida yozilishini mashq qiling.

Yod olinadigan so'zlar

<i>daftar</i>	- daftar	<i>kārd</i>	- pichoq
<i>panjare</i>	- deraza	<i>kuze</i>	- ko'za
<i>āsmān</i>	- osmon	<i>sib</i>	- olma
<i>bačče</i>	- bola	<i>golābi</i>	- nok
<i>dast</i>	- qo'l	<i>gusfand</i>	- qo'y
<i>dastkeš</i>	- qo'lqop	<i>fil</i>	- fil
<i>došak</i>	- to'shak	<i>gorg</i>	- bo'ri
<i>patu</i>	- adyol	<i>alefbā</i>	- alifbo

Iboralar:

Dars-e zabāne fārsi

- fors tili darsi

<i>Dars šoru' šode ast benevisid</i>	- dars boshlandi, yozing
<i>Bebinid, dorost-āst</i>	- qarang, to'g'rimi?
<i>Guš konid</i>	- eshiting
<i>Dorost nist</i>	- noto'g'ri

Uchinchi mashg'ulot

O'zidan keyingilariga qo'shilmaydigan harflar

(حروف منفصله)

Bunday harflar quyidagilardan iborat: ا د ذ ر ز ژ و

Bu harflar qo'shiladigan harflarga o'xshab to'rtta shakldan iborat bo'lmay faqat ikki – so'z boshi va soz oxiridagi shakllarga ega:

Alohida yozilishi: و، د، ذ، ر، ز، ژ، و

O'zidan oldingi harf bilan qo'shib yozilish shakli: و، د، ذ، ر، ز، ژ، و

5-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozishni mashq qiling.

زار-راز-دار-داد-راد-راد-دار-او-از-وادار-واو-دادار-دارو-آر-

زر-زور-دور.

6-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozishni mashq qiling.

مرد-مادر-سرد-کارد-بابا-مروارید-زمرد-قربان-مادر-قدرت-صلیر-

صیر-برابر-موی-مبارک-مشترک-توکل-ترتیب-طرز.

7-mashq. Berilgan so'zlarni fors alifbosida yozing.

Dur, dud, rud, dour, ruz, zud, zur, dāru, rāz, dānā, panjare, āsmān, dast, del, kārd, kuze.

8-mashq. Berilgan harflardan so'z yasang. Misol:

گ و س ف ن د - گوسفند

پ اپ	ن ان
ب ار	ب ا ر ان
ت اب	ت ا ب ان
ب از	ي ا ر
ت ار	ي ا د
پ ا د شاه	پ ا ي ان
ب ا ز ار	ب ا ي
ن از	ن ا ر

To'rtinchi mashg'ulot

Cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishi

Fors tilida, yuqorida zikr etilganday, 6 ta unli tovush bo'lib shulardan faqat uchta cho'ziq unli yozuvda harflar bilan ifodalanadi. Bu tovushlar i, u, ā tovushlaridir. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, qisqa unlilar yozuvda ifodalanmaydi, ularni ifodalash uchun maxsus belgilar "harakat"lardan foydalaniladi. "Harakat"lar haqida alohida mashg'ulotda tushuntirish beriladi.

Cho'ziq unlilarning so'z boshi, so'z o'rtasi va oxiridagi shakllari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun quyida ularning har birining yozuvdagi ifodasi alohida ko'rsatiladi. So'z boshida kelgan madda "ā" unlisini ifodalash uchun ishlatiladi. "ā" cho'ziq unlisi so'z boshida "ā" shaklida, so'z o'rtasi va oxirida "alef" harfi bilan ifodalanadi, mas: آزاد, باران, دارا, دان

Harakatlar ba'zan lug'atlarda so'zlarning tarkibidagi qisqa unilarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Fors tilidagi matnlarda harakatlar qo'yilmaydi.

Qisqa unilarning so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida ishlatilishi o'zaro bir-biridan farq qiladi. "A" qisqa unlisi so'z boshida *ā* (*alif zabar*) bilan, so'z o'rtasida o'zidan oldingi undosh tepasiga *̣* (*zabar*) qo'yish yo'li bilan, masalan: *مَرْدُم* ifodalanadi. "A" qisqa unlisi so'z oxirida uchramaydi. "E" qisqa unlisi so'z boshida *ē* (*alif zir*) bilan, so'z o'rtasida *̇* (*zir*) bilan ifodalanadi. So'z oxirida "e" qisqa unlisi "ē" (*ho-ye havvaz*) bilan ifodalanadi. "O" qisqa unlisi so'z boshida, *ū* (*alif pish*) bilan, so'z o'rtasida *̈* (*pish*) bilan, masalan *پَر* ifodalanadi. "O" qisqa unlisi so'z oxirida deyarli uchramaydi va uchragan hollarda ham "و" harfi bilan ifodalanadi. mas: *دو* [*do*] - ikki, *تو* [*to*] - sen va h.k. Undan tashqari ikki undosh orasida unli yo'qligini ifodalash uchun "ٔ" "*sokun*" harakati qo'llaniladi. Masalan: *مَرْد*

12-mashq. Quyidagi so'zlarni ko'chirib yozing va undagi harakatlarni transkripsiyada ifodalang.

اَبَدًا، اَبَجَد، اَبَد، اَبَر، اَبَرُو، اَبَرِشْم، اَلْفَاق، اَلْوَبَس، اَلْوَكْش، اَجَارَه، اَجازه
اَجاق، اَحْتِرام، اَحْتِمَال، اَحْتِياج، اَخْتَر، اَخْتِصاص، اَخْتِلاف، اَذَب، اَذِي، اراده،
بُسْتان، بَلَد، بَهَار، پُرْسِيدَن، تَصَوُّر، خَمَر، دُرود، دُرْد، دَه، رَقَم، رَئِجِر، زَن، زَمِيَر.

13-mashq. Quyidagi so'zlarni fors alifbosida yozing.

Asad, otubus, tond, parde, panbe, sobh, basar, karam, yalam, yermez.

14-mashq. Quyidagi so'zlarni lug'atdan toping va transkripsiyasiga qarab harakatlarini qo'yib chiqing.

اير، اجازه، احتياج، احمق، احوالبرسي، اسباب، استاد، استراحت، اشتها،
اكبر، امشب، اميد، بير، بد، برف، برنج، يز، بزرگ، بلبل، پوستش، پزشك، پر،
پشت، پل، پنجشنبه، ترجمه، ترش، نفس، هرم، حكيم، گلبرگ، گم کردن،
وسط.

Quyidagi so'z va iboralarni yod oling:

Yevropa - اروپا [<i>orupā</i>]	ruxsat - اجازه [<i>ejāze</i>]
ular - آنها [<i>ānhā</i>]	bugun - امروز [<i>emruz</i>]
u - آن [<i>ān</i>]	so'z - واژه [<i>vāže</i>]
bu - این [<i>in</i>]	davom - ادامه [<i>edāme</i>]
anor - انار [<i>anār</i>]	qaytadan - دوباره [<i>do bāre</i>]
suv - آب [<i>āb</i>]	juda, o'ta - بسيار [<i>besyār</i>]
bulut - ابر [<i>abr</i>]	ozod - آزاد [<i>āzād</i>]
un - آرد [<i>ārd</i>]	yana bir bor yozing - بنويسيد
kirsam maylimi? - اجازه است؟	[<i>do bāre benavisid</i>]
[<i>ejāze ast</i>]	tushundingizmi? - فهميدي؟
davom ettiring - ادامه بدهيد	[<i>fahmidid</i>]
[<i>edāme bedchid</i>]	tushundim - فهميدم [<i>fahmidam</i>]

Oltinchi mashg'ulot

Fors tilida "x" va "h" (خ، ح، ه) harflarining qo'llanilishi

Fors va o'zbek tillarida "x" va "h" harfi ishlatiladigan so'zlar ko'pincha mushtarak bo'lib, asosan, arab tilidan o'zlashgan.

O'zbek talabalari uchun, ayniqsa, Toshkent shevasida "x" bilan "h" harflarini ajratib olish qiyin kechadi.

Birinchi bosqichda "x" tovushi til orqa, qattiq talaffuzga ega ekanligini va "h" tovushi bo'g'izdan sirg'alib chiquvchi, yumshoq talaffuz qilinadigan tovush ekanligini bilish kifoya.

Arab tilida "h" tovushi ikkita harf "ه" (*hā-ye havvaz*) va "ح" (*ho-ye hutti*) bilan ifodalanib, talaffuzda farq qiladi. Fors tilida bu farq yo'qolgan va ikkalasi bir xilda talaffuz qilinadi.

Faqat tarixan arab tiliga taalluqli bo'lgan so'zlarda ularning asl shakli yozuvda saqlanib qolgan.

Fors tilida to'g'ri yozish uchun keyinchalik bu so'zlarning arabcha o'zaklarini yod olish ularning boblardagi hosilalarini bexato yozish imkoniyatini beradi.

Fors tilida qattiq "x" va yumshoq "h" tovushlarini o'zaro almashtirish qo'pol xatoga olib keladi, chunki so'zning mazmuni butunlay o'zgarib ketadi.

Forscha o'zakdan yasalgan so'zlarda mutlaq "ه" harfi ishlatiladi.

Arab tilidan kirib kelgan so'zlarning ko'pchiligini "ح" harfi tashkil qiladi.

15-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qituvchi bilan birga talaffuz qiling.

a) *xāb, xub, xande, xabar, doxtar, soxan, sorx, xarāb, xārej, šuxi, talx, deraxt, xun, saxt, naxeyr, xorāk, taxte, xoršid, xāli, xāne;*

b) *xar-har, šāx-šāh, xam-ham, taxt-taht, kāx-kāh, maxsus-mahsus*

c) *xāhar, xāheš, sāhebxāne, mixāham, mixāhi, mixāhad, xunxāh, xālmāhi, haramxāne, harāmخور, halālخور.*

16-mashq. Quyidagi so'zlarni transkripsiya qiling.

دختر، خانه، درخت، تخته، کارخانه، نخیر، خریزه، هندوانه، خروس، خیلی،
خسته، خوب، خراب، اختیار، احتمال، هر، همیشه، هنوز، مهم، همراه، همخانه،

همت، تحسین، احسان، نجات، بهرام، ببودی، سخت، سهل، دل، رحم، زخمی،
ظاهر، سهراب، صحیح، فخر، قهر، ناهار، حاضر، خرم، محترم، احتیاج، خطر.

17-mashq. Quyidagi so'zlarni fors alifbosiga ko'chiring.

Harf, hesāb, houle, heyvān, rāh, xārej, xāle, xāmuš, xodā hāfez, xabar, xormā,

xābgāh, xāhar, xorāk, xošbaxti, xošhāl, xiyābān, dahr, hijdah, hadye, hafdah, hafte, hawāxāh, maxluq, xāheš, mihmān.

Quyidagi so'z va iboralarni yod oling:

yo'q - *نخیر* [*naxeyr*]

qiz - دختر [*doxtar*]

qovun - *خریزه* [*xarboze*]

uy - خانه [*xāne*]

tarvuz - *هندوانه* [*hendovāne*]

daraxt - درخت [*deraxt*]

xo'roz - *خروس* [*xorus*]

korxona - کارخانه [*kārxāne*]

taxta - *تخته* [*taxte*]

charchadingizmi? - خسته شدید?

juda - *خیلی* [*xeyli*]

[*xaste šodid*]

yaxshi - خوب [*xub*]

ha, charchadim - خسته شدم

marhamat, taxtaning oldiga chiqing

[*bale xaste šodam*]

- *befarmāyid* [بفرمائید پای تخته بیايد]

pāye taxte biyāyid

yo'q charchamadim -

taxtani arting - *تخته را پاک کنید* [*taxterā*

[*naxeyr xaste*

pāk konid]

našodam]

juda yaxshi - بسیار خوب، خیلی خوب

[*bebaxšid*] - ببخشید

[*xeyli xub, besyār xub*]

UCHINCHI DARS

ع (ayn) harfini yozish va o'qish qoidalari

ع (ayn) harfi arab tilida sirg'aluvchi o'ngach tovushini ifodalab, fors tilida o'z talaffuz xususiyatlarini saqlab qolmagan. Faqat aholining ba'zi tabaqalari talaffuzida arab tilidagi xususiyatlarini ilg'ab olish mumkin.

ع harfi faqat arab tilidan o'zlashgan so'zlar imlosida saqlangan bo'lib, fors tili va boshqa tillarga mansub so'zlarda uchramaydi.

a) ع (ayn) harfi so'z boshida undoshlardan oldin kelganda qisqa "a", "e", "o" tovushlarini ifodalaydi: mas: علاقه [alāqe] – qiziqish, علم [elm] – ilm, عمر [omr] – umr.

b) So'z o'rtasida ikkita undosh orasida kelganida cho'ziq "a", "e", "o" unlilar shaklida yoki ikkita qisqa unli shaklida talaffuz qilinadi: mas: تعليم [ta'lim] – ta'lim, معلم [moa'llem] – muallim, معمار [me'mār] – me'mor, بعد [bo'd] – masofa. Cho'ziq unlilardan keyin qisqa unli shaklida o'qiladi: masalan: ساعت [sāat] – soat, فاعل [fā'el] – harakatchan.

c) So'z oxirida undoshlardan keyin ع (ayn) harfi ajratish belgisi sifatida undoshdan so'ng yengil tin olish bilan ifodalanadi. mas: رفع [raf] – qaytarish, ربع [rob] – chorak, منع [man] – man qilish.

Cho'ziq unlilardan keyin so'z oxirida ع (ayn) harfi odatda talaffuz qilinmaydi. mas: شروع [soru] – boshlash, سريع [sari] – tez.

So'z boshida alif harfidan oldin kelsa cho'ziq "a" shaklida o'qiladi. و (vov) harfidan oldin diftong "ou" shaklida yoki cho'ziq "u" shaklida o'qiladi. ي (yāy) harfidan oldin kelsa diftong "ey"

shaklida yoki cho'ziq "i" shaklida talaffuz qilinadi. Mas: عاشق [āseq] – oshiq, عون [oun] – ko'mak, عود [ud] – ud daraxti, عيب [eyb] – ayb, عيسى [isā] – Iso.

d) So'z o'rtasida va oxirida ع (ayn va alif), عو (ayn va vov) va عي (ayn va ya) birikmasi kelsa undoshlardan so'ng ajratish belgisi qo'yiladi.

Masalan: مسمود [mas'ud] – baxtli, تبعد [tab'id] – badarg'a, المعى [af'i] – zaharli ilon, انعام [en'ām] – sovg'a.

e) (alif va ayn) shaklida kelsa cho'ziq "e" yoki "a" tovushini ifodalaydi. Mas: اعتبار [e'tebār] – e'tibor, اعطا [a'tā] –

1-mashq. Quyidagi fors va o'zbek tilidagi "ع" (ayn) harfi mavjud so'zlarning talaffuziga e'tibor bering.

alohida - [alāhedde] عليحه

uzr - [o'zr] علر

umr - [omr] عمر

Iroq - [arāq] عراق

umumiy - [omumi] عمومي

aziz - [aziz] عزيز

udda - [ohde] عهده

asr - [asr] عصر

hayit - [eyd] عيد

aloqa - [alāye] علاه

oynak - [eynak] عيناك

alamat - [alāmat] علامت

sho'ba – [ʃo'be] شعبه
 ilm - ['elm] علم
 she'r - [ʃe'r] شعر
 odat - [ā'dat] عادت
 fe'l - [fe'l] فعل
 odil - [ā'del] عادل
 sayi harakat - [sa'y] سعی
 ud - [ʊd] עוד
 da'vat - [da'vat] دعوت
 avrat - [ourat] عورت
 in'om - [en'am] انعام
 taajjub - [ta'ajjub] تعجب
 mas'ud – [mas'ud] مسعود
 ta'rif - [ta'rif] تعريف
 e'tiqod - [e'teyād] اعتقاد
 ta'til – [ta'til] تعطيل
 e'timod - [e'temād] اعتماد
 jam - [jam'] جمع
 a'lo hazrat - [a'lā hazrat] اعلیٰ حضرت
 man - [man'] منع
 a'mol - [a'māl] اعمال
 tab - [tab] طبع

2-mashq. Quyidagi so'zlarni arab alifbosiga ko'chiring.
 'oyāb, na'lbeke, 'asr, ra'd, sā'at, šoru', ma'ni, ta'rif, ta'ne,
 tam'e, 'omr, ā'jel, 'esmat, e'terāf, e'teyād, i'sā, ā'ref, ā'lem, ma'ruf,
 ma'āl, ma'mul, a'lā, tolu'.

Quyidagi so'zlarni yod oling:

likopcha - [na'lbeke] نعلبكي
 burgut - ['oyāb] عقاب
 lavlagi - [čoyondar] چغندر
 zog',qarg'a - [zāy] زاغ
 sharq - [šary] شرق
 limon - [limu] ليمو
 g'arb - [yarb] غرب
 1) tovuq; 2) qush - [mory] مرغ
 g'oz - [yāz] غاز
 1) qog'oz; 2) xat - [kāyaz] کاغذ
 1) asr(kechki payt); 2) davr, asr - ['asr] عصر
 yashin - [ra'd] رعد
 soat - [sā'at] ساعة
 boshlanish - [šoru] شروع
 apelsin - [portoyāl] پرتقال
 mandarin - [nārangī] نارنگي

این عبارات را یاد بگیرید

اول بنویسید بعد بخوانید [avval benevisid ba'd bexānid] - Avval yozing, keyin o'qing.

شما درست تلفظ می کنید [šomā dorost talaffuz mikonid] - Siz to'g'ri talaffuz qilyapsiz.

مانع نشوید [māne'našavid] - Xalaqit bermang.

بنویس، بنویس، آخر می شوی خوشنویس [Benevis, benevis, āxer mišavi xošnevis] - Ko'p mashq qilgan xushxat bo'lur.

TO'RTINCHI DARS

Ba'zi birga kelgan harf birikmalarining o'qilish qoidalarini

1. Fors tilida ū harfidan keyin ب harfi kelsa, bunday birikma "mī" shaklida o'qiladi. Mas: [šambe] شنبه yozilishi "šanbe", [gombad] گنبد yozilishda "gonbad" va sh.o'.

2. birikmasi ba'zi so'zlarda "xā" shaklida talaffuz qilinadi. Mas: [Xārazm] خوارزم va sh.o'. Lekin har doim shunday talaffuz qilinmaydi. Mas: [xavās] خواص o'qiladi, [xās] o'qilmaydi.

3. birikmasi ba'zi bir forscha so'zlarda "x" shaklida o'qiladi, ya'ni "v" harfi tushirib qoldiriladi. Mas: [xiš] خویش - o'z shaklida, [xiš] خویشi - qarindoshlik shaklida talaffuz qilinadi. Lekin har doim emas. Mas: [xuy] خوي - fe'l-atvorda "v", "u" shaklida o'qiladi.

4. Ba'zi fors so'zlarida o'rtada kelgan "v" cho'ziq "u" shaklida emas, qisqa "o" shaklida talaffuz qilinadi. Mas: [xod] خود - o'zi; agar [xud] talaffuz qilinsa uning ma'nosi o'zgarib, "dubulg'a" ma'nosini ifodalaydi. [xorāk] خوراک - ovqat, yemish va sh. o'.

5. Ikki cho'ziq unli ketma-ket kelganda ularning orasida "y" tovushi paydo bo'ladi. Mas: [guyā] گویا - gapiruvchi, [pāye] پایه - poya, [biyā] بیا - kel va sh. o'x. holatlarda.

1-mashq. Quyidagi so'zlarni transkripsiyada bering.

(ا) تېل، گنبد، پنبه، يکشنبه، تېك، سنبه.

(ب) خواهش، خواروبار، خواندن، خواب، خواهر.

ج) خویش، خویشا وندي، خویشن، خویشیگری.

د) مایه، بیابان، خیابان، سیاه، پایان، میان.

ه) طبقه، نخته، شنبه، کتابخانه، نامه، کارخانه، کوزه، پنجره گریه، میوه،

جمعه، تشنه، گذشته، منبع، شکنجه.

2-mashq. Quyida berilgan so'zlarni arab-fors imlosiga ko'chiring.

Panjare, mive, kuze, ketabxāne, nāme, taxte, šambe, gorosne, to, pālto, rādio, kārxane, gorbe, muze.

Yod oling:

intilish سعي [say']	xat - نامه [nāme]
bino - عمارت [emārat]	taroq - شاه [šāne]
yelka - شانه [šāne]	shoir - شاعر [šāer]
bodring - خیار [xiyār]	ko'cha - خیابان [xiyābān]
piyoz - پياز [piyāz]	she'r - شعر [še'r]
kutubxona - کتابخانه [ketābxāne]	tor ko'cha - کوچه [kuče]
bunday - اینطور [intour]	bilim - دانش [dāneš]
opa-singil - خواهر [xāhar];	suhbat - صحبت [sohbat]

Eslab qoling:

Shovqin qilmang - سروصدا نکنید [sar-o sedā nakonid]

کوشش کنید مانند استاد بنویسید - O'qituvchiday yozishga harakat qiling [kušeš konid mānand-e ostād benevisid].

BESHINCHI DARS

Fors – arab yozuvida ishlatiladigan ba'zi harakatlar

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, fors-arab yozuvida qisqa unlilar harakatlar bilan ifodalanadi. Harakatlar—bu harflarning ustiga yoki tagiga qo'yiladigan belgilar bo'lib, muayyan bir vazifani bajaradi.

a) Satr ustiga qo'yiladigan “ ” belgisi “tashdid” deb nomlanadi va ikkilik harflarni ifodalaydi. Mas: مدت [moddat]- muddat; در [dorr]-dur; حد [hadd]-chegara va sh.o'.

b) Fors tilida qo'llaniladigan ba'zi arab o'zlashmalarida “ ” belgisi oxirgi alifdan so'ng qo'yilib, “tanvin” deb ataladi va [an] deb o'qiladi. Mas: رسماً [rasman]- rasman, شخصاً [šaxsan]-shaxsan.

Bunday so'zlar o'zbek tilida ham uchraydi.

c) Asosan so'z boshida va ba'zan so'z o'rtasida qo'llaniladigan “ ” belgisi “madda” deb ataladi va cho'ziq “ā” tovushini ifodalaydi. Mas: جلال [teātr]-teatr, آبل [āb]-suv, آمدن [āmadan]-kelmoq, تأثر [teātr]-teatr, مآب [jalālatmaāb]- janobi oliy;

d) “hamze” deb ataluvchi “ء” belgisi arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda uchraydi va, asosan, unli harflarning cho'ziq talaffuzi yoki ayirish belgisi vazifasini bajaradi. Mas: تاريخ [tā'rix]- tarix, تأخير [ta'hir]-kechikish, رئيس [ra'is]-rais, مسئول [mas'ul]-mas'ul va h.k. So'z boshida va so'z oxirida kelgan “hamza” belgisi ko'pincha tushirib qoldiriladi. Mas: امر [amr] - buyruq yoki جزء [joz] - bo'lak so'zlarida. “Hamza” harakati ba'zan forscha so'zlarda qo'llanilib, hozirgi fors imlosida ularni “ى” harfi bilan almashtirish tavsiya qilinadi. Mas: پايین [pāyin]-qu'yi va گويي [guyi]- go'yo shaklida qo'llash to'g'ri bo'ladi.

1-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va transkripsiya shaklida ko'chiring.

ا- بچه، خط، اول، سر، حمام، نقاش، بنا، حس، حق، شدت.

ب- کاملاً، ظاهراً، حتماً، مخصوصاً، غالباً.

ج- مامول، رؤسا، مسئول، مسئولیت، مامون، جزئی.

2-mashq. Arab-fors yozuviga ko'chiring.

Avval, dovnom, sevvom, nayyāš, bannā, pāiz, āine, miāyi, miguyi, bayyāl, horriyat, makkār, jabbār, nazzāre.

Yod oling:

qayerda? - [kojā] کجا	kecha - [diruz] دیروز
oyna - [āyine] آینه	qish - [zemestān] زمستان
butunlay - [kāmelan] کاملاً	o'tgan kuni - [pariruz] پرویز
muzey - [muze] موزه	rassom - [naryyāš] نقاش
choy - [čāyi] چای	bu yerda - [injā] اینجا
uyqu - [xāb] خواب	harbiy - [nezāmi] نظامی
kuz - [pāyiz] پاییز	u yerda - [ānjā] آنجا
bugun - [emruz] امروز	maydon - [meydān] میدان
yoziq - [tābestān] تابستان	xat - [nāme] نامه

IKKINCHI QISM

BIRINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Ot kesimli sodda yig'iq gaplar

Kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumida ifodalangan gaplar ot kesimli sodda yig'iq gaplar deyiladi. Ot kesimli gaplarni hosil qilishda avval ega, so'ng ot kesim yoziladi.

Ot kesimdan so'ng bog'lama *ast* [ast] keladi. Demak, ot kesim ikki qismdan iborat bo'ladi, ot qism+ bog'lama *ast* [ast]. Masalan: *Ahmad šāgerd ast* [Ahmad šāgerd ast]. Mazkur jumlada *Ahmad* - ega, *šāgerd ast* - ot kesim. Ot kesim *shāgerd* va *ast* bog'lamasining birikmasidan tashkil topgan.

Kesim bog'lamasi *o'zidan oldingi so'zga qo'shib o'qiladi*, ya'ni ot kesimning ot qismi bilan bog'lama orasiga pauza qo'yilmaydi. Ot kesimli gaplarning o'qilishida egadan so'ng pauza qo'yiladi va gapning asosiy urg'usi ot kesimning oxirgi bo'g'iniga tushadi. *Ahmad šāgerdast* [Ahmad šāgerdast] - Ahmad tolibdir kabi.

Ot kesimli sodda gaplarning bo'lishsiz shakli (inkor formasi)ni yasash uchun *na* [na] inkor yuklamasini kesim bog'lamasiga qo'shish orqali hosil qilingan *nist* [nist] shaklidan foydalaniladi. *Na+ ast* → *nist*. Demak, *Ahmad tolib emas* jumlasini quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *Ahmad šāgerd nist* [Ahmad šāgerd nist].

Mazkur jumlaning talaffuz tarzi uning bo'lishli shaklidan farq qiladi. Ya'ni bog'lamaning inkor formasi ot kesimga qo'shib o'qilmasligi mumkin.

Masalan: *Akram danešju nist* [Akram danešju nist] - Akram talaba emas. *Leylā kārgar nist* [Leylā kārgar nist] - Laylo ishchi emas.

Ko'rsatish olmoshlari

Fors tilida ikkita ko'rsatish olmoshi mavjud:

[in]-bu. Yaqindagi predmet yoki shaxsni ko'rsatish uchun ishlatiladi. *[ān]-u*, uzoqdagi predmet yoki shaxsni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu olmoshlar ot kesimli gaplarda ega vazifasida kelishlari mumkin : *[ān]* آن دفتر است *[in ketāb ast]*-bu kitobdir. این کتاب است : mumkin *[daftar ast]* – u daftardir.

Yuqoridagi gapda آن- ega, دفتر است ot-kesim vazifasida kelgan.

آن va این olmoshlari ayrim otlarga nisbatan aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Bunda olmosh (این آن) o'zi aniqlab kelayotgan ot oldidan keladi va o'sha ot bilan qo'shib o'qiladi hamda bitishuvli birikma hosil qiladi. *[ān bache]*-u bola.

آن مرد *[in xāne]*-bu uy, این خاله *[in doxtar]*-bu qiz, این دختر *[mard]*-u kishi.

Eslatma: bog'lamasi o'zbek tilidagi "dir" qo'shimchasiga to'g'ri keladi. O'zbek tilida sodda gaplarda – "dir" qo'shimchasi tushib qolishi mumkin, lekin fors tilida bog'lama tushib qolmaydi.

1-mashq. O'qing va tarjima qiling.

آن چراغ است. چراغ روشن است. شب دراز و تاریک است. روز روشن است. این درخت سبز است. آن درخت سبز نیست. آن سنگ سرخ است. سعادت کارگر است. گرگ بزرگ است. آن گرگ کوچک نیست. آن گل زرد است. این گل زرد نیست سرخ است. سعادت کارگر نیست. پزشک

است. آن زن پزشک نیست معلم است. دیوار سفید است و در هم سفید است. این کتاب بد نیست خوب است.

2-mashq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling:

Bu xonadir. Bu xona yorug' va katta. Bu kitob yomon emas, yaxshidir. Nasrin o'g'il bola emas, qiz boladir. Bu daraxt yashildir. U tosh qizildir. Saodat ishchi emas, shifokordir. Bu gul sariq emas, qizildir. Devor oqdir va eshik ham oqdir. Bu kishi ishchidir. Bu ishchi yaxshidir. Bu bino katta va balanddir. U bino baland emas. U bo'ri kichkina emas, kattadir.

Ikkinchi mashg'ulot

So'roq gaplarning yasalishi

Fors tilida ot kesimli sodda gaplarga savol tuzish uchun turli usullardan foydalaniladi.

1. Intonatsiya orqali;
2. *چه* va *که* so'roq olmoshlari orqali;
3. So'roq yuklamalari orqali;
4. So'roq olmoshlari va so'roq so'zlari orqali.

که [ke] va *چه [che]* so'roq olmoshlari

Fors tilida *که [ke]* kim? *چه [che]* nima? deyiladi. *که-so'roq* olmoshi inson uchun, *چه* so'roq olmoshi jonli, jonsiz predmetlar uchun ishlatiladi. Bu so'roq olmoshlari *ast* bog'lamasiga qo'shilib, quyidagi shakl hosil qiladi.

Ki+ast=kist? - kim? [dir] کیست = کی + است

Ce+ast=cist? - nima? [dir] چیست = چه + است

3-mashq. O'qing va tarjima qiling.

این سیب سرخ است؟ آن کیست؟ آن مهندس است. این دانشیار است.
سیب سرخ انگور سبز است. این کتاب است. آن دفتر است. نان گرم است.
این غذا خوشمزه است. آن غذا خوشمزه نیست. آن مرد جوان نیست پیر است.
دیوار سفید نیست، آبی است. کتاب بد نیست کتاب خوب است.

این کیست؟ این نانوايي است. این زن کیست؟ آن زن کیست؟ آن مرد
کیست؟ این کیست؟ این کارگر است. آن زن بافنده است. این چیست؟ این
کتاب است. آن چیست؟ آن اسب است و این سگ است. سگ بزرگ
نیست. اسب بزرگ است؟ آن چیست؟ آن میز است. این چیست؟ این در
است و آن دیوار است.

4-mashq. Quyida berilgan savollardagi nuqtalar o'rmini tegishli
so'roq so'zlari bilan to'ldiring.

3. *at* - ات. Yuqoridagi ko'plik qo'shimchalariga nisbatan ancha sermahsul bo'lib arab so'zlaridan ko'plik yasaydi: تعليم [ta'lim] - ta'lim, تعليمات [ta'limāt] - ta'limlar, اطلاع [ettelā] - xabar, اطلاعات [ettelā'āt] - xabarlar.

Ayrim forsiy so'zlarning ko'plik shakli shu qo'shimcha yordamida yasaladi.

باغ [bāy]- bog' [bāyāf]- bog'lar

ده [deh]- qishloq [dehāf]- qishloqlar

Arab tilida ات "at" ko'plik qo'shimchasi yordamida muannasga oid oxiri e-e yoki ت "at" bilan tugovchi so'zlardan ko'plik yasalayotganda so'z oxiridagi e-e yoki ت "at" tushib qoladi.

مجله [majalle]- jurnal, مجلات [majallāt]- jurnallar

اداره [edāre]- idora, ادارات [edārāt]- idoralar

حکایات [hekāyāt]- hikoya, حکایت [hekāyāt]- hikoyalar

4. ات "at"- Bu suffiks fors tilida hosil bo'lgan bir fonetik ko'rinishidir. Bu qo'shimcha yordamida e-e tovushi bilan tugovchi forsiy so'zlardan ko'plik forma yasaladi:

کارخانه [kārxāne]- korxona, کارخانجات [kārxānejāt]- korxonalar

میوه [mive]- meva, میوهجات [mivejāt]- mevalar

Arab ko'plik qo'shimchalari yordamida yasalgan otlarning ko'plik formasi lug'atlarda uning birlik shakli bilan bir qatorda beriladi va ular yodlash yo'li bilan o'zlashtiriladi.

Eslatma: Arab ko'plik qo'shimchalari ات "(y)ud", ون "in"- ين "at"- جات "at"- lar yordamida yasalgan otlardan fors ko'plik qo'shimchalari ها "ha"- ان "an"- orqali ham ko'plik yasash mumkin:

حکایات [hekāyāt] = حکایات [hekāyāt] = حکایات [hekāyāt]

میوه [mivehā] = میوه [mivejāt] = میوهجات [mive]

[ruhānihā] روحانی ها = [ruhāniyun] روحانیون = [ruhāni] روحانی

7-mashq. O'qing va tarjima qiling.

استاد پیشنهادات خود را پیش دانشجویان گفت و آنها راضی شدند. دهقانان در دهات زندگی می کنند. این مجلات جالب را برای دختر کوچکم خریدم. حاضرین داستان های این نویسنده را خوانند. از حیوانات اهلی کدام حیوانات را می شناسید؟ این کلمات مشکل را دو باره خواندم، ولی نفهمیدم. معلمین این دبیرستان، گاهی به دانشکده های ما می آیند. استاد به دانشجویان توضیح داد، ولی توضیحات او نا فهمیدنی بود. این مردان کجا زندگی می کنند؟ این مردان در دهات زندگی می کنند. آیا تو داستان های این نویسنده را خواندی؟ بلی من هم داستان های این نویسنده را خواندم. بفرماید جملات خود را تکرار کنید!

8-mashq. Quyidagi otlardan ko'plik shakl yasang.

توضیح - ساعت - مجله - پیشنهاد - کارخانه - مقاله - حکایت - منتقد - متخصص - شاعر - اعتصابی - درجه.

9-mashq. Quyida berilgan otlarni ko'plik shaklga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

(روحانی) این کشور به آمریکا سفر کردند. از (حیوان) وحشی کدام (حیوان) را می شناسید؟ پدرم در (کارخانه) تاشکند کار می کرد. (مقاله) این کارمند علمی خیلی جالب بود. (منتقد) (داستان) این نویسنده ی جوان را مورد انتقاد قرار دادند. (اعتصابی) این جبهه، خیلی خشمگین بودند. (حاضر) برای او کف زدند. (استاد) برای کار آموزی به شهر دیگر رفتند.

10-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Ish tashlovchilar shu shahar zavodlarining ishchilaridir. Men o'z maktab o'qituvchilarimni sevardim. Ishchilar shaharlarda ishlaydilar, dehqonlar qishloqlarda. Studentlar bu qiyin jumalarni bir necha bor takrorladilar, so'ng yozdilar. Bu maqolalami, albatta, o'qing. Sizning hikoyalaringiz juda qiziqarli. Tovuq - uy parrandalaridan, mushuk esa uy hayvonlaridan biridir. Yig'ilganlar o'zaro suhbatlashdilar, shaxmat o'ynadilar, so'ng uylariga ketdilar. O'zbekiston mutaxassislari ham bu sohada orqada qolmaydilar.

Beshinchi mashg'ulot

در کلاس

درس زبان انگلیسی تمام شد و آن روز دانشجویان حروف صدادار و بی صدای انگلیسی را یاد گرفتند و باهم صحبت می کردند. در این هنگام زنگ زدند و دانشجویان به کلاس رفتند. درس زبان فارسی بود. یکی از دانشجویان از استاد زبان فارسی پرسید: موضوع درس امروز چیست؟ استاد گفت: من به شما گفته بودم که پیرامون شناختن کلمات عربی در زبان فارسی سخن می گویم. اول بفرمائید نکته را پاک کنید. من نکته سیاه را پاک کردم. بعد استاد توضیحات خود را شروع کرد.

شما خوب به یاد داشته باشید که کلمات دارای حروف "ث"، "ح"، "ص"، "ض"، "ط"، "ظ"، "ع"، "غ" معمولاً کلمات غیر فارسی هستند. علاوه بر این به خاطر بسپارید که حرکات کلمه های عربی در تصریفات دگرگونی می پذیرند. در کلمه ی «کتاب» که حرکت زیر (ـِ) دارد، همان حرف در کلمه ی «کُتبه» حرکت زیر (ـِ) دارد و در کلمه ی «کُتِب» که شکل جمع «کتاب» است، حرکت پیش (ـُ) به خود می گیرد. استاد تمام این کلمات را روی نکته نوشت و ما هم در دفترمان نوشتیم. وی چند جمله ی دیگر هم گفت

و ما آن را هم نوشتیم. استاد گفت: این جمله های عربی و فارسی را خوب یاد بگیرید. در این وقت، زنگ تفریح را زدند. هنگام تفریح من با دوستم در باره ی گردش فردا صحبت کردم. دوستم مرا دعوت کرد: با فردا با هم به گردش برویم. من پرسیدم: کجا برویم؟ دوستم جواب داد: برای گردش به پارک برویم. من دعوت او را پذیرفتم.

Leksik izoh

1. گردش [gardes] – sayr so'zi turli fe'llar bilan kelib murakkab fe'l hosil qiladi.

a) گردش کردن [gardes kardan] – sayr qilmoq (kim bilan?, qayerda?, qachon?) savollariga javob bera oladi.

[man bā dustam gardes kardam]- Men do'stim bilan sayr qildim.

[man dar pārk gardes kardam]- Men parkda sayr qildim.

[man diruz gardes kardam] – Men kecha sayr qildim.

b) گردش رفتن [be gardes raftan] yoki گردش رفتن [gardes raftan]- sayr qilishga bormoq. Umuman, sayr qilishga borganlik haqida ma'lumot berilganda ishlatiladi, ya'ni qayerga borganligini aytish zarur bo'lmagan hollarda ishlatiladi.

[diruz mā be gardes raftim]- Biz kecha sayr qilishga (aylanishga) bordik.

c) برای گردش رفتن [barāye gardes raftan]- sayr qilish uchun biror yerga bormoq. Bu fe'l birikmasi ishlatilganda jumlada, albatta, o'rin holi ishtirok etadi.

من پرسیدم: این مجلات را هم (خواندن). صبح زود (بلند شدن) و چند دقیقه ورزش کردن).

11-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring; fe'llarni tegishli zamonga qo'yning.

استاد... را... تخته... و گفت... تخته پاک کن... و تخته سیاه را....
(پای، خواستن، شاگرد... بفروماید، را، پر داشتن، پاک کردن).
مادرم... جای... یا قهوه؟ (رفتن، فرمودن).
... دانشجو... تخته با... می نویسد، دانشجوین... در دفتر... قلم....
(دیگر، با، یک، روی، گج، با، نوشتن).
... شما... او.....؟ (دعوت، چرا، را... پذیرفتن).
... است، حرف... درست.... (شما، بودن، ممکن).
... این یک خورده... را... باش، هفته آینده... شش..... تو... - دهم.
(می - را، فعلاً پول، دانستن بقیه - به).
پدر و مادرم قهقهه میزدند که... کهنه... را..... (مبلان - خود را فروختن).

12-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni kerakli zamonga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

من خیلی نامه (نوشتن) ولی حالا به برادرم نامه (نوشتن). در خانه، همیشه فارسی (حرف زدن) و گرنه از (یاد رفتن). الان مشغول کار (هستن)، لطفاً بعداً تلفن (کردن). دوستم مرا به خانه‌ی خود (دعوت کردن) و من دعوت او را (پذیرفتن). استاد گفت: بگذار دانشجوی دیگر این اشتباه را (اصلاح کردن). سال گذشته ما هر هفته برای گردش به پارک «پار» (رفتن). احمد پرسید: الان ناهید پای تخته (رفتن)؟ مادرم (پیشنهاد کردن) بعد از ظهر باهم (گردش رفتن).

13-mashq. Tagiga chizilgan so'zlarga savol bering.

استاد دیروز مرا پای تخته نخواست. دوستم فردا با مادرش به خانه‌ی ما می‌آید. برادرم دفتر خود را به من نداد. در کلاس ما قرخ خوب فارسی حرف می‌زند. ما میهن خود ازبکستان را دوست داریم. آیا شما هم فردا به بازار می‌روید؟ در کلاس شما ۹ نفر دانشجو است. من هر روز ساعت ۷ از خواب بیدار می‌شوم.

14-mashq Fors tiliga tarjima qiling.

Ingliz tili darsi tugadi va o'sha kuni studentlar dars haqida o'zaro suhbatlashdilar. Shu payt qo'ng'iroq chalindi va studentlar sinfga kirdilar. Fors tili darsida o'qituvchi so'radi: "Darsda kim yo'q?" Navbatchi javob berdi: "Hamma shu yerda". So'ng o'qituvchi darsni boshladi. Keyin Ahmad taxtani artdi. O'qituvchi bir forscha jumlani taxtaga yozishimni mendan so'radi. Men jumlani taxtaga yozdim, lekin 1 ta xato qildim. Studentlar so'radilar: "Biz ham yozaylikmi?" O'qituvchi javob berdi: "Avval xatoni tuzating va so'ng yozing". Men so'radim: "Bu jumlani qayta yozaymi?" U javob berdi: "Ha, qayta yozing". Biz bir nechta jummalarni taxtaga yozdik. Dars tugadi. Darsdan so'ng do'stim bilan sayr qilish uchun "Disney Lend" parkiga bordik. U yerda soat 4 gacha aylandik, so'ng uyga qaytdik.

Modal fe'l va aorist juftligidagi bo'lishsiz ma'no *-na* inkor yuklamasini modal fe'lga qo'shish orqali yasaladi.

من نمی خواهم بنویسم

من نمی توانم بنویسم

من نباید بنویسم

To'ldiruvchi ergash gap

Umuman, to'ldiruvchi sodda gap tarkibida ishtirok etsa, kesimni to'ldiradi, ya'ni o'sha ish-harakatning nimaga yo'naltirilganligini, nima vositasida bajarilganligini yoki bajarilishini bildiradi.

Xuddi shuningdek, to'ldiruvchi ergash gap ham bosh gapdagi kesimni shunday usulda to'ldiradi.

To'ldiruvchi ergash gap umumiy kimni? nimani? kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. Fors tilida oldin bosh gap keyin to'ldiruvchi ergash gap keladi va ular faqat *-ke bog'lovchisi* orqali bog'lanadi.

من می دانم که شما به زبان فارسی خوب حرف می زنید.

شما به زبان فارسی خوب حرف *[man midānam]*- bosh gap, من می دانم.

[šomā be zabāne fārsi xub harf mizaniā]- to'ldiruvchi ergash gap.

Tarjimasi:

1. Men bilamanki, siz fors tilida yaxshi gaplashasiz.
2. Men sizning fors tilida yaxshi gaplashishingizni bilaman.

Agar bosh gapning kesimi modal fe'llarning biri bilan ifodalangan bo'lsa, to'ldiruvchi ergash gapning kesimi aoristda turadi.

[to mixāhi ke mādarat piš-e ostād-e to beravad]- Sen onang o'qituvching oldiga borishlarini xohlaysan.

[man az u xāheš kardam ke sāat-e haft-e šab beyāyad]-Undan soat yettida kelishini so'radim.

To'ldiruvchi ergash gap talaffuz qilinayotganda bosh gapdan pauza – to'xtalish orqali ajratiladi. Bosh gap balandroq ohangda o'qiladi.

1-mashq. O'qing, tarjima qiling.

دلم می خواهد بنویسم و چند دقیقه استراحت بکنم. تا به تان آینده می خواهیم به اروپا سفر کنیم. در کتابخانه نمی توانید با سرو صدا بخوانید. امروز ممکن است برف بیاید و هوا طوفانی شود. در اتوبوس های شهری نمی توانید سیگار بکشید. فردا اگر وقت دارید به خانه ی ما بیایید و به ما کمک کنید. دلم می خواهد امشب در رستوران شام بخورم، ولی پول کافی ندارم. مجبور بودم چند ساعت بیشتر در کتابخانه بمانم و کار بکنم. اجازه می دهید ما فردا شب از این اتاق استفاده کنیم. در این کشور، مردم مجبور هستند مالیات بدهند. در نظر داریم که سال آینده این خانه را بفروشیم و به شهر دیگر برویم. بدینخانه امشب نمی توانیم یکدیگرا ببینیم. لازم نیست که شام منتظر ما باشد (بمانند).

2-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli zamonga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

ما میخواهیم (رفتن) حقوق این مامان را (گرفتن). دوستان ما نمی توانند سوار اتوبوس (شدن) و مجبورند تاکسی (گرفتن). لطفاً به من یاد بدهید چگونه می توانم از این ماشین (استفاده کردن). این کتاب را به شما می دهم که شما هم داستان های این نویسنده را (خواندن). بعد از درس، دانشجویان به کتابخانه رفتند برای آنکه کتاب لغت (گرفتن). دوستم به خانه ی ما آمد تا پدر و مادرم

را (دیدن). از شهر تاشکند می‌توانید به همه جای دنیا (تلفن کردن). برادرم می‌خواهد امشب با نامزد خود در میهمانی (رقصیدن).

3-mashq. Berilgan gaplarning tartibini o'zgartiring. (Modal fe'lga nisbatan to'ldiruvchi, holning o'rmini almashtiring)

پدرم می‌خواهد امروز به دوست خود تلفن کند. ما می‌خواهیم روز جشن به میدان استقلال برویم. شما میل ندارید قوم و خویشان را دعوت بکنید؟ او نمی‌خواهد این کتاب را بخواند. میل داری امشب به تئاتر بروی؟ خواهش می‌کنم این کتاب لغت را به استاد ندهید. شما با قلم می‌خواهید بنویسید و یا با مداد؟ هر روز او مدرسه نمی‌رود. دوستم می‌تواند برای من آن کتاب جالب را پیدا کند.

4-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Bu kitobni sizga bera olmayman, chunki o'zim avval o'qimoqchiman. Siz ertaga biznikiga kela olasizmi? U har kuni ro'znoma o'qishni xohlaydi. Biz O'zbekiston tarixini o'rganishni xohlaymiz. U kelgusi yil yozda Eronning poytaxti Tehronga safar qilmoqchi.

Bu yil Yevropaga safar qilmang, xarajati juda qimmat. Hodining onasi o'z nevaralariga tufli sovg'a qilmoqchi. Men bu ishni o'z vaqtida qila olmayman. Uning ertaga biznikiga kelishga imkoni yo'q. Men mehmondorchilikka qora libosda bormoqchiman.

Ikkinchi mashg'ulot

Maqsad ergash gap

Maqsad ergash gap bosh gapdagi kesim ifodalayotgan ish-harakatning maqsadini, nima uchun bajarilayotganini izohlab beradi.

Maqsad ergash gap bosh gapga [ke], [ta], [da], [barāye] برای اینکه، [barāye ānke] bog'lovchilari bilan bog'lanadi.

Bosh gapning kesimi har xil zamon shakllarida bo'lishi mumkin. Maqsad ergash gapning kesimi doimo aorist shaklida turadi.

Fors tilida, asosan, avval bosh gap, keyin bog'lovchi, so'ngra maqsad ergash gap joylashadi.

[man be barādaram telefon kardam ke zudtar beyāyad] - Men akamga tezroq kelsin deb qong'iroq qildim.

من به برادرم تلفن کردم تا زودتر بیاید.

من به برادرم تلفن کردم برای اینکه زودتر بیاید.

من به برادرم تلفن کردم برای آنکه زودتر بیاید.

Bog'lovchilardan [barāye inke] برای اینکه، [barāye ānke] برای آنکه ba'zan gapning boshida kelishi mumkin. Bunda u o'zi bilan birga maqsad ergash gapni oldinga olib chiqadi.

برای اینکه (برای آنکه) زودتر بیاید، من به برادرم تلفن کردم.

Bog'lovchilar bir-birining o'miga ishlatilishi mumkin.

Bosh gap bilan maqsad ergash gapning egasi bir shaxsda ifodalangan bo'lsa (ya'ni ikki gapning sub'yekti o'zaro mos bo'lsa), bog'lovchi ishlatilmasligi ham mumkin. Bunday hollarda maqsad ergash gap bosh gapdan keyin keladi. Masalan:

Men yangi kitob o'qish uchun kutubxonaga bordim.

من به کتابخانه رفتم که کتاب تازه بخوانم

من به کتابخانه رفتم تا کتاب تازه بخوانم

من به کتابخانه رفتم کتاب تازه بخوانم

5-mashq. Nuqtalar o'rniga maqsad ergash gapning bog'lovchilaridan birini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

مکلاس‌مان ما در حیاط دانشگاه جمع شدند... پیش حسن بروند. اما زیاد

درس می‌خوانند... زبان عربی را بهتر بدانند.... بچه ام در هوای آزاد بخوابد،

من پنجره‌ی اتاق را باز کردم. من این سیفی را به شما می‌دهم... از آن استفاده کنید. استاد کتاب لغت خود را به ما داد... این جملات فارسی را به ازبکی ترجمه کنیم.... سرما بخورید، چای با لیمو بخورید.

6-mashq. Savollarga bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda javob bering.

آیا شما میل دارید با من به کشور ایران سفر کنید؟

مگر تو نمی‌خواهی پسر و سالم و قوی باشی؟

او می‌تواند این خانه را برای یک شب به ما بدهد؟

آیا شما میل ندارید که استادان از شما راضی باشند؟

آنها می‌توانند این کار را امروز انجام بدهند؟

تو آمده‌ای که خواهرم را ببینی؟

مگر ما میل نداریم در خیابان‌های شهر قشنگ مان گردش کنیم؟

آیا شما می‌توانید بگویید کدام زبان شیرین‌تر است؟ فارسی یا عربی؟

دخترت می‌خواهد کجا درس بخواند؟

چرا تو نمی‌خواهی در این خانه زندگی کنی؟

7-mashq. Maqsad va to'ldiruvchi ergash gaplar bo'yicha bir nechta misollar tuzing va ularni solishtiring.

8-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Men bu kitobni sizga bermoqchiman. Sen ertaga bizning uyga kela olasan. U har kuni gazeta o'qishni xohlaydi. Biz bugun darsdan so'ng shaxmat o'ynamoqchimiz. Siz bu jumlaning qaytadan yozmoqchisiz. Ular Eron tarixini o'rganmoqchilar.

Men bu kitobni sizga bera olaman. Sen ertaga bizning uyga kelmoqchisan. U har kuni yangi gazetalarni o'qiy oladi. Biz bugun darsdan so'ng shaxmat o'ynay olamiz. Siz bu qiyin jumlaning qayta yoza olasizmi? Ular Eron tarixini o'rgana oladilar.

Sen bu kitobni o'qib tarjima qilishimni xohlaysan. U ertaga biznikiga kelishni xohlaydi. Ertangi darslarni bugun qilishimni xohlaydi. Ular darsning tezroq tamom bo'lishini istaydilar. U birga ketishimni istamayapti.

Bu yerga sizni ko'rish uchun keldim. Studentlar bir oz dam olish uchun yo'lakka chiqdilar. Shamollab qolmaslik uchun ko'proq limonli choy iching. Mustaqillik maydonida sayr qilish uchun shahar markaziga bordim. U ingliz tilini yaxshiroq o'rganay deb, ko'proq dars qiladi.

Uchinchi mashg'ulot

Son (عدد)

O'ndan yigirmagacha bo'lgan sonlar

یازده [yāzdah]- ۱۱- o'n bir

دوازده [davāzdah]- ۱۲- o'n ikki

سیزده [sizdah]- ۱۳- o'n uch

چهارده [chahārdah, čārdah]- ۱۴- o'n to'rt

پانزده [pānzdah]- ۱۵- o'n besh

شانزده [shānzdah]- ۱۶- o'n olti

هفده [hef dah]- ۱۷- o'n yetti

هجده [hejdah, hijdah]- ۱۸- o'n sakkiz

نوزده [nuzdah]- ۱۹- o'n to'qqiz

بیست [bist]- ۲۰- yigirma

Ko'p xonali sonlar chap tomondan o'ngga qarab yoziladi.

دوره‌ی آموزش

من هفده سال دارم و امسال وارد دانشکده‌ی دولتی خاورشناسی شدم و در شعبه‌ی زبان و ادبیات فارسی درس می‌خوانم. با علاقه‌ی زیاد، زبان فارسی، تاریخ و ادبیات ایران را می‌آموزم. در آینده، استاد زبان فارسی می‌شوم. ما در خانواده، پنج نفر فرزند هستیم. من دو برادر و دو خواهر دارم. برادر بزرگم، نوزده سال دارد، یعنی دو سال از من بزرگتر است. او هم دانشجویست و در دانشگاه دولتی تاشکند در دانشکده‌ی فیزیک درس می‌خواند. خواهر بزرگم، بیست سال دارد. او در دانشگاه زبانه‌ی خارجی تدریس می‌کند. خواهر بزرگم از برادر بزرگم یک سال بزرگتر است. او زبان انگلیسی را یاد می‌گیرد. پس ما در خانواده سه نفر دانشجو هستیم. من باز هم یک خواهر کوچک و یک برادر کوچک دارم. یکی پانزده سال و دیگری دوازده سال دارد. آنها دانش آموزان دبیرستان هستند. برادر کوچکم دو سال از من کوچکتر است و خواهر کوچکم، هشت سال از خواهر بزرگم کوچکتر است. دبیرستان آنها چندان دور نیست و از محل ما تا دبیرستان هجده دقیقه راه است. مثلاً است که ما در شهر تاشکند زندگی می‌کنیم.

Leksik izoh

1. Fors tilida yoshni ifodalash uchun داشتن [dāstan]- "ega bo'lmog, bor bo'lmog" fe'lidan foydalaniladi.

[man šānzdah sāl dāram]- Men o'n olti yoshdaman.

[xāharam panj sāl dārad] - Singlim besh yoshda.

2. بزرگ [bozorg] va کوچک [kuček] quyidagi so'zlarga qo'shilganda turli ma'noni anglatadi:

برادر بزرگ [barādar-e bozorg] - aka (katta aka)

برادر کوچک [barādar-e kuček] - uka

خواهر بزرگ [xāhar-e bozorg] - opa

خواهر کوچک [xāhar-e kuček] - singil

مادر بزرگ [mādar bozorg]- buvi. Bu yerda izofa tushib qoladi.

پدر بزرگ [pedar bozorg]- buva. Bu yerda izofa tushib qoladi.

دختر بزرگ [doxtar-e bozorg] - katta qiz

دختر کوچک [doxtar-e kuček] - kichik qiz

3. مثلاً است که... [moddathā ast ke] birikmasi "... ancha bo'ldi", "anchadan beri..." deb tarjima qilinadi.

[moddathā ast ke mādar bozorgam mord-e ast] - Buvimning vafot etganlariga ancha bo'ldi.

[moddathā ast ke uro nadidam] - Uni anchadan beri ko'rmadim.

birikmasi "besh yildan beri", "besh yildir-ki..." deb tarjima qilinadi.

[panj sāl ast ke dar moskou zendegi nami konim] - Besh yildan beri Moskvada yashamayapmiz. Besh yildir-ki, Moskvada yashamayapmiz.

4. دیگر [digar] va یک [yek] so'zlariga "i" tovushi qo'shilsa, bir turdagi predmet yoki shaxslarni bir-biridan ajratib ko'rsatish uchun [yek]- biri, دیگر [digar]- boshqasi degan so'zlarga aylanadi.

so'zi gapda aniqlovchi vazifasini bajarsa, *[digari]*- ot digari
vazifasida, ya'ni ega bo'lib keladi.

[dānešju-ye digar goft] - Boshqa student dedi...

[digari goft]- boshqasi dedi....

9-mashq. Nuqtalar o'rmini kerakli sonlar bilan to'ldiring.

دوستم يېست سال دارد و از برادر كوچكش سه سال بزرگتر است، پس
برادر كوچكش... سال دارد. خواهر كوچكم ۱۳ سال دارد، برادر كوچكم
هفت سال دارد، پس بين آنها... سال تفاوت است. مھين دو برادر دارد، يکي
از آنها ۱۰ سال و ديگري ۷ سال از او بزرگتر است، پس او... سال دارد.
برادر كوچكم ۹ سال دارد. برادر كوچك احمد ۴ سال بزرگتر است، پس
او... سال دارد. در کلاس ما ۸ نفر دانشجو است، در کلاس شما ۷ نفر
دانشجوست، پس روي هم رفته در کلاس ما و شما... نفر دانشجوست.
۱۷ سال داري، احمد از تو يك سال كوچکتر است، پس او... سال دارد. تو
۱۹ سال داري، من ۱۴ سال دارم، پس من از تو... سال كوچکترم. روي ميز
۱۴ کتاب است، ۵ تا از آن کتاب ها مال من است،... کتاب مال دوست.

10-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

دو سال است که ما با او آشنا هستیم. یازده سال است که خانواده‌ی
عموم در آمریکا زندگی می‌کنند. چند سال است که خانواده‌ی شما در تهران
زندگی می‌کنند. برادر بزرگم مدتی است که کار نمی‌کند. مدتها است که من
هر روز صبح ورزش می‌کنم. چند سال است که به مسکو ترفتی؟ پنج روز
است که مادرم به شهر سمرقند رفت. دوستم دو روز است که مریض است.
يك ماه است که ما کلاس زبان عربي نداریم.

11-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Nohid 14 yoshda. Uning opasi 18 yoshda. Ularning orasida 4
yosh farq bor. Mening ukam 13 yoshda. Sening ukang necha yoshda?
Siz 20 yoshdasiz, Parvin sizdan 5 yosh kichik, demak u 15 yoshda.
Ular 11 yoshdalar va 16 yoshda maktabni bitiradilar, 17 yoshda
talaba bo'ladilar.

12-mashq. Eshiting va takrorlang.

خواهش مي كنم مرا سر ساعت هفت بيدار كنيد. لطفاً از حوله و صابون
من استفاده نكنيد. ته‌ميم دارم همه‌ي دوستانم را به شام دعوت بكنم. ديشب
مي‌خواستم به شما تلفن كنم، ولي متاسفانه وقت نكردم. نامه‌اي به پدرتان
بنويسد و از او كمك بخوايد. متاسفانه تا آخر اين هفته نمي‌توانم پول شمارا
پس بدهم. فراموش نكنيد كه ساعت ۱۱ به من تلفن كنيد. فكر نمي‌كنم بتوانم
بدون كمك شما از اين كتاب استفاده كنم. خوشبختانه از اینجا بروم. شما نمي
توانيد اتومبيل خودرا در خيابان بگذاريد. مگر آنها ميل ندارند هر روز
روزنامه‌ي فارسي بخوانند تا فارسي شان قوي شود.

Yuqoridagi jumalarning kesimi qaysi fe'l shaklida kelganini
aytib bering.

13-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Sizning opangiz necha yoshda va qayerda o'qiydi? Mening ukam
16 yoshda, bu yil maktabni tamomlaydi. Uch yildir-ki, biz u yerda
yashamaymiz. Toshkentda yashaymiz. Ular doim birga dars
tayyorlaydilar. Biri o'qiydi, ikkinchisi tarjima qiladi. Feruzning akasi
Nohidning akasi bilan bir universitetda o'qiydi. Biri fizika
o'qituvchisi, ikkinchisi kimyo o'qituvchisi bo'ladi. Uch yildir-ki, biz
bir-birimizni ko'rmaymiz.

Do'stim Ahmad bugun avtobusga chiqa olmadi va taksi
to'xtatishga majbur bo'ldi. Marhamat qilib, menga o'rgating, bu
mashinadan qanday foydalaniladi? Sizning ko'magingizsiz bu
kitobni o'qiy olmayman deb o'ylayman.

Uchinchi mashg'ulot

گفتگو

- امشب شب جشن استقلال مین ماست. میل داری باهم به گردش بروم؟
- البته، میل دارم. بهتر است که با افراد خانواده مان بروم.
- چطور وقت مان را تقسیم کنیم؟
- ساعت ۱۵ درس ما تمام می شود، بعد از ناهار، يك ساعت استراحت می کنیم و ساعت ۱۷ ملاقات می کنیم و به پارک «الفیک» بروم و یکی دو ساعت آنجا گردش بکنیم.
- بعد کجا می روم؟
- بعد به مرکز شهر، به میدان استقلال بروم و آنجا را تماشا کنیم.
- میل نداری به میدان دوستی ملل بروم؟
- خیلی مایلیم، می دانی که همیشه در این میدان مردم برای تماشا جمع می شوند، ما هم بروم.
- در خیابانهای قشنگ تاشکند گردش نکنیم؟
- چرا گردش نکنیم، تمام خیابانهای شهر، شب جشن خیلی قشنگ است، عمارات شهر را چقدر خوب چراغانی می کنند.
- در میدان استقلال چه خبر است؟
- آنجا شبها موزیک می زنند، هنرپیشگان معروف در این خیابانها کسرت می دهند. دختران و پسران جوان آنجا می رقصند.
- خوب، ما هم بروم آنجا.
- گردش ما تا چه ساعتی طول می کشد؟

- فکر می کنم که تا ساعت ۱۱ شب، بعد از آن به خانه بر می گردیم.

Leksik izoh

1. بهتر است [behtar ast] iborasidan keyin kelayotgan fe'l aorist shaklida turadi.

[behtar ast esterāhat konim] بهتر است استراحت کنیم، کار نکنیم. [kār nakonim] – Dam olsak yaxshi bo'lardi, ishlamasak bo'lardi.

2. شب [šab] – tun, kechasi so'zi ayrim birikmalarda "arafasi, arafasida" ma'nolarini beradi. Masalan:

[emšab šab-e jašn-e esteqlāl ast] امشب، شب جشن استقلال است. Bugun mustaqilligimiz bayrami arafasidir.

O'zbek tilida: "musiqā chalinadi" (majhul daraja) deyilsa, fors tilida muzik [muzik mizanand] – "musiqā chaladilar" (aniq daraja, III shaxs, ko'plik) deyiladi.

14-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni kerakli shaklga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

شب جشن، عمارات (ساختمان های) شهر مارا خیلی (چراغانی کردن). هر شب اینجا هنرپیشگان (کسرت دادن). دختران و پسران جوان آنجا (رقصیدن). آیا تو هم میل داری (رقصیدن). شما میل دارید در خیابانهای قشنگ تاشکند (گردش کردن). روزهای جشن از ولایات مختلف جمهوری مان مهمانان به شهر ما (شریف آوردن). روزهای جشن ما هم خانه (نشستن) بلکه برای گردش به مرکز شهر (رفتن). بهتر است که امروز (کار کردن) (استراحت کردن).

15-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

روزهاي جشن شما کجا مي رويد؟ در شهر شما هم ميدان بزرگ هست؟ آيا
روز جشن عمارات (ساختمان هاي) شهر شما هم چراغاني مي کنند؟
خيابانهاي شهر شما روز جشن چطور مي شود؟ کجا موزيك مي زنند؟ شما -
جوانان در شب جشن مي رقصيد؟ گردش شما تا ساعت چند طول مي کشد؟
مگر شما روزهاي جشن کار مي کنيد؟ کدام جشن را بهترين جشن مي شماريد؟

16-mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

امشب... جشن استقلال جهوري ما است.	چراغاني کردن، جشن،
روزهاي... عمارات شهر تاشکند را خيلي	دانشکده، همیشه، طول
قشنگ.... ميدان استقلال از... ما دور نيست....	کشيدن، شب، پختن،
را خيلي زيبا چراغاني مي کنند. ما... روز جشن به	خيابانها، ما، رقصيدن،
گردش مي رويم. صحبت آقا يك ساعت....	خوش گذشتن.
مادرم روز جشن، شريف هاي رنگارنگ.... هر	
شب... و دختران و پسران جوان آنجا....	
خوشبختانه جشن استقلال ما....	

17-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Mustaqillik bayrami kechasi bizning uyga mehmonlar kelishdi. Otam ularni ikki kun oldin uyimizga taklif qilgandi. Oila a'zolarimiz va mehmonlar stol atrofida o'tirdik va kechki ovqatni yedik. O'sha kuni onam turli-tuman shirinliklar pishirdi. Shomdan so'ng men taklif qildim: "Kelinglar, mustaqillik maydoniga boramiz. U yerni juda chiroyli qilib bezatganlar. Toshkent ko'chalarida sayr qilishni xohlamaysizmi?". Mehmonlar mening taklifimni qabul qildilar. Biz avval Ulug'bek bog'iga bordik. U yerda bolalar o'ynadilar, sayr qildilar. Bog'da musiqa chalinar. Yoshlar raqs tushardilar.

Mustaqillik maydonida ham artistlar konsert berardilar. Hamma shod va xurram edi. Bizning sayrimiz soat 11 gacha davom etdi. Biz ham, mehmonlar ham bayram kechasidan rozi edik. Uyga qaytdik va bir oz suhbatlashdik, so'ng uyquga ketdik.

To'rtinchi mashg'ulot

گفتگو

در فروشگاه

- بېخشيد آقا! جنس اين کراوات چهست؟
- کدام يکي را مي فرمائيد؟
- آن کراوات دومي از سمت "چپ" زمينه ي راه راه.
- اين ابريشم خالص است، دوخت ايتاليا است، جنسش خيلي عالي است.
- مي توانم بينم؟
- البته، خواهش مي کنم، مفاذه ي خودتان است. بفرمائيد، به لباس شما خيلي مي آيد. ماشاءالله خيلي خوش سليقه هستيد.
- متشکرم، ولي متأسفانه براي خودم ليست، هديه است. چهارشنبه ديگر، روز تولد برادرم است. براي او مي خرم. بديفانه خيلي مشکل پند است. قيمتش چند است؟
- قابلي ندارد قربان، ۱۸ دلار.
- چرا اينقدر گران است، کمتر حساب کنيد.
- متأسفانه تخفيف ندارد.
- راستي، بهتر است يك پيراهن بخرم.
- چه جور پيراهن مي خواهيد، اسپورت يا کراواتي.

- مي خواهم يك پراهن بخرم كه با اين كراوات مناسب باشد و آنقدر گران هم نباشد.

- پراهن هاي رنگي و چهارخانه و راه راه، چه اندازه اي مي خواهيد؟
- يقه ي پانزده ولي آستين کوتاه، همين خوب است متشكرم.
- بفرمائيد، انشاء الله مبارك باشد.
- راستي، اگر برادرم اينهارا نپسندد، پس مي گيريد؟
- بله، فقط پراهن را تا يك هفته ي ديگر مي توانيد پس بياوريد، البته به شرطي كه باز نكنيد. ولي كراوات را نمي توانيم پس بگيريم.
- خدا كند برادرم خوشش بيايد. خيلي مشكل پسند است.

Leksik izoh

1. *[farmudan]* fe'lining asl ma'nosi "buyurmoq" bo'lib, u og'zaki nutqda yana boshqa ma'nolarni ham anglatadi:

a) *[befarmāyid čāy bexorid]* – Marhamat, choy iching.

b) *[kodām yeki-rā mifarmāyid?]* – Qay birini aytayapsiz, so'rayapsiz?

2. *[āmadan]* fe'lining "kelmoq"dan tashqari "yarashmoq" ma'nosi ham bor. *[be lebās-e šomā miyāyad]* – Kiyiminhgizga yarashadi.

3. *[xuš saliqe]* – didli degan ma'noni beradi.

[šomā xuš saliqe hastid] – Didingiz yaxshi ekan.

4. *[moškel pesand]* – "injiq" degan ma'noni anglatadi.

5. *[behtar ast]* iborasidan keyin kelayotgan fe'l aoristda turadi va o'zbek tiliga "yaxshisi...", "...yaxshi bo'lardi" deb tarjima qilinadi.

[behtar ast ke yek pirāhan ham bexaram] – Bir ko'ylak sotib olsam ham yaxshi bo'lardi.

6. *[pas]* so'zi ko'p ma'nolarga ega bo'lib, old ko'makchi sifatida fe'llar bilan qo'shilib old ko'makchili fe'l hosil qiladi.

[pas gercftan] – qaytarib olmoq

[pas dādan] – qaytarib bermoq

[pas āmadan] – qaytib kelmoq

18-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

روزهاي جشن شما كجا مي رويد؟ در شهر شما هم ميدان بزرگ هست؟
روز جشن عمارات (ساختمان هاي) شهر شما را هم چراغان مي كنند؟
شهر شما روز جشن چطور مي شود؟ كجا موزيك مي زنند؟ شما با جوانان در
شب مي رقصيد؟ گردش شما تا ساعت چند طول مي كشد؟ مگر شما روزهاي
جشن كار مي كنيد؟ کدام جشن را بهترين جشن مي شماريد؟

19-mashq. Nuqtalar o'rniiga so'zlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

پراغاني کردن	امشب... جشن استقلال جمهوري ماست.
جشن – دانشكده	روزهاي... عمارات (ساختمان هاي) شهر
هميشه – طول كشيدن	تاشكند را خيلي فشنگ... ميدان استقلال
شب – پهن	از... ما دور نيست... را خيلي زيبا
خيابانها – ما	چراغاني مي كنند. ما... روز جشن به گردش
رقصيدن – خوش	مي رويم. صحبت آما يك ساعت... مادرم
گذشتن.	روز جشن، شيريني هاي رنگارنگ... هر

هاي نوي چند طبقه اي مي سازند، رستورانهاي جديد به وجود مي آيد روز به روز شهر عزيز ما قشنگ تر مي شود.

Leksik izoh

1. مردم [mardom] so'zi ega vazifasida kelganda birlik formada turgan bo'lsa ham kesimi bilan ko'plikda moslashadi.

Xalq [mardom barāye tafrih miravand] - مردم براي تفريح مي روند. dam olish uchun boradi. O'zbek tilida esa birlikda moslashadi.

2. روز به روز [ruz beruz] "kundan kunga", "kun sayin", "bora-bora" deb tarjima qilinishi mumkin.

20-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli zamonga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

من در تاشکند (زندگي کردن). در سابق، تاشکند نام ديگري (داشتن). مردم براي هواخوري بيرون شهر (رفتن). ما شهر خود را (دوست داشتن). بعد از استقلال، کشور ما (رشد يافتن). در خيابانهاي اين شهر، عمارات و ساختمانهاي نو (بوجود آمدن). در باغات (پارک ها) براي تفريح مردم، همه وسايل (حاضر بودن). رود بزرگ از ميان اين شهر (گذشتن). مردم ازبکستان هميشه به کشورهاي همسايه (احترام گذاشتن). من اينجا را بشهر از هر جا (دوست داشتن).

21-mashq. Nuqtalar o'rni chapa tomonida berilgan so'zlar, so'z birlikmalari bilan to'ldiring.

... که ما در شهر تاشکند زندگي مي کيم.	مانند - نو
ما باغات و... زياد است. ميدان استقلال در... نام	وسيع - بزرگو
ديگر داشت. نام تاشکند هم... بود. در سابق، شهر	تفريح - آنقدر
ما... امروز نبود. در خيابانهاي اين شهر	سابق - ديگرگون

شب... و دختران و پسران جوان آنجا....
خوشبختانه جشن استقلال ما....

Beshinchi mashg'ulot

من در تاشکند زندگي مي کيم

ما تاشکندي اصيل هستيم و متفا است که در تاشکند زندگي مي کيم. نيکان ما هم تاشکندي بودند. پدر بزرگم براي من نقل مي کرد که در سابق، تاشکند نام ديگري داشت و مانند امروز نبود.

در زمان امپراتوري روسيه، تاشکند به مرکز جديد اداري، بازرگاني، سياسي و صنعتي تبديل شد و اکنون هم به عنوان مرکز جمهوري ازبکستان، مهمترين شهر آسياي مرکزي است. تاشکند در دوران ازبکستان شوروي آنقدر (چندان) زيبا نبود و خيابانهاي آن وسيع نبود. ولي بعد از استقلال جمهوري ازبکستان، تاشکند خيلي تغير شکل داد و روز بروز قشنگتر مي شود. تمام خيابانها و ميدان هاي آن را از نو مي سازند. اکنون ميدان مرکزي، ميدان استقلال نام دارد. در سه ميدان جديد به وجود آمد و خيابان هاي سر سبز تاشکند داراي ساختمان هاي بلند و زيباست. تمام شهر را درختان مختلف پوشانده است. از وسط شهر رود «بزرگو» مي گذرد. در کنار شهر يك رودخانه هم هست. در تابستان، مردم به آنجا براي گردش و هواخوري مي روند. تاشکندي ها و مهمانان آن، اين شهر باستاني را خيلي دوست دارند. در شهر تاشکند چند باغ بزرگ وجود دارد. مثلاً باغ عبدالله قادري، باغ علي شير نوايي، باغ بابر، باغ الوغيك و غيره. در اين باغات براي تفريح مردم، همه وسايل حاضر است. به جاي ساختمان هاي کهنه ساختمان

کتاب... خواندم ولي آن را غي توانم... شما بدهم. در باره ي اين شاعر معروف... مي دانيد؟ ميدان استقلال... مرکز شهر واقع است. ما ميهن خودمان... دوست داريم. دانشکده ي ما... خيابان لاهوتي قرار دارد. ما مي خواهيم امشب... خيابان امير تيمور گردش کيم. او امروز غي تواند... من بيايد. من وقت نکردم... خواهرزاده ام هديه بخرم.

24-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Biz anchadan beri Toshkentda yashaymiz. O'tmishda bu shaharning nomi Toshkent emas edi. Toshkent Markaziy Osiyoning muhim shaharlaridan biridir. Sho'ro davrida Toshkent u qadar chiroyli emas edi. 1991 yili xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Uning ko'chalari va maydonlarini qaytadan qurayaptilar. Shaharni ko'm - ko'k daraxtlar o'rab turadi. Shahar markazidan Bo'zsuv daryosi oqib o'tadi. Shahar chetida ko'l ham bor. Yozda aholi dam olish va sayr qilish uchun u yerga boradi. Bu go'zal shaharda bog'lar ko'p. Masalan: A. Qodiriy bog'i, Bobur bog'i, Ulug'bek bog'i, A. Navoiy bog'i va boshqalar. Bog'larda dam olish uchun hamma sharoit mavjud. Biz o'z shahrimizni sevamiz.

ساختمانهاي... به دنيا آمد. شما کدام ميدان ...
تاشکند را مي دانيد؟ رود... از مرکز شهر
مي گنرد. مردم براي... و... به بيرون شهر
مي روند. خيابان نوايي... وسيع نيست ولي خيلي
قشنگ است.

22-mashq. Berilgan savollarga bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda javob bering.

شما اهل کجائيد؟ چند سال است که شما در تاشکند زندگي مي کنيد؟ در سابق نام تاشکند چه بود؟ مگر تاشکند در دوزان شوراهها هم مثل امروز بود؟ تاشکند کي به مرکز تبديل شد؟ ميدان مرکزي تاشکند در دوران ازبکستان شوروي چه نام داشت؟ آيا شما مي دانيد بعد از استقلال در جمهوري ازبکستان چه تغييراتي به عمل مي آيد؟ در شهر تاشکند چند ميدان هست؟ خيابانهاي شهر چگونه است؟ غير از بزو کدام رودهارا مي دانيد؟ رودخانه ي حومه شهر چه نام دارد؟ شما تعطيلات تابستاني را کجا مي گنرايد؟ کدامیک از باغات شهر را بلذ هستند؟ روزهاي تعطيل براي تفریح به کدام باغ مي رويد؟ غير از تاشکند، کدامیک از شهرهاي هاي جمهوري تان را مي دانيد؟

23-mashq. Nuqtalar o'rniiga ko'makchi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

روز جشن استقلال ميهن ما... کشور هاي مختلف، ميهناتان آمدند.
بچه ها، روزهاي تعطيل... باغات گردش مي کنند. ما... گردش... باغ
«عبدالله قادري» رفتيم. مرلشان... دانشگاه دولتي تاشکند نيست... قهوه
خانه است. پدرم... من از مسکو يك پالتوي زمستاني آورد. من خودم اين

SAKKIZINCHI DARS

من در تاشکند زندگی می کنم

(ادامه)

دفعه ی پیش، صحبتان در باره ی شهر تاشکند ناتمام ماند و حالا آن را ادامه می دهم. من گفتم که تاشکند دارای ساختمان های نوساز زیادی است. مثلاً ساختمان های شهرداری تاشکند، بناهای زیبای بانک ملی، موزه ی امیر تیمور، هتل اینترکانتیننتل و غیره. ساختمان های شهرداری تاشکند خیلی قشنگ است و در خیابان امیر تیمور واقع است. این خیابان، پیاده روهای وسیعی دارد. من هر روز از این خیابان می گذرم. روز های جشن، این خیابان و بنای شهرداری را بیشتر از هر جا چراغانی می کنند. دو سال پیش، نزد خانه ی ما یک بنای بانک ملی ساختند که خیلی عالی است. در شهر تاشکند، وسایل نقلیه مثل: اتوبوس، اتوبوس برقی و تاکسی کار می کند. مترو هم هست. متروی تاشکند، دارای ایستگاههای قشنگی است. در شهر ما، باغ وحش درست کردند. هفته ی گذشته من با دوستم به دیدن آن رفیم. عصرها در میدان های تاشکند مردم خیلی زیاد هستند و کودکان و جوانان، دور فواره های مختلف تفریح می کنند. روز های آفتابی تابستان، شهرنشینان و میهمانان آن در باغات سرسبز پوشیده استراحت می کنند و یا بیرون شهر می روند. در میدان علیشیرنوائی مجسمه شاعر معروف ازبک، علیشیرنوائی قرار دارد و این میدان، محل گردش و تفریح مردم است. مردم، شاعران و نویسندگان خود را دوست دارند و احترام می گذارند. میهمانان تاشکند، همیشه پای مجسمه ی «علی شیرنوائی» گل می گذارند. تابستانها، هر روز عصر در این میدان، مردم

زیادی جمع می شوند. تاشکند، موزه های زیادی دارد. مثلاً موزه ی تاریخ، موزه ی صنایع دستی، موزه ی هنر، موزه ی طبیعت و غیره. تاشکند با بازارهای مختلف خود هم شهرت دارد. هر وقت که بازار بروید همه چیز را پیدا می کنید. من، شهر تاشکند - پایتخت میهن خود را خیلی دوست دارم.

Leksik izoh

1. Vaqt bo'lagini bildiruvchi روز [ruz]- kun, عصر [asr]- kechki payt (asr), شب [shab]- kechasi, tun, تابستان [tābestān]- yoz va h.k.lar payt holi sifatida ham birlik shaklda, ham ko'plik shaklda ishlatilishi mumkin. [asrhā bā dustam sohbāt mukardam] - عصرها با دوستم صحبت می کردم. - Kechki paytlari do'stim bilan suhbatlashardim.

2. Distant holatda ishlatiladi. [dārā budan] - "ega bo'lmoq, bor bo'lmoq" fe'li darā budan - تاشکند دارای باغ وحش نوئی است.

[Tāškand dārāye bāy-e vahš -e nou asl] - Toshkentda yangi hayvonot bog'i bor. (Toshkent yangi hayvonot bog'iga ega.)

1-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli shaklga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

دفعه ی گذشته، صحبتان (ناتمام ماندن). من هر روز از این خیابان (گذشتن). روزهای جشن، این عمارات (ساختمان ها) را خیلی (چراغانی کردن). من نمی توانم همهی میدانها و خیابانهای تاشکند را (نام بردن). آیا او می تواند نام هر کوچه و خیابان شهر خود را (نام بردن). مردم به شاعر معروف ازبک (احترام گذاشتن). آیا شما (میل داشتن) به شهر سمرقند (رفتن). عصرها اینجا مردم (تفریح کردن). بانک مرکزی در کدام خیابان (قرار داشتن)؟

خواهش می‌کنم مرا هم به مرکز شهر (رساندن). ما استاد خود را (دوست داشتن).

2-mashq. Nuqtalar o'rniga chap qatorda berilgan so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

گذشته - برگشتن	در تمام... شاعر معروف ازبك، «علي شیر نوایی»
جشن - گردش کردن	را می‌شناسند و به او.... بفرومائید چند میدان...
دنیا - مرکزی - وسط	را نام ببرید. مادرم روزهای... خودش غذا
آماده کردن - سفر کردن	می‌پزد. دانشجویان دوست دارند در خیابانهای
احترام گذاشتن - بعد	تاشکند.... ما سال... به شهر قرآن... و يك
	هفته..... موزه نوي در... شهر قرار دارد. همه
	دوستانم به مادرم...

دارای ... بودن 3-mashq. Quyidagi jumalarni tarjima qilishda fe'lidan foydalaning.

Uning ikkita avtomobili bor. Bu shaharda bir nechta bog' va baland imoratlar bor. Men forsha-ruscha lug'atga egaman. Hatto shu kichik ko'chada ham kinoteatr bor. Yaqinda u chiroyli uyga ega bo'ladi. Do'stim bu kitobga ega emas. Toshkent shahrida metro bormi? Nohidda pianino bor, lekin uning do'stida yo'q. Shaharda biz bir nechta magazinga egamiz.

4-mashq. O'z tug'ilib o'sgan shahringiz haqida insho yozing.

5-mashq. Savollarga javob bering.

آیا تاشکند دارای ساختمان های نوساز است؟ کدامیک از آنها را بلد هستید؟
آیا شما می‌توانید موزه های تاشکند را نام ببرید؟ بنای شهرداری تاشکند در کدام خیابان واقع شده است؟ روزهای جشن را تاشکندی ها چگونه می‌گذرانند؟ باغ وحش نوي تاشکند را شما دیدید؟ میدانهای شهر شما چگونه است؟

روزهای تابستان شما کجا می‌روید؟ کدام یک از میدانهای تاشکند محل گردش و تفریح است؟ آیا تاشکند جاهای سرسبز وسیع دارد؟ مجسمه «علي شیر نوایی» کجا است؟ چرا به این شاعر معروف احترام می‌گذارند؟ آیا شما می‌توانید در باره ی شب جشن استقلال صحبت کنید؟ شما غیر از جشن استقلال چه جشنی دارید؟ آیا روزهای عید فطر و عید قربان تعطیل است یا نه؟ روز زنان چه روزی است؟ آنها میل دارند روز تعطیل با هم برای هواخوری بروند؟ ازبکستان در آسیای مرکزی چه موقعیتی دارد؟

6-mashq. Eshiting va takrorlang, so'ng yoddan yozing.

۱) منتهای است که من در شهر بخارا زندگی نمی‌کنم. پنج سال است که در تاشکند اقامت دارم. دو روز است که پیش دوستم رفتم. يك هفته است که از پدرم نامه‌ای دریافت نکردم. منتهای است که این شاعر بزرگ را دوست دارم. منتهای است که دانشجویان به فارسی خوب حرف می‌زنند. چند سال است که تو در تاشکند زندگی می‌کنی؟ چند ساعت است که اینجا هستی؟ چند روز است که او را می‌شناسی؟ چند سال است که تاشکند، پایتخت ازبکستان است؟

ب) مادرم دارای دو برادر کوچک و يك خواهر بزرگ است. او هم دارای برادر زاده است. من کتاب عربی ندارم، کتاب فارسی دارم. اما هم دارای این کتاب لغت هستم، ولی ما ندارم. تو هم دارای مفاهیم هستی؟ شاگردان این استاد داستان «علي شیر نوایی» خواندند.

7-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Men Toshkentning ko'pgina ko'chalarini va maydonlarini bilaman. Toshkent ko'chalarida magazinlar ko'p. Kundan-kunga bu shahar chiroy ochib bormoqda. Shahar hokimiyati binosi Movarounnahr

ko'chasida joylashgan. Bayram kunlari toshkentliklar bu markaziy maydonda dam oladilar. Men har kuni bu ko'chadan o'taman, chunki bizning institut shu ko'chada joylashgan. Har yili Toshkentga turli mamlakatlardan ko'plab mehmonlar kelishadi. Siz bizning shahar bozorlarini ko'rdingizmi? Bozorlarda hamma narsalar bor. Qishin-yozin ho'l mevalar sotiladi. Toshkentda transport vositalaridan metro, avtobus, trolleybus, taksi ishlab turibdi. Metroning bekatlari juda chiroyli. Shaharliklarning ko'pchiligi metrodan foydalanadilar. Men ham ishga metroda boraman. Biz o'z shahrimizni sevamiz.

Ikkinchi va uchinchi mashg'ulot

O'tgan zamon natijali fe'li

ماضي نقلي

O'tgan zamon natijali fe'li (perfekt) – o'tgan zamon sifatdoshiga bog'lamaning qisqa shaklini qo'shish orqali yasaladi.

O'tgan zamon sifatdoshi esa o'tgan zamon fe'l negiziga yozuvda • (*hāye-havvaz*), talaffuzda "e" suffiksini orttirish bilan hosil qilinadi.

آمدن → آمد + • → آمده [*āmade*] – kelgan

پرسیدن → پرسید + • → پرسیده [*porside*] – so'ragan

O'tgan zamon natijali fe'li quyidagi shaklda tuslanadi:

Birlık

I sh. آمده ام [*āmade-am*] – kelganman

II sh. آمده ای [*āmade-i*] – kelgansan

III sh. آمده است [*āmade ast*] – kelgan

Ko'plik

I sh. آمده ایم [*āmade-im*] – kelganmiz

II sh. آمده اید [*āmade-id*] – kelgansiz

III sh. آمده اند [*āmade-and*] – kelganlar

Birlık

I sh. پرسیده ام [*porside-am*] – so'raganman

II sh. پرسیده ای [*porside-i*] – so'ragansan

III sh. پرسیده است [*porside ast*] – so'ragan

Ko'plik

I sh. پرسیده ایم [*porside-im*] – so'raganmiz

II sh. پرسیده اید [*porside-id*] – so'ragansiz

III sh. پرسیده اند [*porside-and*] – so'raganlar

Bog'lamaning qisqa shakli oldidan alif orttirilib, u alohida yoziladi. Urg'u sifatdoshning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

O'tgan zamon natijali fe'lining bo'lishsiz shaklini yasash uchun o'tgan zamon sifatdoshi oldiga نه – *na* inkor yuklamasini qo'shish

kerak. Asosiy urg'u نه – *na* inkor yuklamasiga tushadi.

Birlık

I sh. پرسیده ام [*naporside-am*] – so'ramaganman

II sh. پرسیده ای [*naporside-i*] – so'ramagansan

III sh. پرسیده است [*naporside ast*] – so'ramagan

Ko'plik

I sh. پرسیده ایم [*naporside-im*] – so'ramaganmiz

II sh. پرسیده اید [*naporside-id*] – so'ramagansiz

III sh. پرسیده اند [*naporside-and*] – so'ramaganlar

Birlık

I sh. نیامده ام [*nayāmade-am*] – kelmaganman

II sh. نیامده ای [*nayāmade-i*] – kelmagansan

III sh. *[nayāmade ast]* – kelmagan

Ko'plik

I sh. *[nayāmade-im]* – kelmaganmiz

II sh. *[nayāmade-id]* – kelmagansiz

III sh. *[nayāmade-and]* – kelmaganlar

Qo'shma fe'llarning o'tgan zamon natijali fe'li shaklida tuslanishi quyidagicha:

Birlilik

I sh. *[dust dāšte-am]* – yaxshi ko'rganman

II sh. *[dust dāšte-i]* – yaxshi ko'rgansan

III sh. *[dust dāšte ast]* – yaxshi ko'rgan

Ko'plik

I sh. *[dust dāšte-im]* – yaxshi ko'rganmiz

II sh. *[dust dāšte-id]* – yaxshi ko'rgansiz

III sh. *[dust dāšte and]* – yaxshi ko'rganlar

Bo'lishsiz shaklda:

Birlilik

I sh. *[dust nadāšte-am]* – yaxshi ko'rmaganman

II sh. *[dust nadāšte-i]* – yaxshi ko'rmagansan

III sh. *[dust nadāšte ast]* – yaxshi ko'rmagan

Ko'plik

I sh. *[dust nadāšte-im]* – yaxshi ko'rmaganmiz

II sh. *[dust nadāšte-id]* – yaxshi ko'rmagansiz

III sh. *[dust nadāšte-and]* – yaxshi ko'rmaganlar

Old qo'shimchali fe'llarning tuslanishi:

Birlilik

I sh. *[farā gerefte-am]* – qamrab olganman

II sh. *[farā gerefte-i]* – qamrab olgansan

III sh. *[farā gerefte ast]* – qamrab olgan

Ko'plik

I sh. *[farā gerefte-im]* – qamrab olganmiz

II sh. *[farā gerefte-id]* – qamrab olgansiz

III sh. *[farā gerefte and]* – qamrab olganlar

Inkor shaklda:

Birlilik

I sh. *[farā nagerefte-um]* – qamrab olmaganman

II sh. *[farā nagerefte-i]* – qamrab olmagansan

III sh. *[farā nagerefte ast]* – qamrab olmagan

Ko'plik

I sh. *[farā nagerefte-im]* – qamrab olmaganmiz

II sh. *[farā nagerefte-id]* – qamrab olmagansiz

III sh. *[farā nagerefte and]* – qamrab olmaganlar

O'tgan zamon natijali fe'lining qo'llanilishi

O'tgan zamon natijali fe'li ma'lum bir ish-harakatning o'tgan zamonda bajarilganligini va uning natijasi hozirda ham mavjud ekanligini ifodalaydi. O'tgan zamon natijali fe'lining boshqa o'tgan zamon fe'l shakllaridan farqi ham - uning ish-harakat natijasini ko'rsatishidir.

[man in ketāb-rā xādam] – Men bu kitobni o'qidim.

- آره، ولي بخريده ام، زيرا آن ماه خيلي خرج کرده ام و هيچ پس انداز نکرده ام. تا روز تولدش وقت هست. اين ماه ان شاء الله مي خورم. خودت امتحانات نيمه ي اول را چگونه سرده اي؟

- بد نيست. فارسي را خوب ياد گرفته ام و در امتحان موفق شدم و نمره ي عالي گرفتم.

- حالا چه مي کنی؟

- دوره تعطيل است، مي خواهم با دوستانم به شهرهاي ديگر ازبکستان سفر کنم. بلي، يادم آمد روز پكشبه - فردا دوستان و آشنايان را به شام دعوت کرده ام، اميدوارم كه تو هم بيايي.

- متشكرم، البته مي آيم. اتوبوس من مي آيد، مجبورم با تو خدا حافظي كنم.

- تا ديدار.

8-mashq. Quyidagi fe'llarni o'tgan zamon natijali fe'li shaklida tuslang.

گرفتن - الداخ - برخاستن - جشن گرفتن.

Tuslagan fe'llaringiz ishtirokida 10 ta gap tuzing va gaplarning ma'nosiga ahamiyat bering.

9-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni o'tgan zamon natijali bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda yozing.

هنوز فارسي خوب (ياد گرفتن). چرا استاد امروز به دانشگاه (آمدن). يك ماه تمام، نامزد هستند، ولي هنوز (غروسي كردن). اين هفته، خيلي (گرفتار بودن) و (وقت كردن) به مادرم تلفن كنم. قطار، ساعت پنج (حركت كردن) و هنوز به ايستگاه (رسيدن). چندين سال است كه با هم زندگي مي كنيم ولي

[man in ketāb-rā har ruz] من اين كتاب را هر روز مي خواندم.
[mixādam] - Men bu kitobni har kuni o'qirdim.

[man in ketāb-rā xānde-am] من اين كتاب را خوانده ام.
kitobni o'qiganman.

Birinci gapda, umuman, darak ma'nosi, ikkinchi gapda davomli ish-harakat haqida xabar ma'nosi mavjud. Uchinchi gapda esa ish-harakatning natijasi, ya'ni o'qilgan kitobni hozir aytib bera olish mumkinligi ma'nosi ifodalangan. Ba'zi hollarda o'tgan zamon natijali fe'li sodda o'tgan zamon fe'li kabi tarjima qilinadi.

گفتگو

- سلام احمد

- سلام جمشيد

- چگونه هستی، مائقامست كه تورا ندیده ام.

- بلي، چون آخر نيمه اول سال تحصيلي بود، خيلي گرفتار بودم. خودت چگونه هستی؟

- متشكرم، من هم خوب. روزهاي تعطيل پيش مادر و پدرتان رفتم بودی؟

- نه، آنها مول نيستند. پدر و مادرم به اروپا سفر کرده اند و هنوز برگشته اند. دو روز پيش تلفن کرده اند و اين روزها خودشان مي آيند. تاشكند.

- دفعه ي پيش گفتي كه مي خواهي براي خواهر كوچكت يك هالوي زمستاني هديه بکني، خريدي؟

هنوز يکديگر را خوب (شناختن). چه کسی، بي اجازه به اتاق من (رفتن)؟ برف
 بسيار (باریدن) و همهي دبستانفارا تعطيل (کردن). (شنیدن) کسی به شما (کمک
 کردن). ما اين برنامه ي تلویزیوني را (تماشا کردن). دوستم چراغ را (خاموش
 کردن) و (به خواب رفتن). او چندين نامه به من (نوشتن)، ولي هنوز (جواب
 دادن). بچه هارا مادرشان به سينما (بردن).

10-mashq. Nuqtalar o'mini chap qatordagi so'zlardan mosi bilan to'ldiring.

فکر مي کنم خانه شان را فروخته اند و يك...	اجاره، فهمیدن،
خریده اند. او... در خانه ي اجاره اي زندگی	هرگز، بارها، آپارتمان،
کرده است و... اجازه داده است. شهين، درس	گذشتن، پیاده رفتن،
ديشپ را خوب.... پدرم... خودرو نداشته است	هميشه، دانشکده ي
و هميشه.... ما... از اين خيابان... ولي هرگز شمارا	پزشکي، مذلما است،
ندیده ايم. برادرم... را تمام کرده است و... که در	معارف خواستن،
بیمارستان کار مي کند. از دوستم... ولي هنوز	مهندس برق، براي
آشپي نکرده ايم. برادر کوچکم... است و... که	من، چند سال است،
در کارخانه ي ماشين سازي کار مي کند. من شنيدم	دانشگاه دولتي
که دوستم مي خواهد در... درس بخواند. همه ي	تاشکند، خرج کردن
پولم را... و پدرم هنوز پول... نقرستاده است.	

11-mashq. Fors tiliga tarji na qiling.

O'tgan hafta ota-onamga telefon qilmaganman. Biz bu kitobni o'qiganmiz, siz ham uni o'q'shingiz mumkin. Do'stim universitetni tugatgan va hozirda maktabda dars berayapti. Anchadan beri uni ko'rmagandim, bugun u biznikiga keladi. Biz televideniyeining bu programmasini tomosha qildik. Do'stim chiroqni o'chirdi va yotdi. Uning ota-onasi Yevropaga safar qilganlari uchun u uyiga bormagan.

Ularning Toshkentdan ketganlariga 7 yil bo'ldi, hozir Moskvada yashaydilar. Ikki oydirki bu firma o'z xizmatchilariga oylik bermaydi. Safardan qaytganimizga ikki soat bo'ldi. Biz anchadan beri bir birimizni ko'rmaymiz. Ikki kechadir-ki, axborotga quloq solmadim. Bu kitobdan foydalanganmisiz? U bu film haqida kimga gapirib bergan? Tushlik qilganimga yarim soat bo'ldi.

To'rtinchi va beshinchi mashg'ulot

Uzoq o'tgan zamon fe'li

ماضي بعید

Uzoq o'tgan zamon fe'li - o'tgan zamon sifatdoshiga *budon* [budan]- "bo'lmoq" fe'lini qo'shish orqali yasaladi.

Uzoq o'tgan zamon fe'li qo'shma fe'l ko'rinishiga ega. U ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismi-o'tgan zamon sifatdoshi o'zgarishsiz holda turadi, ikkinchi qismi *budon* [budan] esa, aniq o'tgan zamon shakliga ega bo'ladi. Masalan:

	Birlik	Ko'plik
I sh.	خوانده بودم	خوانده بوديم
II sh.	خوانده بودي	خوانده بوديد
III sh.	خوانده بود	خوانده بودند

Murakkab fe'llar uzoq o'tgan zamonda tushlanganda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

	Birlik	Ko'plik
I sh.	ياد گرفته بودم	ياد گرفته بوديم
II sh.	ياد گرفته بودي	ياد گرفته بوديد
III sh.	ياد گرفته بود	ياد گرفته بودند

Old ko'makchili fe'llarning uzoq o'tgan zamonda tuslanishi quyidagicha:

	Birlık	Ko'plik
I sh.	برگشته بودم	برگشته بودیم
II sh.	برگشته بودی	برگشته بودید
III sh.	برگشته بود	برگشته بودند

Uzoq o'tgan zamon fe'lida sifatdoshning oxirgi bo'g'iniga ham, fe'l qismining oxirgi bo'g'iniga ham urg'u tushadi. Urg'ularning kuchi bir xil bo'ladi.

Uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli quyidagi ko'rinishiga ega:

1. Sodda fe'llar

	Birlık	Ko'plik
I sh.	نخوانده بودم	نخوانده بودیم
II sh.	نخوانده بودی	نخوانده بودید
III sh.	نخوانده بود	نخوانده بودند

2. Murakkab fe'llar

	Birlık	Ko'plik
I sh.	یاد نگرفته بودم	یاد نگرفته بودیم
II sh.	یاد نگرفته بودی	یاد نگرفته بودید
III sh.	یاد نگرفته بود	یاد نگرفته بودند

3. Old ko'makchili fe'llar

	Birlık	Ko'plik
I sh.	برنگشته بودم	برنگشته بودیم
II sh.	برنگشته بودی	برنگشته بودید
III sh.	برنگشته بود	برنگشته بودند

Uzoq o'tgan zamon fe'lining qo'llanishi

Uzoq o'tgan zamon fe'li ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligini bildiradi. Agar bir vaqtning o'zida ikki ish-harakatning o'tgan zamonda bajarilganligi haqida ma'lumot berilsa, ikkinchisiga nisbatan avvalroq bajarilgan ish-harakat uzoq o'tgan zamon fe'li shaklida qo'yiladi, ikkinchi ish-harakat esa sodda o'tgan zamonda yoki davomli o'tgan zamonda qo'yiladi.

[vaqtike be u telfon mikardam be dānešgāh rafte bud] - Unga telefon qilganimda universitetga ketgan ekan.

پدرم دیشب ساعت یازده به خانه آمد و من هنوز نخوانده بودم.
[Pedaram diruz sāat-e yāzdah-e šab be xāne āmad va man tā in vaqt naxābide budam] - Otam kecha kechqurun soat 11da uyga keldi va men o'sha vaqtgacha uxlamagan edim.

Uzoq o'tgan zamon fe'li ba'zi manbalarda o'tgan zamon hikoya fe'li deb ham yuritiladi.

12-mashq. Quyidagi fe'llarni uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklida tuslang.

دیدن - راه رفتن - برخاستن - پرسیدن.

13-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni uzoq o'tgan zamon fe'lida yozing.

ما پیش از شما به ایستگاه (رسیدن). نامه‌ی پدرم تا آن لحظه به دست من (رسیدن). ما دیوانه (شدن) تو چرا این قدر گیج (شدن)؟ آما از گرسنگی

kelganingda u endi uxlagan edi. Men Moskvaga poezdda borgan edim, samolyotda qaytdim. Uni necha oylab kutgan edim, nihoyat keldi va biz diydor ko'rishdik. Sizning salomingizni unga yetkazgan edim.

بي طاقت (شدن) ا وقتي كه به خانه رسيدى، من تقريباً نصف غذايم را (خوردن).
مذمماً است كه دايمي اش به شهر ديگر (رفتن). وقتي كه من صبحانه حاضر
كردم، او هنوز از خواب (بيدار شدن). تو اين موضوع را قبلاً به من (گفتن).
من تازه (خوابيدن) كه صداي دوستم به گوشم رسيد. كاشكي به مهماني
ديشب (آمدن) و يكدیگر را (ديدن). كاشكي در جواني، بيشتر (تحصيل
كردن).

14-mashq. Nuqtalar o'rniiga chap qatordagi so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

شما از سرما... شده بوديد. ماهي در هواي گرم، خيلي	فاسد - نااميد،
زود... مي شود. بعضي از آدمها زود... مي شوند. آنها	نصف شب، كبود،
تا ساعت دوي بعد از... بخوابيده بودند. كاشكي ولتان	بانكها - موفق شدن
را... و بيشتر مطالعه مي كرديد. كاشكي روزهاي شنبه	مردن، تلفن كردن
و يکشنبه... بسته نبودند. اگر دلتان مي خواهد... بايد	گفتن - بد بختانه،
كار كنيد و زحمت بكشيد. در تهران به من... كه مسكو	دانشكده ي پزشكي
براي كساني است كه از سرما ترسند... نيويورك شهر	گرفت
بسيار گراني است و پس از چند روز به كشور خود	
برگشتم. من شنيدم كه دوستم مي خواهد در... درس	
بخواند. پلر بزرگم....	

15-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

تابستان هوا ... است. زمستان هوا ... است. هوای مسکو از هوای تاشکند ... است. تابستان، هوای تهران از هوای شهرهای شمال ایران ... است. مار هر روز ... می‌شود. پاییز هوا هر روز ... می‌شود. ماه مارس در مسکو هنوز ... نیست. ماه اکتبر در تاشکند هنوز ... نیست. امروز نه ... و نه ... است.

10-mashq. Quyidagi gaplarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Bugun issiq. Kecha issiq edi. Oʻtgan kuni havo sovuq emasdi. Ertaga havo issiqroq boʻlarmikan? Yanvar oyida havo sovuqmi? Aprel oyida havo juda isib ketadimi? Sentabr oyida havo issiq ham, sovuq ham emas (na issiq va na sovuq). Fevral oyida havo aprel oyi havosidan sovuqroq. Iyul oyida havo may oyi havosidan issiqroq boʻladi. Avgust oyi 31 kun. Fevral oyi 28 yoki 29 kun. May oyi 30 kun. Darslarimiz sentabr oyida boshlanadi. Akam noyabr oyida tugʻilgan.

11-mashq. Nuqtalar oʻrniga chap ustunda berilgan soʻz yoki soʻz birikmalaridan keraklisini qoʻyib, koʻchiring va oʻzbek tiliga tarjima qiling.

من از دوستم پرسیدم: آیا تو می‌دانی ...	ایران چطور	گرما
است؟ دوستم از من ... که در بارسه‌ی آب و هوای	خواهش کردن	
ایران با او صحبت کنم. هوای جنوب ایران در	بالای صفر	
تابستان، مانند ... است. آب و هوای ایران در تمام ...	آب و هوا	
یکسان نیست. در ... ایران، هوا بسیار گرم است.	ناحیه - آفریقا	
تابستان گرمی هوا در تاشکند به ۴۰-۴۵ درجه ...	زیر صفر	

می‌رسد. ... تهران هیچوقت به اندازه‌ی ... تاشکند:	هیچوقت
نیست. ... تهران هیچوقت به اندازه‌ی ... آذربایجان	زمستانی
ایران نمی‌رسد. ماه‌های ... در تاشکند هوا سرد است.	جنوب - سرما
زمستان، هوای آذربایجان ایران سرد است و ... به ۳۰	برودت هوا
درجه ... می‌رسد. من ... در جنوب ایران نبودم.	

12-mashq. Nuqtalar oʻrniga havo haroratini ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalarini qoʻyib, koʻchiring va yozma tarjima qiling.

امروز هوا ... است. دیروز هوا ... بود. سرمای آذربایجان ایران به ... نمی‌رسد. گرمای شمال ایران هیچوقت به ... نمی‌رسد. سرمای جنوب ایران هیچوقت به ... نمی‌رسد. ماه‌های تابستانی در تاشکند، گرمی هوا از ... تا ... است.

13-mashq. Quyidagi jumalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Men jugʻrofiya oʻqituvchimizdan soʻradim: "Eronnig ob-havosi Afrikanikiga oʻxshaydimi?". Ular menga javob berdilar: "Yoʻq, oʻxshamaydi. Masalan, aytish mumkinki, Eron Ozarboyjonining havosi sovuq. Qishda sovuq 30 darajagacha yetib boradi". Men yana soʻradim: "Tehron shahrida yoz oylarida havo juda issiqmi?". Ular javob berdilar: "Ha, yoz oylarida Tehronning havosi juda issiq, lekin havoning issiqligi Eron janubidagidek emas". Keyin oʻqituvchimiz Ahmaddan soʻradilar: "Marhamat qilib, ayting, Eronnig marʼaziy tumanlarida yoz fasli uzoq davom etadimi?". Ahmad javob berdi: "Yoʻq, Eronning markaziy tumanlarida yoz fasli uncha uzoq davom etmaydi. Aksincha, janubiy tumanlarida yoz fasli juda uzoq davom etadi". Oʻqituvchimiz Hasandan soʻradilar: "Eronning qaysi tumanlarida yozda issiq 50 darajagacha yetib boradi?". Hasan javob berdi: "Eronning janubiy tumanlarida yozda issiq 50 darajagacha yetib boradi".

Beshinchi mashg'ulot

bāyestan – fe'li ishtirokida yasalgan shaxssiz iboralar

Oldingi mashg'ulotlarimizda shaxssiz gaplar kesimi qanday usullar orqali yasalishini ko'rib chiqib, uning tarkibida *šodan* va *šodan* شدن *tavānestan* fe'llari ishtirok etishi va uning ma'no yo'nalishlari bilan tanishgan edik. Shaxssiz iboralar yasalishida, shuningdek, *bāyestan* fe'li ham ishtirok etadi. Bunday birikmalarni yasash uchun *bāyestan* fe'lining III shaxs birlik bo'lishli yoki bo'lishsiz shakllariga asosiy fe'lining qisqa infinitiv shakli qo'shiladi. Fe'lining qisqa infinitiv shakli noaniq shakldan *an* – an qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan yasaladi:

raftan رفت → *raft* رفت; *goftan* گفت → *goft* گفت va h.k.

Masalan:

bāyad goft – aytish kerak **باید گفت**

nabāyad goft – aytish kerak emas **نباید گفت**

گفتگو

- احمد! ميتواني بگويي آب وهواي ايران چگونه است؟ آيا درست است که هواي ايران خيلي گرم و مانند آفريقا است؟
- بخير، هواي ايران در همه جا يکسان نيست، فقط جنوب ايران و مخصوصاً سواحل خليج فارس خيلي گرم است، ولي در بعضي نواحي شمال ايران و مخصوصاً در آذربايجان ايران، هوا روي هم رفته سرد و نواحي مرکزي ايران نه سرد و نه گرم است.
- هواي جنوب ايران در تابستان چطور است؟

- بايد گفت هواي نواحي جنوبي ايران و مخصوصاً سواحل خليج فارس بسيار گرم است. حرارت به ۵۰ درجه مي‌رسد، فقط در ماه هاي ژانويه و فوريه کمي سرد است، ماه هاي ديگر، گرم و تابستان، بسيار گرم است.

- هواي نواحي مرکزي ايران چطور است؟
- هواي نواحي مرکزي ايران مثل هواي نواحي جنوبي نيست، مثلاً ماه هاي بهار، مانند: مارس، آوريل، مه، نه سرد است و نه گرم، ولي ژوئن، گرم مي‌شود، ماه هاي ژوئيه، اوت و سپتامبر خيلي گرم است.
- هواي نواحي شمالي چطور است؟
- در بعضي نواحي شمالي، هوا روي هم رفته سرد است، مثلاً در آذربايجان ايران، سرما تا ۳۰ درجه مي‌رسد.

- سال نو در ايران، مثل اروپا از اول ژانويه آغاز مي‌شود؟
- بخير، اول ماه فروردين، يعني ۲۱ مارس – اول سال نو در ايران است. ايرانيان، سال نو را ۱۳ روز جشن مي‌گيرند و آن را عيد نوروز مي‌نامند.
- فصل پاييز، هواي قران چطور است؟
- ماه هاي پاييزي اکبر و نوامبر، هواي قران نه سرد و نه گرم است.
- زمستان قران، خيلي سرد است؟
- غمي شود گفت، زمستان قران خيلي سرد است. از ماه دسامبر هوا سرد مي‌شود و ماه هاي ژانويه و فوريه و قسمي از ماه مارس سرد است.
- نقاط سرد ايران کجاست؟
- نقاط سرد ايران، شهرهاي آذربايجان ايران است.
- فصل زمستان، سرما در اين نقاط تا چند درجه مي‌رسد؟

- در زمستان، برودت هوا در بعضی از شهرهای آذربایجان تا ۳۰ درجه می‌رسد.
- پس آنجا خیلی سرد است؟
- بله، در این نقاط هوا خیلی سرد است، تقریباً مثل بعضی نقاط روسیه است.

Leksik izohlar

بعضی *ba'zi-ba'zi* olmoshi o'zi aniqlayotgan otlardan oldin keladi va ular bilan ikki xil usulga ko'ra birikadi. Bunda aniqlanayotgan otlar doimo ko'plik shaklida turadi:

a) bitishuv usuliga ko'ra:

ba'zi dānešjuyān – ba'zi talabalar

ba'zi šahrhā – ba'zi shaharlar va h.k.

b) *az old ko'makchisi yordamida*:

ba'zi az dānešjuyān – talabalarning ba'zilari.

ba'zi az šahrhā – shaharlarning ba'zilari va h.k.

Mazkur birikmalarining tarjimalarida farqlar bo'lsa ham, ular ifodalayotgan ma'nolar bir xil, ya'ni ma'lum turkumdagi shaxs yoki predmetlar orasidan ba'zilari ajratib ko'rsatilmoqda.

14-mashq. Chap ustundagi so'z va so'z birikmalarini tegishli shakllarga solib, quyidagi jummalarni to'ldiring.

من همه‌ی کتابهای او را ... این کتابش را دوست دارم. هوای ... ایران و مخصوصاً سواحل خلیج فارس بسیار گرم است. گرامر زبان ازبکی ... دستور زبان فارسی نیست. هوای نواحی ... ایران از نواحی ... سردتر است. در ... شمال ایران، زمستان هوا خیلی سرد است. هوای	مثل-شمالی دیگر-چگونه مخصوصاً جنوب بعضی
--	--

آذربایجان ایران ... هوای بعضی نقاط روسیه است. احمد و دانشجویان ... هیچوقت در شمال ایران نبودند. قوم و خویش من نه فقط در تاشکند بلکه در ... شهرهای دیگر هم زندگی می‌کنند. آب و هوای ایران ... است؟	جنوبی شمال نواحی
--	------------------------

15-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining sinonimlarini toping va yozing.

تمام نواحی - گردش کردن - جشن - خیلی - مثل - چگونه - نامیدن -

پس از

16-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining antonimlarini toping va yozing.

هیچوقت - زیر صفر - قبل - آخر - گرم

17-mashq. Eronning ob-havosi haqida so'zlab bering.

18-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga tarjima qiling.

Fors tili va, ayniqsa, uning grammatikasi qiyin emas. Bahor faslining boshlarida Toshkent shahrining ob-havosi issiq ham, sovuq ham emas. Eronda yangi yil birinchi farvardin, ya'ni 21 martda boshlanishini bilish kerak. Eronning ba'zi shimoliy tumanlari, ayniqsa, Eron Ozarboyjonida, umuman olganda, havoning salqinligini esdan chiqarmaslik kerak. O'zbekistonning shimoliy mintaqalarida qishda havo ancha sovuq. Men va guruhimizning boshqa talabalari Eronning ob-havosi haqida so'zlab bera olamiz. Otamning ba'zi do'stlari O'zbekiston shimolida tug'ilishgan. Fors tili o'zbek tiliga o'xshaydimi?

O'N BIRINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Shart ergash gapli qo'shma gaplar

Shart ergash gap bosh gap tarkibidagi ish-harakat bajarilishiga tegishli bo'lgan ma'lum shartni ifodalaydi. Shart ergash gap bosh gapga *agar* – *agar-agar* ergashtiruvchi bog'lovchisi bilan birikadi.

Shart ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin joylashadi va talaffuzda undan kichik pauza bilan ajratiladi. Shart ergash gapning kesimi ifodalanayotgan shart turi va uning qaysi zamonga tegishli ekanligiga qarab turli fe'l shakllariga ega bo'lishi mumkin. Bosh gap tarkibidagi ish-harakat bajarilishiga qo'yiladigan shartlar ikki xil bo'ladi:

1. Noreal yoki amalga oshmaydigan shart. Agar bosh gapdagi ish-harakat bajarilishiga qo'yiladigan shart noreal, ya'ni amalga oshmaydigan shart bo'lsa, bunday holatda shart ergash gap va bosh gaplarning kesimi, asosan, o'tgan zamon davom fe'li shakliga ega bo'ladi: agar mening oldimga kelganingizda, men bu kitobni sizga bergan bo'lardim.

اگر پیش من می آمدید، این کتاب را به شما می دادم.

agar piš-e man miyāmadid in ketāb-rā bešomā midādam

Eslatma: بودن *budan-bo'lmoq*, *emoq* fe'li noreal shart ifodalashda aniq o'tgan zamon yoki o'tgan zamon davom fe'li shakllarida ishlatilishi mumkin: Agar shu yerda bo'lganingizda, bu kitobni sizga bergan bo'lardim.

اگر اینجا بودید (می بودید)، این کتاب را به شما می دادم.

budid (mibudid) in ketāb-rā bešomā midādam

Noreal shartni ifodalash uchun shart ergash gap tarkibidagi kesim uzoq o'tgan zamon fe'li shaklida ham ishlatilishi mumkin. Bunday holatlarda shart ergash gap va bosh gaplar tarkibidagi ish-harakatlar zamonlarining bir-biridan aniq ajralib turishi ko'rsatiladi:

Agar bu kitobni o'qib bo'lgan bo'lganingizda, uni menga bergan bo'lardingiz.

agar in ketāb-rā اگر این کتاب را خوانده بودید، آن را به من می دادید.

xānde budid ān-rā beman midādid

2. Real, ya'ni amalga oshishi mumkin bo'lgan shart. Real shart o'z mohiyatiga ko'ra hozirgi yoki kelasi zamon yo'nalishiga ega bo'ladi. Kelasi zamon yo'nalishiga ega shartni ifodalash fors tilida quyidagi fe'l shakllari orqali amalga oshiriladi:

a) hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli shakli (aorist) yordamida:

Agar mening oldimga kelsangiz bu kitobni sizga beraman.

اگر پیش من بیاید، این کتاب را به شما می دهم.

in ketāb-rā bešomā mideham

b) aniq o'tgan zamon fe'li shakli yordamida:

Agar singlimni ko'rsang bu kitobni unga ber.

اگر خواهر کوچکم را دیدی، این کتاب را به او بده

agar xāhar-e kučekam-rā didi in ketāb-rā be u bedeh

Aniq o'tgan zamon fe'li bunday holatlarda kelajakka yo'nalgan ish-harakatni ifodalaydi.

Demak, kelasi zamonga yo'nalgan real shart fe'lining aorist va aniq o'tgan zamon fe'li shakllari yordamida ifodalanadi.

Hozirgi zamon bilan bog'liq real shartlarni ifodalash uchun quyidagi fe'l shakllari ishlatiladi:

a) hozirgi kelasi zamon fe'li:

Boshing og'riyotgan bo'lsa, ozgina dam ol.

اگر سرت درد می کند، کمی استراحت کن

agar sarat dard mikonad kami esterāhat kon

b) o'tgan zamon natijali fe'li:

Xatni yozib bo'lgan bo'lsang, ukangga jo'nat

اگر نامه را نوشته ای، به برادرت بفرست

agar nāme-rā navešte-i be barādarat beferest

c) aniq o'tgan zamon fe'li:

Agar hali ham uni ko'rmagan bo'lsang, biznikiga kel.

اگر هنوز او را ندیدی، به خانه ی ما بیا

agar hanuz u-rā nadidi be xāne-ye mā biyā

اگر دو روز بعد، او را در دانشگاه ببینی، به او بگو که من خواهش می‌کنم، کتاب لغت فارسی به روسی را به من بدهد. اگر بخوای، با هم به قرائت خانه می‌رویم. اگر می‌توانستم، بتأثر می‌رفتم. اگر به مغازه بروم، برای زخم نخ و سوزن می‌خرم.

2-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli zamonning bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklida ishlatib, jummalarni ko'chirib yozing va yozma tarjima qiling.

اگر فردا هوا گرم (بودن)، با هم به گردش می‌رویم. اگر شما دوست مرا پس فردا (دیدن)، او را به خانه‌ی خود دعوت بکنید. اگر دو ماه بعد، خانه‌ی ما (آمدن)، مادر مرا نمی‌بینید، زیرا او می‌خواهد به شهر سفر کند. اگر این کتاب را (خواندن)، به من بدهید. اگر زبان فارسی را نمی‌دانستم (توانستن) با او به فارسی گفتگو کنم. اگر هوا خوب می‌شد، ما بعد از درس (گردش کردن). اگر سرم (درد کردن)، پیش تو می‌آمدم و روز تولدت را به تو (تبریک گفتن). اگر دیروز درس فردارا (حاضر کردن)، امروز می‌توانید به تأثر بروید. اگر شما با این نویسنده آشنا (بودن)، من شما را با او آشنا می‌کنم.

3-mashq. Quyidagi jumlar talaffuzini diqqat bilan tinglab baland ovoz bilan takrorlang.

اگر هوا خوب باشد، به گردش می‌رویم. اگر او را دیدید، این کتاب را به او بدهید. اگر سرت درد می‌کند، استراحت کن. اگر پایت درد نمی‌کرد، با هم می‌رفتیم. اگر این کتاب را می‌خواندید، به من می‌دادید. اگر او را نمی‌شناخید، شما را با او آشنا می‌کنم. اگر درس فردارا تا شب حاضر بکنم، تأثر می‌روم.

O'tgan zamon natijali va aniq o'tgan zamon fe'llari yordamida ifodalanuvchi real shartlar, yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, ish-harakatning yoki holatning gapirib turilgan paytdagi vaziyati bilan bog'liq shartlardir, ya'ni ish-harakat bajarib bo'lingan, uning natijasi yoki oqibati hozirgi paytda aniq ma'lum.

Real shart ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi bosh gaplar kesimi ham hozirgi yoki kelasi zamon yo'nalishlariga ega bo'ladi va tegishli fe'l shakllari (aorist, buyruq fe'li, hozirgi-kelasi zamon fe'li, aniq kelasi zamon fe'li) bilan ifodalanadi.

1-mashq. Quyidagi jummalarni o'qing va tarjima qiling:

اگر او را می‌دیدم با او به زبان فارسی گفتگو می‌کردم. اگر امروز، روز تعطیل بود، کار نمی‌کردم، بلکه استراحت می‌کردم. اگر با او رفیق نبود، روز تولدش را به او تبریک نمی‌گفتم و به او هدیه نمی‌دادم. اگر سرم درد نمی‌کرد پیش پزشک نمی‌رفتم. اگر هوا خوب بود به پارک می‌رفتم و آنجا گردش می‌کردم. اگر دیروز بیمار نمی‌شدم، حتماً پیش تو می‌آمدم. اگر پایت درد نمی‌کرد، با هم گردش می‌رفتم. اگر درس فردارا حاضر کرده بودم، بتأثر می‌رفتم. اگر درس تمام شده بود، دانشجویان به خانه می‌رفتند.

اگر هوا گرم بشود، گردش می‌رویم. اگر او را دیدی، به او بگو که احمد هر دوی ما را به خانه‌ی خود دعوت می‌کند. اگر نتوانید این جمله را ترجمه کنید، به من بگویید. اگر فردا هوا خوب بشود، برای گردش، بیرون شهر می‌رویم. اگر سرت درد می‌کند، پیش دکتر بروا اگر او را دیدی، روز تولدش را به او تبریک بگو! اگر اسمش را فراموش کردید، من به شما می‌گویم. اگر زبان فارسی را یاد بگیری، می‌توانی این حکایت را بخوانی و ترجمه کنی. اگر او را می‌شناخید، ما هم با او آشنا کنید. اگر مقاله‌ی او را حتی یک بار بخوانید، آن را فراموش نمی‌کنید. اگر این جمله را ترجمه کرده اید، جمله دیگر را ترجمه کنید. اگر دیروز به او تبریک نگفتید، امروز بگویید!

4-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga yozma tarjima qiling:

Agar ertaga oldimga kela olmasangiz, indinga keling. Agar bu kitobni ertagacha o'qib bo'lsang, uni keyin menga ber. Oyog'ing og'riyotgan bo'lsa, shifokorning oldiga bor. Agar indinga havo yaxshi bo'lsa, parkka boraylik! Agar xohlaganingda, bu jumlaning tarjima qilgan bo'larding. Agar imkonim bo'lganida, bu kitobni o'qib chiqardim. Agar tushlik qilib bo'lganimda, ukam bilan shaxmat o'ynardim. Agar bu yozuvchi bilan tanishib olgan bo'lsang, meni ham u bilan tanishtirib qo'y. Agar sen bu hikoyani tarjima qilib bo'lgan bo'lsang, forscha-o'zbekcha lug'atingni menga berib tur. Agar ertangi darslarimizni tayyorlab qo'ygan bo'lganimizda, teatrga bora olardik. Agar kechasi havo yaxshi bo'lganida, parkka borardik. Agar u mening do'stim bo'lmaganida, uyga taklif qilmasdim. Agar talaba yaxshi javob bermasa, o'qituvchi undan qoniqmaydi (rozi bo'lmaydi). Agar hamma joyda fors tilida suhbatlashsak, fors tilini tezroq va yaxshiroq o'rganib olishimiz mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Agar ertaga attorlik do'koniga borsang, menga igna va ip sotib ol. Agar akam kasal bo'lib qolmasa, parkka boramiz.

Ikkinchi mashg'ulot

نده - *ande* qo'shimchasi yordamida yasaluvchi hozirgi zamon sifatdoshi

- نده - Sifatdoshlarning bu turi fe'lning hozirgi zamon negiziga *ande* qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi: *naveštan* نوشتن → yozmoq *navis* نویسنده → *navisande* فروختن *foruxtān*-sotmoq → *foruš* فروش → *forušande* فروشنده va h.k.

Mazkur sifatdoshlar hozirgi zamon fors tilida o'zlarining fe'llik va sifatlik xususiyatlarini deyarli to'liq yo'qotgan va ko'pincha ot sifatida ishlatiladi.

نده نویسنده *navisande* - yozuvchi

نده فروشنده *forušande* - sotuvchi

آنه - *āne* qo'shimchasi yordamida yasalgan nisbiy sifatlar

Ot turkumiga oid so'zlarga آنه - *āne* qo'shimchasini qo'shish yordamida nisbiy sifat yasash mumkin. Bunday sifatlar o'sha predmet yoki shaxslarga xos yoki ular bilan bog'liq belgi xususiyatlarni ifodalaydi:

مرد *mard* - erkak → مردانه *mardāne* - erkaklarga xos, tegishli

زن *zan* - ayol → زنانه *zanāne* - ayollarga xos, tegishli.

Agar ot ه - *e* tovushi bilan tugasa, yozuvda so'z oxiridagi ه - *e* o'rniga آنه - *āne* qo'shimchasi oldidan گ harfi orttiriladi: بچه *bačē* "bola" → بچه‌گانه *bačegāne* - bolalarga xos, tegishli.

5-mashq. Quyidagi fe'llardan نده - *ande* qo'shimchasi yordamida hozirgi zamon sifatdoshlarini yasang.

جستن، آمدن، گفتن، برخاستن، فرورفتن، شرکت کردن، تشکیل دادن، انجام گرفتن، خواندن، بردن، خوردن، زدن، صادر کردن، وارد کردن، یافتن.

6-mashq. Quyidagi otlardan آنه - *āne* qo'shimchasi yordamida nisbiy sifatlar yasang va ular yordamida so'z birikmalari tuzing.

مرد، زن، بچه، برادر، دوست، ماه، ماهر، صادق، صبح، شب، خوشبخت، خواهر، جاوید، پسر، دختر.

7-mashq. Jummalardagi nuqtalar o'rniga hafta kunlari nomini qo'yib yozing va tarjima qiling.

امروز ... است، پس دیروز ... بود و فردا ... می‌شود. روز استراحت ایرانیان ... است، روز تعطیل ما ... است. دیروز ... بود، پس پریروز ... بود. امروز ... است، فردا ... و پس فردا ... می‌شود. دوستم روز ... به تاشکند

مي آيد و چهار روز بعد يعني ... مي رود. امتحان اول ... است، امتحان دوم، دو روز بعد، يعني ... است.

8-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Ba'zi Eron yozuvchilarining asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Majlis ishtirokchilari soat 10 da majlislar zaliga yig'ildilar. Qidirgan topadi. "Xalq so'zi" ro'znomasi muxbir va xodimlari o'z o'quvchilari bilan uchrashib, ularning savollariga javob berdilar. Magazinnig bu bo'limida besh nafar sotuvchi ishlaydi. Otam bir juft erkaklar qo'liqopi sotib oldi. Ayollar ko'ylaklari bo'limida xaridorlar ko'p edi. Bolalar poyabzali bo'limi uchinchi qavatda joylashgan. Tojikistonga qo'shni mamlakatlardan do'stona yordam yetib keldi. Uning akalarcha maslahati menga juda yordam berdi. Nonushtadan so'ng portfelimni olaman va maktabga jo'naيمان.

Uchinchi mashg'ulot

در مغازه ي لباس فروشي

ديروز يکشنبه روز استراحت بود. صبح براي خريد لباس با مادرم به مغازه ي لباس فروشي رفتم. اين مغازه، بسيار بزرگ و تازه باز شده است و در خيابان نوايي نزديک ايستگاه چارسو است. اين مغازه خيلي زيبا است و شعبات زياد، از جمله شعبه ي لباس مردانه، شعبه ي لباس زنانه و شعبه ي لباس بچگانه دارد.

وارد مغازه شديم. اول به شعبه ي مردانه رفتم. آنجا لباسها زياد و در مدل هاي گوناگون بود. مادرم گفت: کت و شلواي براي خود انتخاب کن. کت و شلوار زياد بود. پس از آنکه رنگ و پارچه ي کت و شلواي را انتخاب کردم، از فروشنده خواهش کردم اجازه دهد تا آثارا بپوشم و اگر خوشم آمد بخرم. فروشنده اجازه داد. کت و شلوار را پوشيدم، شلوار کوچک

بود. فروشنده، کت و شلوار ديگري به هين رنگ آورد. آن را هم پوشيدم، ولي به اندازه ي من نبود، کت برايم بزرگ بود. چند کت و شلوار ديگر امتحان کردم، ولي از هيچک خوشم نيامد: يا بزرگ بود يا کوچک. مادرم از يك کت و شلوار، خيلي خوشش آمد، ولي من از رنگ پارچه اش بدم آمد و نخريدم. فقط يك شلوار تابستاني خريدم. از شعبه ي مردانه خارج شدم و به شعبه ي زنانه رفتم. مادرم مي خواست براي خود بلوزي از ابريشم خالص و دامن يا پيراهن تابستاني بخرد. در شعبه ي زنانه، مانند شعبه ي مردانه لباس زياد بود. فروشنده چند بلوز سفيد به ما پيشهاد کرد. مادرم از يك بلوز بسيار خوشش آمد و ما آن را خريديم. بعد از آن، فروشنده چند دامن سياه در مدل هاي گوناگون به ما پيشهاد کرد. مادرم از رنگ و پارچه ي يك دامن خوشش آمد. از فروشنده خواهش کرد اجازه بدهد آن را بپوشد. فروشنده اجازه داد. مادرم دامن را پوشيد، دهد برايش بزرگ است. از فروشنده خواهش کرد، يك دامن ديگري به همان مدل و رنگ و از پشم خالص برايش بياورد. فروشنده، دامن ديگري آورد. مادرم آن را پوشيد و خوشش آمد. اين دامن را خريدم. از شعبه ي زنانه خارج شدم و به شعبه ي بچگانه رفتم. در آنجا ژاکت، بلوز و دامن و پيراهن بچگانه زياد بود. من و مادرم از يك ژاکت آبي رنگ خوشمان آمد و براي خواهر کوچکم خريدم. به مول برگشتم، ژاکت را به خواهر کوچکم دادم و او پوشيد. ژاکت به اندازه ي او بود. خواهرم از رنگ و مدلش خيلي خوشش آمد و از ما تشکر کرد. بعد از ناهار، مادرم بلوز و دامن تازه را پوشيد و با هم به پارک رفتم.

Leksik izohlar

خوش آمدن *xoš āmadan* va *بد آمدن* *bad āmadan* fe'llarining ishlatilishi.

خوش آمدن – *xoš āmadan* fe'li kishiga biror predmet yoki shaxs yoqqan holatlarni, *بد آمدن* – *bad āmadan* fe'li esa, aksincha, ya'ni yoqmagan holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur fe'llarning tuslanishi boshqa murakkab fe'llardan farq qiladi. Ularni shaxs-sonda tushlash uchun egalik qo'shimchalaridan foydalaniladi. Egalik qo'shimchalari bu murakkab fe'llarning ismiy qismiga, ya'ni *خوش* – *xoš* va *بد* – *bad* so'zlariga qo'shiladi. Murakkab fe'lning fe'l qismi, ya'ni *آمدن* *āmadan* fe'li esa tegishli zamonning faqat III shaxs birlik shaklida ishlatiladi.

خوشم آمد *xoš-am āmad* – menga yoqdi

بدم آمد *bad-am āmad* – menga yoqmad

خوشم می آمد *xoš-aš miyāmad* – unga yoqardi

بدش می آمد *bad-aš miyāmad* – unga yoqmasdi

خوشتم می آید *xoš-at miyāyad* – senga yoqyapti

بدت می آید *bad-at miyāyad* – senga yoqmayapti va h.k.

Mazkur fe'llar kesim vazifasini bajargan gaplar tarkibidagi to'ldiruvchi, ya'ni yoqayotgan (yoqmayotgan) predmet yoki shaxs nomini ko'rsatuvchi so'z doimo *az* old ko'makchisi bilan ishlatiladi.

از این کتاب، خوشم (خوشتم، خوشتان، خوششان) می آید.
az in ketāb xoš-am (xoš-at, xoš-aš, xoš-emān, xoš-etān, xoš-ešān) miyāyad.

Bu kitob menga (senga, unga, bizga, sizlarga, ularga) yoqadi.

از کتاب، بدم (بدت، بدش، بدمان، بدتان، بدشان) می آید

az in ketāb bad-am (bad-at, bad-aš, bad-emān, bad-etān, bad-ešān) miyāyad.

Bu kitob menga (senga, unga, bizga, sizga, ularga) yoqmaydi.

Gap tarkibidagi ega murakkab fe'lning ismiy qismiga qo'shiluvchi egalik qo'shimchalari yordamida ifodalanadi. Ba'zan u gap tarkibida alohida mustaqil so'z yoki so'z birikmasi bilan ham berilishi mumkin. Bunday hollarda ega jumlaning boshida keladi va kichik pauza bilan ajratiladi:

دانشجو از این کتاب، خوشش آمد. *dānešju az in ketāb xoš-aš āmad* – Talabaga bu kitob yoqdi.

استاد ما از جواب من خوشش نیامد. *ostād-e mā az javāb-e man xoš-aš nayāmad* – O'qituvchimizga mening javobim yoqmad.

Eslatma. Ko'rinib turganidek, bunday ma'nolarni ifodalovchi jumlar o'zbek va fors tillarida bir-biridan farqli usulda tuziladi. Fors tilidagi jumlada to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi so'z o'zbek tilida ega va, aksincha, o'zbek tilidagi gapda to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi so'z fors tilida ega vazifasida keladi. Qiyoslang:

Bu kitob menga yoqdi

Kitob – ega

Menga – vositali to'ldiruvchi

من از این کتاب خوشم آمد.

من – ega

کتاب – vositali to'ldiruvchi

وارد شدن *vāred šodan* – "kirmoq" va *خارج شدن* *xārej šodan* – "chiqmoq" fe'llarining ishlatilishi.

وارد شدن fe'li gap tarkibida o'rin holi ifodalangan holatlarda distant (ramkali) tuzilma ko'rinishida ishlatiladi.

Qiyoslang:

ما به اتاق وارد شدیم. *mā be otāq vāred šodim* – Biz xonaga kirdik.

ما وارد اتاق شدیم. *mā vāred-e otāq šodim* – Biz xonaga kirdik.

ب - از این مقاله خوشم نمی آید. از این لباس خوشش نمی آید. از مدل ژاکت خوشش نمی آید. از این مغازه بدمان نیامد. از کت و شلوارش بدتان نمی آید؟ از رنگ بلوزش بدشان نیامد.

ج - آیا از این کتاب خوشتان می آید؟ مگر از بلوز او خوشش می آید؟ آیا از کت و شلوارش خوشتان آمد؟ آیا از زبان فارسی خوشتان می آید؟ مگر از این خیابان بدتان می آید؟ مگر از این مغازه بدتان آمد؟ آیا از آب و هوای ایران بدشان آمد؟

د - مگر از این حکایت خوشتان نمی آید؟ مگر از پیراهن این دختر، خوشش نمی آید؟ مگر از شهر مسکو خوشتان نیامد؟ آیا از کتاب این نویسنده خوشتان نمی آید؟ مگر از زبان فارسی خوشش نمی آید؟

12-mashq. Fors tiliga yozma tarjima qiling.

Menga Vatanimiz poytaxti Toshkent shahri juda yoqadi. Senga singlimning yangi ko'ylagi yoqdimi? Guruhimiz talabalariga fors tili juda yoqadi. Bizga bu yangi kiyim-kechak magazini juda yoqdi. Senga bu bluzka yoqmadi. Sizga bu gazlama yoqdimi? Akamga mening kostyum-shimim yoqmadi. Onamga bu dasturxon yoqdi.

13-mashq. Jumalardagi nuqtalar o'rni chap ustunda berilgan so'z va so'z birikmalari bilan to'ldirib, ko'chirib yozing va tarjima qiling.

گوناگون	این مغازه ی لباس فروشی ... باز شده است. در این
خارج شدن	مغازه ی لباس فروشی چند شعبه هست، مثلاً شعبه ی ...
خریدن - پوشیدن	شعبه ی ... و چند شعبه دیگر. در شعبه ی لباس مردانه ...
لباس زنانه	می فروشند. بعد از آنکه من این کت و شلوار را ...
امتحان کردن	و خوشم آمد، آن را استاد ... که دانشجویان
تازه	وارد کلاس بشوند. من و زخم لباس تازه ... و به تأثیر تازه

az old ko'makchisining ishlatilishini talab qiladi: fe'li esa از خارج شدن

Biz xonadan chiqdik. - mā az otāq xārej šodim - ما از اتاق خارج شدیم.

9-mashq. O'qing va tarjima qiling.

از این لباس، خوشم می آمد. از رنگ این لباس، خوشش می آید. از مدل این ژاکت خوشش نیامد. آیا از رنگ و مدل این بلوز خوششان می آید؟ چرا از این کت و شلوار خوششان نیامد؟ من از این آرایشگاه بزرگ، خوشم می آید. مادرم از این رومیزی خیلی خوشش آمد. چرا از این پیراهن بدت می آید؟ مگر از این پیراهن آبی رنگ بدتان می آید؟ آیا از این مغازه خوشتان می آید؟ مادرم از این مغازه ی لباس فروشی خیلی خوشش آمد. خواهرم از پارچه ی پالتوی من بدش نیامد.

10-mashq. Savollarga javob bering.

آیا از پیراهن خواهرتان خوشتان می آید؟ مگر از رنگ این دامن خوشتان می آید؟ آیا از پارچه ی این پالتو بدتان می آید؟ مگر از زبان فارسی خوشتان می آید؟ آیا از کتاب های این نویسنده خوشتان می آید؟ مگر از رنگ این پیراهن بدتان می آید؟ آیا از این آرایشگاه خوشتان می آید؟ مگر از این رومیزی بدش آمد؟

11-mashq. Jumalarning talaffuzini diqqat bilan tinglab, baland ovoz bilan takrorlang.

الف - از این کتاب خوشم می آید. از پیراهن تو خوشم می آید. از این لباس خوشش می آید. از این حکایت بدمان می آید. از این کتاب بدتان آمد. از کت و شلوارش خوششان آمد؟

جلو هدیگر نشستم. استادان کي وارد اتاق می شود؟ دانشجویان کي وارد اتاق می شوند؟

16-mashq. Fors tiliga yozma tarjima qiling.

Yaqinda Navoiy ko'chasida, "Paxtakor" metro bekati yonida yangi kiyim-kechak magazini ochildi. Bu katta magazinda juda ko'p bo'limlar, masalan: erkaklar kiyim-boshi, bolalar kiyim-kechaklari, ayollar ko'ylaklari va bir qancha boshqa bo'limlar bor.

Bolalar kiyim-kechaklari bo'limida turli xil kiyim-kechaklar, masalan: ko'ylaklar, yubkalar, bluzkalar, nimchalar sotiladi. Bu yerda qiz bolalar uchun arzon va chiroyli ko'ylaklar tanlash mumkin. Yakshanba kuni men va onam kiyim-kechaklar magaziniga bordik. Biz magazinga kirdik va oldin bolalar kiyim-kechaklari bo'limiga bordik. Singlim bizdan unga yubka va kofta sotib olishimizni iltimos qilgan edi. Bolalar kiyim-kechaklari bo'limida chiroyli kiyim-kechaklar juda ko'p edi. Onam oq kofta tanladilar. Bu kofta menga ham juda yoqdi va biz uni xarid qildik. Biz sotuvchidan so'radik: "Erkaklar kostyum-shimini qayerdan sotib olsa bo'ladi?" Sotuvchi javob berdi: "Erkaklar kiyim-boshi bo'limida". Biz erkaklar kiyim-boshi bo'limiga bordik. U yerda turli bichimdagi kostyum-shimlar ko'p edi. Menga bir qora kostyum-shim juda yoqdi. Men sotuvchidan iltimos qildim: "Menga bu kostyum-shimni kiyib ko'rishga ruxsat bersangiz. Agar u menga loyiq kelsa, sotib olaman". Sotuvchi o'sha kostyum-shimni olib keldi. Men uni kiyib ko'rdim. Kostyum menga kichik keldi. Sotuvchi xuddi shu rangdagi boshqa kostyum-shim keltirdi. Men uni ham kiyib ko'rdim. Shimi kattaroq keldi. Sotuvchi uchinchi kostyum-shimni olib keldi. U kostyum-shim menga loyiq keldi. Biz kostyum-shimni sotib oldik va magazindan chiqdik. Biz uyga qaytib kelgan vaqtimizda singlim bizni kutib turgan ekan. Biz koftani unga berdik. Singlim koftani kiyib ko'rdi. Kofta unga loyiq keldi va juda yoqdi.

17-mashq. Quyidagi maqollarni yodlab oling.

ضرب المثل ها

juyande yābande ast – Izlagan topadi. (عاقبت جوینده، یابنده است!)

رفتم. خواهرم چند بلوز سفید ... ولی از هیچیک
خوشش نیامد. من از اتاق ... و او را در راهرو دیدم. فروشنده - همین
دخترم ... و از من خواهش کرد که با او شطرنج بازی
کنم. از ... خواهش کردم که کت و شلوار دیگری به
همین رنگ بیاورد. از او خواهش کردم که ... جمله را
تکرار کند. از این ... خوشم می آید. از ... آبی رنگش
بسیار خوشم می آید. خواهرم ... سیاه و ... سفید
می پوشد. هالو، کت و شلوار، پیراهن، ژاکت، بلوز و
لباسهای دیگری در ... می فروشد. چرا از مدل و ...
این کت و شلوار بدتان می آید؟ من از پارچه ی این
هالو خوشم می آید ولی از ... بدم می آید. خواهرم از
این ... خیلی خوشش آمد.

14-mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalaridan jumlar tuzing.

وارد شدن - دانشیار - کلاس مادرم - اتاق - خارج شدن
يك اتاق - خارج شدن - من - وارد شدن - اتاق - دیگر
برادر - انتخاب کردن - همین کت و شلوار دخترانه - خوش آمدن -
پیراهن آبی رنگ
من - دوستم - وقتی که - وارد شدن - اتاق - امتحان کردن - کت و
شلوار تازه

15-mashq. Jumlar talaffuzini diqqat bilan tinglab, baland ovoz bilan takrorlang.

استاد وارد اتاق شد و درس را شروع کرد. وارد اتاق شدم و او را دیدم.
من وارد مغازه شدم و به شعبه ی لباس مردانه رفتم. ما وارد قرائتخانه شلیم و

zabān-e sorx sar-e sabz midehad - زبان سرخ، سر سبز می دهد بر باد!
bar bād - Til yugurigi boshga (aynan: qizil yugurik til yashil (xom)
boshni shamolga sovradi).

To'rtinchi mashg'ulot

گفتگو

- دیروز شما چه خریدید؟
- دیروز ما برای مادرم و خواهر کوچکم و من لباس خریدیم.
- لباسها را از کجا خریدید؟
- از مغازه ی لباس فروشی
- این مغازه ی لباس فروشی کجاست؟
- این مغازه ی لباس فروشی تازه باز شده و در خیابان نوایی نزدیک ایستگاه پخته کار است.
- این مغازه، خیلی بزرگ و زیباست؟
- بله، این مغازه خیلی بزرگ و زیباست و چند شعبه (غرفه) دارد.
- مثلاً چه شعباتی (غرفه هایی)؟
- شعبه ی لباس مردانه، شعبه ی لباس زنانه، شعبه ی لباس بچه گانه، شعبه ی کلاه فروشی و غیره.
- در شعبه ی مردانه چه نوع لباسهایی بود؟
- در آنجا همه نوع لباس بود: لباسهای تابستانی و زمستانی مردانه، مانند: کت و شلوار نخی، کت و شلوار پشمی، شلوار جداگانه، کت و غیره.
- لباسهای زنانه چطور؟

- لباسهای زنانه هم از همه نوع بود: پیراهن پشمی، پیراهن تابستانی، زمستانی، پیراهن برای شب نشینی، کت و دامن، بلوز و غیره.
- لباسهای زنانه چه رنگی داشت؟
- گوناگون بود: آبی رنگ، زرد، سبز، سفید، پشت گلی و غیره.
- گفתי برای خواهر کوچکت هم لباس خریدید. برایش چه خریدید؟
- دیروز وقتی که از خانه بیرون می آمدم، خواهر کوچکم به من گفت: اگر ژاکت قرمز رنگ یا سبز دیدید، برایم بخرید و یا اگر پیراهن آبی رنگ هم دیدید، برایم بخرید. ما برایش ژاکت خریدیم.
- ژاکت چه رنگی داشت؟
- ژاکت قرمز رنگ داشت.
- خواهر کوچکت از ژاکت خوشش آمد؟
- بله، ژاکت به اندازه ی او بود، خیلی خوشش آمد و از ما تشکر کرد.
- برای مادرت چه خریدید؟
- برای مادرم دو پیراهن خریدم، یک پیراهن ابریشمی تابستانی و یک پیراهن پشمی.
- پیراهنها چه رنگی بود؟
- پیراهن پشمی، خاکستری رنگ بود. مادرم از رنگ و دوختش خیلی خوشش آمد. ولی پیراهن ابریشمی تابستانی، سبز رنگ بود.
- برای خودت چه خریدی؟
- برای خودم شلوار نخی تابستانی خریدم.
- این شلوار، چه رنگی است؟
- این شلوار، خاکستری رنگ است.

- مادرت از این شلوار خوشش آمد؟
 - بله، بدش نیامد. گفت: برای تابستان مخصوصاً هوای گرم بد نیست، ولی اگر قهوه ای رنگ بود، بهتر بود.

Leksik izohlar

1. *nau* - "tur", "xil" so'zi quyidagi birikmalar tarkibida ishlatiladi va tegishli ma'nolarni ifodalaydi:

ĉe-nau - qanday? چه نوع

in-nau - shunday, shu xildagi, shu turdagi این نوع

hame-nau - turli-tuman, xilma-xil همه نوع

Agar bu birikmalarga aniqlovchi vazifasi yuklansa, ular aniqlanayotgan so'zlardan oldin keladi va ular bilan bitishuv usulida (izofasiz) birikadi. Masalan:

ĉe-nau' lebāshā - qanday ko'ylaklar? چه نوع لباسها

in nau' lebāshā - shu turdagi ko'ylaklar این نوع لباسها

hame nau' lebāshā - xilma-xil liboslar همه نوع لباسها

2. *yād āmadan* - eslamoq, esga tushurmoq va [az] *yād raftan* - esdan chiqarmoq, unutmok fe'llarining ishlatilishi.

Mazkur murakkab fe'llar jumla tarkibida quyidagicha ishlatiladi.

Bu fe'llar kesim vazifasida kelgan gaplarda ega vazifasi eslanayotgan yoki unitilayotgan predmet yoki shaxsni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasiga yuklanadi. Fe'lining ismiy qismi, ya'ni *yād* so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilib eslovchi yoki unituvchining shaxsi belgilanadi. Murakkab fe'llarning fe'liy qismlari, ya'ni *āmadan* va *raftan* fe'llari faqat tegishli fe'l

xoš خوش آمدن). zamonining III shaxs birlik shaklida ishlatiladi. (*āmadan* - yoqmoq fe'lining tuslanishini eslang).

esm-e u [be] yād-am āmad - Men uning ismini esladim (aynan: uning ismi yodimga tushdi).

esm-e u [az] yād-am raft - Men uning ismini esdan chiqardim (aynan: uning ismi yodimdan chiqdi).

old ko'makchilari jumla tarkibidan tushib qolishi ham *va* *az* mumkin.

yād so'ziga, bo'lishsiz shakllarda *Urg'u* bo'lishli shakllarda *yād* inkor yuklamasiga tushadi.

fe'llari ishlatilgan gaplarda ega o'rinda butun boshli ergash gaplar ham ishtirok etishi mumkin. Bunday ergash gaplar tegishli fe'ldan keyin kelib, *ke* bog'lovchisi orqali birikadi va talaffuzda kichik pauza bilan ajratiladi.

yād-am āmad ke دوستم امشب به خانه ی ما می آمد. *dustam emšab xāne-ye mā miyāyad* - Do'stim bugun kechqurun biznikiga kelishi esimga tushdi.

yād-am raft ke fardā ruz-e ta'til ast - Ertaga dam olish kuni ekanligi esimdan chiqibdi.

3. *yād raftan* [az] - [az] *yād raftan* *farāmuš kardan* va *raftan* fe'llari bir xil tarjima qilinadi - "unutmok", "esdan chiqmoq". Ammo ular ifodalayotgan ma'nolar har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi.

kim yoki *nimanidir* unutmok" ma'nosini ifodalaydi.

man u-rā farāmuš karde-am - Men uni unutganman; *man esm-e u-rā farāmuš karde-am* - Men uning ismini unutganman; *man* *esm-e u-rā farāmuš karde-am* - Men uning ismini unutganman; *man* *esm-e u-rā farāmuš karde-am* - Men uning ismini unutganman;

خیابان است. مگر اسم این پزشک را فراموش کردی؟ مگر استاد خود را فراموش کرده اید؟

21-mashq. [از] یاد رفتن va آمدن [به] fe'llari ishtirokida 8 ta jumla tuzing va yozing.

22-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Bu yozuvchining qachon tug'ilganligi esimdan chiqdi. Ertaga uning tug'ilgan kuni ekanligi esimizga tushdi. Kiyim-kechaklar magazinini metro bekati yaqinida joylashganligi esimga tushdi. Men do'stimni esimdan chiqarmadim va uni tug'ilgan kuni bilan tabrikladim. Men uning yangi ko'ylagi bichimini esladim. Ular لباس so'zi ma'nosini esdan chiqarib qo'yidilar va forscha jumlaning o'zbek tiliga tarjima qila olmadilar. Do'stlarni unutish kerak emas.

23-mashq. Quyidagi asliy sifatlardan mavhum otlar yasang.

زرد - سیاه - سبز - سرخ - سفید - بزرگ - راست - فراوان

24-mashq. "Kiyim-kechaklar magazinida" mavzusi bo'yicha do'stingiz bilan suhbat tayyorlang.

25-mashq. Fors tiliga tarjima qiling:

Ayollar kiyimi bo'limida turli-tuman yozgi va qishki kiyimlar, masalan: ip gazlamali, jun matoli, shoyi kiyim va ko'ylaklar bor. Ip gazlamali ko'ylak shoyi ko'ylakdan, shoyi ko'ylak jun matoli ko'ylakdan arzonroq. Onam shoyi ko'ylakni kiyib ko'rди va u unga juda yoqdi. Onamga bu jigarrang ayollar kostyumi yoqmadi va biz kulrang kostyum sotib oldik. Bosh kiyimlar bo'limida chiroyli shlyapalar juda ko'p. Men kichik qizimga pushti yoki yashil rangli ko'ylak sotib olmoqchiman. Sizga qaysi rangli shoyi ko'ylak yoqadi-sariq ranglisimi yoki qizili? Bolalar kiyim-kechagi bo'limida turli-tuman rangli yozgi kiyimlar - oq, havo rang, qizil, sariq, yashil, pushtirangli kiyimlar bor.

man farāmuš kardam ke u emšab piš-e man miyāyad - Uning bugun kechqurun mening oldimga kelishi esimdan chiqibdi.

fe'li esa faqat "nimanidir unutmog" ma'nosinigina ifodalay oladi.

esm-e u [az] yād-am raft - Uning ismini unutdim; yādam raft ke u emšab piš-e man miyāyad - Bugun kechqurun oldimga kelishini unutibman.

18-mashq. O'qing va tarjima qiling.

اسم این نویسنده یاد آمد. رنگ پیراهن او از یادم رفته است. مدل ژاکت آبی رنگش یادم نمی آید. یادش رفت که فردا یکشنبه، روز استراحت است. یادم رفت که مادرم به مغازه ی لباس فروشی رفته است و هیچ کس غیر از من در خانه نیست. یادم آمد که در کدام مغازه، لباس می فروشند. یادم رفته است، قرائتخانه به روسی یعنی چه.

19-mashq. fe'lidan foydalanib, quyidagi jummalarga sinonim bo'lgan jumlar tuzing.

شما اسم مرا فراموش کرده اید. او شماره ی خانه ی مرا فراموش کرده است. مگر فراموش کردی که امروز سه شنبه است؟ فراموش کردم این نویسنده چه وقت متولد شده است. شما فراموش کردید که فردا روز تولدش است.

20-mashq. Mumkin bo'lgan o'rinlarda کردن fe'lini [از] یاد رفتن bilan almashtiring.

من دوستان خود را هیچوقت فراموش نمی کنم. روز تولدتان را فراموش کردم و تبریک نگفتم. فراموش کردم که ساختمان پست و تلگراف در کدام

26-mashq. Quyidagi she'rlarni yodlab oling:

اگر غم را چو آتش دود بودی	جهان تاریک بودی جاودانه
در این گیتی سراسر گر بگردی	خردمندی نیایی شادمانه
(ابو شکور بلخی)	
اگر دردم یکی بودی چه بودی	اگر غم، اندکی بودی چه بودی
به بالینم چه کسی یا طبعی	از این دو، گر یکی بودی چه بودی
(بابا طاهر عریان)	

O'N IKKINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Aniq kelasi zamon fe'li (مستقبل *mostaqbal*)

Aniq kelasi zamon fe'li ish-harakatning kelasi zamonda aniq bajarilishini bildiradi va fe'lining murakkab, ya'ni, semantik shakllari qatoriga kiradi. Bu fe'l shaklini hosil qilish uchun خواستن *xāstan* fe'li va tegishli fe'lining qisqa infinitiv shakli ishlatiladi. Aniq kelasi zamon fe'lining tuslanishi خواستن fe'lining hozirgi zamon negiziga tegishli shaxs-son qo'shimchalari qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qisqa infinitiv shakli esa o'zgarmaydi. Masalan: رفتن + خواستن

Birlik

I shaxs *xāham raft* – boraman, ketaman

II shaxs *xāhi raft* – borasan, ketasan

III shaxs *xāhad raft* – boradi, ketadi

Ko'plik

I shaxs *xāhim raft* – boramiz, ketamiz

II shaxs *xāhid raft* – borasiz, ketasiz

III shaxs *xāhand raft* – boradilar, ketadilar

Aniq kelasi zamon fe'lining har ikkala qismi o'z urg'usiga ega bo'ladi: *xāhām raft*.

Bu fe'ning bo'lishsiz shakli خواستن fe'lga inkor yuklamasini orttirish yo'li bilan yasaladi. Masalan: نخواهم رفت *naxāham raft* - "bormayman, ketmayman" va h.k.

Prefiksli (old qo'shimchali) va murakkab fe'llardan aniq kelasi zamon fe'li yasashda خواستن fe'lining shaxs-sondagi shakli prefiks

va fe'l qismi, ot qismi va fe'liy qismlari orasiga joylashtiriladi.
Masalan:

bar-xāham gašt – qaytib kelaman بر خواهم گشت

kār xāhi kard – ishlaysan va h.k. کار خواهی کرد

Fe'lining hozirgi zamon negizi ishitrokida yasalgan murakkab so'zlar

Fors tilining lug'at tarkibi qator mahsuldor so'z yasash usullari asosida yangi lug'at birliklari vujudga kelishi hisobiga doimo kengayib, to'lib boradi. "Ot+fe'lining hozirgi zamon negizi" qolipi asosida so'z yasash ana shunday mahsuldor usullardan hisoblanadi. Masalan:

jostan- جشن – جو dāneš-bilim va دانش talaba dānešju – دانشجو
qidirmoq, izlamoq fe'lining hozirgi zamon negizi);

kardan – کردن kon va کار kār-ish kārkon – کارکن
qilmoq fe'lining hozirgi zamon negizi);

furuš – فروش ketāb – kitob va ketābfuruš – کتابفروشی
sotmoq fe'lining hozirgi zamon negizi).
foruxtan – فروختن

Bunday usulga ko'ra yasalgan so'zlar aksariyat hollarda tegishli ish-harakatni ko'rsatilgan ob'ekt ustida yoki unga yo'naltirib bajaruvchi shaxs yoki predmet nomlarini bildiradi:

talaba (aynan: bilim izlovchi) – دانشجو

xizmatchi (aynan: ish qiluvchi) – کارکن

kitob sotuvchi (aynan: kitob sotuvchi) ba h.k. – کتابفروشی

ya-ye ياي مصلري Bu turdagi yasama so'zlardan o'z navbatida otlar yasash mumkin: masdari yordamida

kitob savdosi (کتابفروش + ي) ketābfuruši کتابفروشی

talabalik – (دانش + جو + ي) dānešjui دانشجویی

1-mashq. Quyidagi fe'llarni aniq kelasi zamon shaklida tuslang:

ساختن – فروختن – خریدن – برداشتن – فراگرفتن – فرورفتن – حکایت کردن – حرف زدن – وارد شدن.

2-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni aniq kelasi zamon fe'li shaklida ishlatib, jummalarni to'ldiring va ko'chirib yozing.

نزدیک خانه‌ی ما به زودی مغازه‌ی بزرگ (ساختن). برادرم در خانه‌ی چند طبقه‌ی (زندگی کردن). در طبقه‌ی اول این خانه، مغازه‌ی عسکری (بودن). من به آنه (نگاه کردن). تو کلاه را (از سر برداشتن). فروشنده، کلاه را در کاغذ (پیچیدن). مادرم از مغازه‌ی کفش فروشی کفش (خریدن). این کلاه به صورت (آمدن). من کلاه را (به سر گذاشتن). من در شب‌های جوراب فروشی، جوراب زنانه (خریدن). من ساعت 9 به خانه (برگشتن). قیمت کتاب را خودم (پرداختن).

3-mashq. Quyidagi jummalarning talaffuziga diqqat qiling va baland ovoz bilan takrorlang.

فردا به شهر بخارا خواهم رفت. احمد و حمید، امشب پیش من خواهند آمد. امروز بعد از درس در کتابخانه خواهم بود. بعد از یکسال، تو به زبان فارسی حرف خواهی زد. استاد زبان فارسی ما از این در وارد اتاق خواهد شد. ما کمی استراحت خواهیم کرد. فردا شما چه کار خواهید کرد. آیا آنها پس فردا شما را خواهند دید؟ بعد از سه سال، فارغ التحصیل خواهم شد. من با دانشجویان دیگر گروه مان به ازبکی گفتگو نخواهم کرد. من روز تولد دوستم را فراموش نخواهم کرد و آن را به او تبریک خواهم گفت. خواهرم قبل از خرید کت و دامن لپه‌ای رنگ آن را امتحان خواهد کرد.

4-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Ertaga men akam bilan bozorga boraman. Do'stim bir yildan so'ng o'qishni tamomlaydi. Ertangi darslarni tayyorlab bo'lganimdan so'ng bir oz dam olaman. Kechqurun otam va onam bilan yangi filmni tomosha qilaman. Indinga dam olish kuni bo'ladi. Singlim bilan kerakli narsalarni xarid qilish uchun kiyim-kechaklar magaziniga boramiz. Biz u yerdan menga yozgi shim va singlimga havorang nimcha sotib olamiz. So'ngra kiyim-kechaklar magazini yonidagi kitob do'koniga kiramiz. Singlim kitob do'konidan kerakli darslik kitoblari va o'quv qurollarini tanlaydi. Kerakli narsalarni tanlab bo'lgandan so'ng ularning pulini to'laymiz va do'kondan chiqamiz. Trolleybusga chiqamiz va uyga qaytamiz. Uyda xarid qilgan narsalarimizni ota-onamizga ko'rsatamiz. Hafta oxirida sayr qilish uchun parkka boramiz. Bir oydan keyin "Paxtakor" metro bekati yonida katta 3 qavatli kiyim-kechak magazini ochiladi. Uning birinchi qavatida bolalar kiyim-kechaklari, ikkinchi qavatida ayollar ko'ylak va bosh kiyimlari va uchinchi qavatida erkaklar kiyim-boshlari sotiladi.

Ikkinchi mashg'ulot

فروشگاه بزرگ

من در بخش «صابر رحیم اف» زندگی می‌کنم. در این ناحیه، بعد از زلزله‌ی سال ۱۹۶۶ خیابان‌ها و کوچه‌های تازه‌ی زیادی ساختند و حالا هم می‌سازند. نیز در این خیابان و کوچه‌ها، ساختمان‌های زیادی می‌سازند. این ساختمان‌ها بسیار زیباتر و دارای ۵ و یا ۹ طبقه می‌باشد. عمارات ۹ طبقه‌ای آسانسور دارد. هر چند وقت کار ساختمانی چند طبقه به اتمام می‌رسد. یکی از این عمارات را نزدیک خانه‌ی ما ساختند. طبقه‌ی اول این عمارت، مغازه‌ی ای خلی بزرگ است. این فروشگاه است و غرفه‌های زیادی دارد: شعبه‌ی لباس

فروشی، شعبه‌ی کفش فروشی، شعبه‌ی پارچه فروشی، شعبه‌ی کلاه فروشی، شعبه‌ی جوراب فروشی، شعبه‌ی خرازی، شعبه‌ی مواد غذایی و شعبات دیگر. دیروز به این فروشگاه رفتم، خواستم کلاه و بعضی چیزهای لازم دیگر بخرم. وارد شعبه‌ی کلاه فروشی شدم. از فروشنده خواش کردم کلاه غره‌ی ۵۷ را به من نشان بدهد. او کلاهی به من داد. کلاه را به سر گذاشتم. دیدم کمی کوچک است. از فروشنده، دوباره خواش کردم که کلاه دیگری با یک غره بزرگتر بدهد. او کلاه دیگری به من داد. این کلاه به اندازه‌ی سرم بود. خودم را در آینه نگاه کردم و دیدم که کلاه به صورت من می‌آید. راضی شدم و کلاه را از سر خود بر داشتم. آن را به فروشنده دادم تا در کاغذ بپیچد. بعد، قیمت کلاه را از فروشنده پرسیدم و پول آن را پرداختم. کلاه را گرفتم و پس از آن، برای خرید جوراب و کفش به شعبات دیگر رفتم. شرح خرید چیزهای دیگر را فردا حکایت خواهم کرد.

Leksik izohlar

1. آمدن *āmadan fe'li* o'zining asosiy "kelmoq" ma'nosidan tashqari "yarashmoq, yarashib turmoq" (kiyim-kechak, soch turmagi va h.k. haqida gapirganda) ma'nolarida ham ishlatiladi. Mazkur ma'noni ifodalashda bu fe'l be- old ko'makchisining ishlatilishini talab qiladi. Masalan:

in pāltu bešomā miyāyad – Bu palto sizga yarashib turibdi.

in kolāh be man namiyāyad – Bu shlyapa menga yarashmaydi.

Bunday jumlar tarkibida, shuningdek, صورت *surat-yuz*, chehra, اندام *andām-qaddi-qomat*, gavda va shunga o'xshash boshqa so'zlar ham ishlatilishi mumkin.

in kolāh besurat-e šomā miyāyad – Bu shlyapa sizga (chehrangizga) yarashib turibdi.

lebās-e tāze be andām-e šomā xeyli miyāyad – Yangi ko‘ylak qaddi-qomatingizga juda yarashadi.

2. دوباره *dobāre* boshqatdan, yana, qaytadan so‘zi ma‘lum ish-harakatning takroran amalga oshirilishini bildiruvchi birikmalarda ishlatiladi. دوباره گفتن *dobāre goftan* – boshqatdan aytmoq; دوباره پرسیدن *dobāre porsidan* – qaytadan so‘ramoq va h.k. Mazkur ma‘noni ifodalash uchun, shuningdek, مکرراً *mojaddadan*, takroran so‘zlari ham ishlatiladi.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga chap ustundan tog‘ishli so‘z va so‘z birikmalarini tanlab olib, kerakli shakllarda qo‘ying va jumalarni yozma tarjima qiling.

بعد از ... در ناحیه‌ی ما خیابانها و کوچه‌های تازه	مغازهی کفش فروشی
می‌سازند. عمارات این خیابان، دارای چند	کفش مردانه
... می‌باشد. در ... اول خانه‌ی ما ... است. در	به صورت آمدن -
این مغازه نه فقط ... بلکه ... هم می‌فروشند. من	آینه
در ... نگاه کردم، دیدم که کلاه دالشیجو	غزازي - کفش زنانه
کلاه را ... و وارد کلاس شد. پدرم کلاه را ... و	به سر گذاشتن - زلزله
از خانه بیرون آمد. من کتاب را از روی میز ... و	از سر بر داشتن
به برادرم دادم. بفرمایید این کتاب را در کاشی	طبقه - پیچیدن
.... در مغازه‌ی ... چه می‌فروشند؟ آیا از مغازه‌ی	بر داشتن - جوراب
غزازي می‌شود ... بخرید؟	

6-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Bu shlyapa sizga juda yarashib turibdi. Agar bu kostyum-shim menga yarasha uni albatta sotib olaman. Agar bu nimcha senga yarashmayotgan bo‘lsa uni sotib olma. Agar bu ko‘ylak menga yarashganida, sotuvchidan boshqasini ko‘rsatishini iltimos qilmasdim. Men oynaga qaradim va bu oq ko‘ylakning menga yarashib turganini ko‘rdim. Ahmad! Qara-chi, bu palto menga yarashadimi? Habib! Qara, havorang nimcha unga qanday yarashib turibdi! Opam sizga dedi: “Afsuski, bu kostyum-shim sizga yarashmayapti!”. Xaridor sotuvchidan so‘radi: “Bu ko‘ylak qaddi-qomatinga yarashadimi?”. Sotuvchi javob berdi: “Ha-ha! Bu ko‘ylakning bichimi va rangi chehrangiz va qomatingizga juda yarashadi!”

7-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Uyimizning yonida yangi katta va chiroyli imorat qurib bitkazildi. Bu to‘qqiz qavatli turar-joy imorati. Uning birinchi qavatida univermag joylashgan. Bu univermagda poyabzallar, kiyim-kechaklar, bosh kiyimlar, gazmollar, attorlik mollari kabi juda ko‘p bo‘limlar bor. Kecha onam menga dedilar: “Yur, univermagga boramiz! Men o‘zingga ro‘mol xarid qilmoqchiman”. Bizning uyimiz oltinchi qavatda. Onam bilan liftga chiqib, birinchi qavatga tushdik. Univermagga kirdik va bosh kiyimlar bo‘limiga bordik. Sotuvchi qiz bizga bir necha turli bichimdagi yozgi ro‘mollarni ko‘rsatdi. Onamga bir oq ro‘mol juda yoqdi. Uni boshlariga o‘radilar va oynaga qaradilar. Keyin mendan so‘radilar: “Qara-chi, bu ro‘mol menga yarashadimi?” Men javob berdim: “Ha-ha! Juda yarashib turibdi!” Biz sotuvchidan ro‘molni o‘rab berishini iltimos qildik. Onam menga dedilar: “Sen ham o‘zingga shlyapa tanla!” Men bir kulrang shlyapani tanlab oldim va boshimga kiydim. Shlyapa menga katta keldi. Men shlyapani boshimdan yechdim va sotuvchidan xuddi shu rangdagi boshqa shlyapani keltirishini iltimos qildim. Uni ham kiyib ko‘rdim. Bu shlyapa menga loyiq keldi. Men ham oynaga qaradim va shlyapaning menga yarashib turganini ko‘rdim. Onam ham dedilar: “Bu shlyapa chehrangga juda yarashib turibdi”. Biz ro‘mol va shlyapaning pulini to‘ladik va univermagdan chiqdik. Uyimizga yaqinlashgan paytda qizim unga ham paypoq sotib olishimizni

iltimos qilgani esimga tushib qoldi. Onamdan so'radim: "Qaytamizmi?" Onam javob berdilar: "Paypoqni, yaxshisi, ertaga sotib olarsan. Bugun paypoqlar bo'limida odam juda ko'p edi". Men yana so'radim: "Ertaga odam kamroq bo'lishini qayerdan bilasiz?" Onam dedilar: "Bugun yakshanba – dam olish kuni. Shuning uchun odam ko'p. Ertaga, menimcha, odam kamroq bo'ladi". Men ulardan so'radim: "Ertaga univermag ochiq bo'ladimi?" Onam dedilar: "Afsuski, ertaga univermag ochiq bo'ladimi yoki yo'qmi, bilmayman". Men dedim: "Unday bo'lsa, paypoqni bugun sotib olish kerak. Agar ishlaringiz bo'lsa siz uyga boravering. Men univermagga bir o'zim borib kelaman". Onam uyga ketdilar va men qaytadan univermagga kirdim. Hikoyamning qolganini ertaga aytib beraman.

8-mashq. Quyidagi she'rni tarjima qiling va yodlab oling.

شعر

دوستى يا مردم دانا نکوست دشمن دانا به از نادان دوست

دشمن دانا بلندت مي کنند بر زمينت ميزند نادان دوست

Uchinchi mashg'ulot

Majhul nisbat

Nisbat kategoriyasi fe'l turkumining asosiy grammatik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Fors tilida fe'llarning aniq, majhul va orttirma nisbatlari mavjud. Fe'ning orttirma nisbati, uning yasalishi va ishlatilishi haqida keyingi darslarimizning birida ma'lumot beramiz.

Ushbu darsimizda fe'ning aniq va majhul nisbatlari, ularning xususiyatlari, majhul nisbatning yasalishi va ishlatilishi haqida suhbatlashamiz. Aniq va majhul nisbatlarning bir-biridan farqini anglash uchun quyidagi ikki jumlani bir-biriga taqqoslang:

1. Quruvchilar yaqinda bu imoratni qurib bitkazdilar.

2. Bu imorat yaqinda qurib bitkazildi.

Yuqoridagi gaplar bir-biridan gap tarkibidagi bevosita ish-harakat bajaruvchisining ifodalangan yoki ifodalanmagani bilan farq

qiladi. Birinchi gapda "qurmoq" ish-harakati "quruvchilar" tomonidan bajarilgani aniq ifodalangan, ya'ni gapning mantiqiy va grammatik egasi bir-biriga mos tushadi. Ikkinchi gapda esa ish-harakatning bevosita (mantiq jihatidan) bajaruvchisi ifodalanmagan. Lekin grammatik tahlil kesim "qurib bitkazildi" va ega "imorat" ekanligini ko'rsatadi, ya'ni gapning mantiqiy va grammatik egalari bir-biriga mos tushmaydi. Mantiqiy ega – quruvchilar, grammatik ega – imorat.

Birinchi gapda ifodalangan holat, ya'ni ish-harakatning bevosita bajaruvchisi aniq ko'rinib turgan holat fe'ning aniq nisbati deb ataladi.

Ikkinchi gapdagi holatda esa, ish-harakatning bajaruvchisi egani ifodalamay, mazkur ish-harakatning ob'yekti gapda ega vazifasini bajarsa, gapning kesimi fe'ning majhul nisbatida q o'yiladi.

Fors tilida fe'ning aniq nisbati maxsus usul orqali yasalmaydi. Aksariyat fe'llar o'z lug'at ko'rinishida aniq nisbatga ega bo'ladi.

